XIII asr boshida Angliya siyosiy kurashlar maydoniga aylandi. Bu kurash ayniqsa Genrix II ning o'g'illari Richard I Sher Yurak (1189-1199) va Ioann (Jone) Yersiz (1199-1216) davrlarida kuchaydi. Ioann Yersizning obro'siga zarba bergan birinchi sabab, Angliyaning Fransiya bilan bo'lgan to'qnashuvi va bu to'qnashuvda inglizlarning mag'lubiyati bo'ldi. Angliya shimoliy Fransiyadagi Normandiya, Anji, Turen, Puatuning bir qismidan mahrum bo'ldi. Yuqoridagilar mamlakat ichida uning obro'sizlanishiga olib keldi va Ioann Yersizni 1215 yilda o'z baronlari bilan to'qnashtirdi. 1215 yil yozida ritsarlar va shaharliklar tomonidan qo'llab-

2. V.F. Semenov "O'rta asrlar tarixi" T-1974.

3. Salimov T.O. "Jahon tarixi" (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda) T-2014

quvvatlangan baronlar Ioangga qarshi ochiq urush e'lon qildilar. Qirol esa o'z dushmanlarining kuch jihatdan ustun ekanligini sezib, 1215 yil 15 iyunda qo'zg'olon ko'targanlarning talablari bayon qilingan hujjatni imzolashga majbur bo'ldi. Bu hujjat o'rta asrlar Angliya tarixida "Buyuk erkinlik xartiyasi" nomi bilan mashhurdir.[4]

1265 yil yanvarda Simon de Monfor mamlakatni boshqarish komissiyasi majlisini chaqirdi va bu majlisga baronlardan va yepiskoplardan tashqari, har bir graflikdan va kattaroq shaharlardan ikkitadan vakil taklif etdi. Bu amalda, Angliya parlamenti faoliyatining boshlanishi edi. Shunday qilib, fransuz General shtatlariga o'xshash, Angliyada birinchi marta uch toifa vakillaridan iborat parlament chaqirildi. Simon de Monforga hokimiyat tepasida uzoq vaqt turish nasib qilmadi. Shahzoda Eduard asirlikdan qochib, qirollikka keladi va qirollik kuchlarining asosiy tashkilotchisi bo'lib qoladi. Eduard I davriga kelib Shotlandiya va Uel's bilan urush olib borildi. Shotlandiya bilan urush olib borishdagi moliyaviy qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun, soliq undirishni qonunlashtirish uchun 1295 yilda parlamentni to'liq tarkibda chaqirdi. Bunda har bir grafliklardan dvoryanlar, ruhoniylar va shaharliklardan, ya'ni, har bir ijtimoiy tabaqa vakillaridan ikki kishidan iborat vakillar qatnashdilar. Bu parlamentning tarkibi kelajakda ana shunday yig'ilishlar uchun namuna bo'lganligidan, uni keyinchalik «namunali parlament» deb atadilar. Shu vaqtdan e'tiboran Angliya parlamenti muntazam suratda yig'iladigan bo'ldi, parlament, 1297 yildan boshlab, soliqlarni tasdiqlash huquqini qo'lga kiritdi. Shuni aytib o'tish joizki, hozirgi kunda Buyuk Britaniya parlamenti Vestminster saroyida faoliyat olib boradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'rta asrlar Angliya tarixida o'chmas iz qoldirdi. Aynan Yevropada ilk bor aholi ro'yxatdan o'tkazilishi ham Angliyada kuzatildi. Siyosiy o'zgarishlar nafaqat Angliyaga balki, butun dunyoga ham ta'sir qildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Angliyada ilk parlamentning tashkil topishi aynash o'sha davrdan boshlab mamlakat hayotida demokratiyaning balki, davlatning boshqaruvdagi rivojlanishini ham ko'rsata oldi. Va bularning bari, hozirgi zamonaviy Angliya uchun bir poydevor hisoblanadi.

---

<sup>34</sup>. Qurbangaliyeva R "O'rta asrlar tarixi" T-1991.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. T.O'.Salimov, F.E.Sultonov “Jahon tarixi” T-2017.
2. V.F. Semenov “O’rta asrlar tarixi” T-1974.
3. Савело К.Ф “Раннефеодальная Англия” 1997.
4. Qurbangaliyeva.R “O’rta asrlar tarixi” T-1991.
5. Удальсова З.В “История Европа” 1988.
6. Salimov T.O’ “Jahon tarixi” (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda) T-2014

## Raxbar imijini shakllantiruvchi elementlarning ijtimoiy huquqiy asoslari

*Xolmamatova Sitora Nurmat qizi*

*Telefon nomeri :+91 588 18 09*

*[xolmamatovasitora6@gmail.com](mailto:xolmamatovasitora6@gmail.com)*

*DTPI tarix ta'lim yo'nalishi ikkinchi kurs talabasi.*

**Annotatsiya** : ushbu maqolada rahbar imijini shakllantiruvchi omillar hamda rahbar qanday bo'lish kerakligi ,xodimlar bilan munosabati ,rahbarlik faoliyatidaki yutiqlar hamda kamchiliklar haqida yoritilgan.

**Kirish so'zlar** : rahbar, imij, xodim, ma'naviyat, madaniyat

Rahbar- bu oxirgi qaror qabul qiladigan, hodimlarni jazolaydigan yoki rag'batlantiradigan va o'ziga bo'ysundira oladigan shaxs. Rahbar o'z rahbarlik qobig'idan chiqib, hodimlar bilan hamjihat va bir butun bo'la olishi kerak. Ammo har qanday paytda ham hodimlar psixologiyasidan kelib chiqqan holatda vazifa yuklashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Rahbar eng avvalo nutqni ushlay olishi va o'ziga qat'iy ishonch bo'lgan ko'z qarashlariga ega bo'lmog'i lozim. Rahbarning ma'naviy ma'daniyati bu – rahbarda shakllangan ruhiy quvvatdir. Rahbarda shakllangan ma'naviy – psixologik ma'daniyat ajdodlar ibratiga asoslanib, qadriyat darajasida qadrlanadigan shaxs ma'naviy olamini tartibga solib turuvchi ko'nikma darajasiga yetgan hissiy bilimlar majmuidir. Rahbar hodimlariga ruhiy quvvat bo'lishi uchun o'zining psixologiyasi ham standartga javob berishi kerak. Rahbarning psixologiyasi talabga javob bermay turib, hodimlarni qoniqarli bo'ysundira olmaydi. Rahbar bilib olishi kerak bo'lgan asosiy narsalardan biri bu - quyi boshqarish bo'g'inlariga huquqlar berish, ma'suliyat va vazifalar yuklash usulini egallab olishidir. Xuquqlar berish, ma'suliyat yuklash va maqsadli topshiriqlar berishni boshqarishda mahnat taqsimotining muhim shakli uning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Rahbar shaxsi tushunchasini tahlil etar ekanmiz, unga xos xususiyatlarni uch guruhga bo'lib o'rganish taklif qilinadi:

1. Biografik tavsif
2. Qobiliyat
3. Shaxs xislatlari Rahbar shaxsining biografik jihatlariga uning yoshi, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy mavqei va ma'lumoti kiradi. Rahbarga xos kompetentsiyalar quyidagilar hisoblanadi. 1. Maqsadning qo'yilishi – tashkilotning biznes maqsadlariga mos keluvchi vazifalarini ishlab chiqa olish va uni boshqalarga etkazib bera olish. 2. Motivatsion qo'llab quvvatlash – xodimlarning o'z ishiga sadoqatini

mustahkamlay olish. 3. Komandada ishlash ko'nikmalarini tarbiyalash –agar bu inson tez-tez komanda a'zosi bo'lib ishlasa, unda boshqa a'zolar bilan hamkorlikda ishlash xohishi mavjud bo'ladi va buning uddasidan chiqadi; agar u komanda lideri bo'lsa, bu holda u guruhni birgalikda ishlashga o'rgatish orqali o'zining qiziqish, ko'nikma va muvaffaqiyatini namoyish etadi. 4. Xodimlarga vakolatlarni taqsimlash – munozarali savollarni yechish va maqsadlar yo'lida muvaffaqiyatga erishishlari uchun tanlov erkinligini berish. 5. O'zgarishlarni boshqarish– tashkilotning samarali ishlashini oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy o'zgarishlar va innovatsiyalarni qo'llab quvvatlay olish, tashkiliy o'zgarishlarni tatbiq qilish, homiylik qilish hamda ularning muvaffaqiyatli borishida boshqalarga yordam berish. 6. Qo'l ostidagilarning imkoniyatlarini rivojlantirish– mas'uliyatni his etish, komandada ishlash, xodimlarjning imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam berish. 7. Mehnat sifatini boshqarish– o'zi va qo'l ostidagilarning butun faoliyati mas'uliyatini o'z zimmasiga ola bilish, aniq maqsadlar va istiqbollarni belgilash. 8. Muloqotga e'tibor– kerakli xodimlarning ma'lumotlar bilan ta'minlanish jarayonini nazorat qilib bora olish. 9. Og'zaki muloqot– birgalikda faoliyat yuritayotganda va suhbat paytida o'z fikrlarini aniq ifoda eta olish. 10. Yozma muloqot– ish bilan bog'liq yozuvlarda fikrni tushunarli qilib yoza olish. 11. Ishontiruvchi muloqot– kerakli odamlarni ishontirish uchun ma'lumotlarni (og'zaki yoki yozma) etkazib berishni tashkil eta olish. 12. Boshqalarni tushuna olish– boshqalarning munosabatlari va his tuyg'ularini oldindan bilish, seza olish, shuningdek, empatik ravishda fikrlarini boshqalarga ma'lum qilish. 13. Atrofdagilarga ta'sir o'tkazish– o'z g'oyalari, maqsadlari, loyihalari va qarorlariga hamfikir va qo'llab-quvvatlovchilarni topa olish. Hamkorlik o'rnatish– ma'lumot etkazib bera oladigan, ko'maklashadigan odamlar (korxonada ichidagi va shuningdek, korxonada tashqarisidagilar) bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, qo'llabquvvatlash va mustahkamlash. 15. Mijozga yondashuv– ichki va tashqi mijozning talabini qondirishdan mafaatdor ekanligini ko'rsata olish. 16. Diagnostik ma'lumotlarni yig'ish– vaziyatga aniqlik

kiritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni bilish; bunday ma'lumotlarni tegishli manbalar yordamida qidirishni amalga oshirish (savolni shunday berish kerakki, ma'lumotni bo'lishishni xohlamagan inson ham javob berganini o'zi bilmay qolsin).

17. Analitik fikrlash– mantiqiy, tizimli, ketma-ket yondashuvlardan foydalangan holda muammoni hal eta olish. 18. Istiqbolli fikrlash– vaziyatning natijasi, ochilmagan qirralarini topa olish va shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatga tayyor turish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni ko'rish. 19. Tushuntiruvchi fikrlash– yaxlit, mavhum va nazariy fikrlash yordamida samarali echimni topa bilish. 20. Strategik fikrlash– bozor va sanoatdagi tendensiya, mavjud va kutilayotgan (ichki va tashqi) xaridorlar, shuningdek, tashkilotning raqobatchilar bilan solishtirganda kuchli va ojiz tomonlarini ko'rib chiqqan holda korxonalar raqobatbardoshligini tahlil qila olish. 21. Texnika sohasidagi kompetentsiya– texnika sohasidagi chuqur bilim va ko'nikmalarini ko'rsata olish. 22. Tashabbuskorlik– tegishli ko'rsatmalar olish yoki kuchli zaruriyat tug'ilgunga qadar nima qilish kerakligini ko'ra olish. 23. Tadbirkorlik qobiliyati– foydali imkoniyatlarni qidirish, topish va biznes maqsadiga erishishda tavakkalchilikka tayyor turish. 24. Yangiliklarni madaniylashtirish– yangi, mukammal uslub, tovar, algoritmlar yoki texnologiyalarning ishlab chiqarilishi va kirib kelishiga homiylik qilish va qo'llab-quvvatlash. 25. Natijani mo'ljalga olish– o'zi yoki komandasi ishidan kutilayotgan natijaga butun e'tiborini qaratish murakkab, lekin erishsa bo'ladigan maqsadlarni oldiga qo'yish, butun kuchini shunga sarflash, maqsadga va hatto undan ortig'iga erishish. 26. Vijdonlilik– o'zining va o'zganing ishi to'liq bajarilgani, ma'lumotlar esa tekshirilganiga ishonch hosil qilish, taqdimot (prezentatsiya) va konferensiyalarga qattiq tayyorgarlik ko'rish, boshqa hamkasblar bilan birgalikda shartnomalar hamda majburiyatlar to'liq bajarilayotganini kuzatib borish. 27. Qat'iyatlilik– murakkab qarorlarni tezlikda qabul qila olish. 28. O'ziga ishonch– o'z g'oyalari va muvaffaqiyat qozonish imkoniyatlariga ishonch hamda qarama-qarshi mavqei (pozitsiya)dagi shaxs oldida mustaqil lavozimni egallashga

tayyor bo'lish. Stresslarni boshqarish– bosim o'tkazilgandava ziddiyatli vaziyatlarda o'zini qo'lga ola biladi. 30. Ishonchli bo'lish– o'zini mas'uliyatli, ishonchga arziydigan shaxs ekanligini ko'rsata olish. 31. Moslashuvchan, qayishqoq bo'lish– ishning yangicha usullariga moslashuvchanlik, o'zining sevimli ishlash uslubini zamonaviylashtirishga tayyor turish. Rahbar yuqoridagi talablarga rioya qilmas ekan, u o'z rahbarlik usulida quyidagi salbiy hodisalarga yo'l qo'yishi va o'z obro'yini yo'qotishi mumkin:

1. Balandparvoqlik
2. Xadiksirashlik
3. Natijasizlik
4. Ishida samarasizlik
5. Byurokratizm

Balandparvoqlik- o'zining ko'zga ko'rinmas yutuqlarini ham gapiraveradi. Yuqori organlardan maqtov eshitishni yoqtiradi va o'zi haqida shov-shuv bo'lishni hoxlaydi.

Xadiksirash- uncha murakkab bo'lmagan narsalardan ham shubhalanadi.har ishda sustkashlik qiladi.

Natijasizlik- shu yuqoridagi holatlar qo'rqish hadiksirash oqibatida ishini oxirigacha olib bora olmaydi va natijaga erisha olmaydi.

Ishda samarasizlik- tashabbuskor, dovyurak va sabrsiz bo'lgani uchun ishida samara bo'lmaydi.

Byurokratizm- ishlab chiqilgan qoida, qo'llanmalar doirasidan chiqmaydi,uni o'zining birdan- bir maqsadi deb biladi. Muvaffaqiyatli rahbarlikka oid shaxs xislatlarini talqin etar ekanmiz, shu mavzu yuzasidan chet el olimlari tomonidan o'tkazilgan ba'zi bir tadqiqot natijalariga murojaat etamiz. Amerika va Yaponiyalik 201500 menejerlarni o'rganish asosida samarali rahbarlikka oid quyidagi xislatlar ajratib ko'rsatiladi:

- strategik rejalashtirishga moyillikning kuchliligi;



- faoliyat doirasini kengaytirish yoki yuksak tartibda mehnat qilish evaziga o'z mas'uliyatini oshirishga intilish;
- xavfli sharoitda ijodiy va ratsional qaror qabul qila olish;
- o'z kuchiga cheksiz ishonch;
- o'z huquqlarini anglash va mas'uliyatni his qilish;
- kezi kelganda qurbon berishga ham tayyor turish;
- muloqot malakalarini mukammallashtirishga intilish;
- murakkab va inqirozli vaziyatdagi jarayonlarni tahlil etish;
- mehnatga yuksak qadriyat sifatida qarash va unga butun kuch-g'ayratni safarbar etish;

Shulardan iboratdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har bir shaxs ayniqsa individ o'zini jamoat joyida ko'chja ko'yda tutishni munosabat o'rnatishni hamda o'zining shaxsiy etikasiga ega bo'lishi kerak ekan . chunki aynan etika insonni qandayligini ko'rsatib beruvchi ko'zgu ekan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. K.B.Axmedjanov. A.X.Xolov. Yosh rahbar kadrlarda samarali qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish. O'quv qo'llanma // Toshkent. - "Tafakkur qanoti", 2020.
2. To'ychiyeva S. Boshqaruv texnologiyalari. O'quv qo'llanma // Toshkent. - "Navro'z" nashriyoti, 2020.
3. Rahmatullayeva N, Kamolov A. Ijtimoiy menejment. // O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2017.
4. Haydarov A. Siyosiy madaniyat mas'uliyati. - Toshkent, - "Tafakkur" 2009
5. E.G'. Nabiyeu, D.N. Rahimova, Sh.N. Mavloniy. Zamonaviy menejment nazariyasi va amaliyoti. // O'quv qo'llanma. - T.: "Akademiya" nashriyoti,
6. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. // - Toshkent: "Yangi asr avlod",

## Rahbarlik mehnatini tashkil etishning nazariy ijtimoiy asoslari

*Jalilova Mohira*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim tizimi, rahbar faoliyati, ta'lim jarayonidagi rahbarning usullari, majburiyatlari hamda o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, rahbarlik mehnatini tashkil etishning nazariy ijtimoiy asoslari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim tizimi, boshqaruv, rahbar faoliyati, imidji, uslub va dasturlari.

Har birimiz qanday kasb egasi bo'lishimizdan qat'iy nazar, psixologik bilimlarga ega bo'lishimizni kasbimiz va zamon ham talab qiladi. Qay sohada faoliyat olib bormasin inson o'zini muntazam nazorat qila olishi va muomala madaniyatiga ega bo'lishi darkor. Ayniqsa, pedagoglar va rahbar kadrlarga bu borada juda kuchli talablar qo'yiladi. Zero, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqi aynan rahbar kadrlar faoliyati bilan bog'liq. Shunday ekan, rahbar butun bir jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch sifatida o'z sohasini mukammal darajada bilishi, bilim va malakaga ega bo'lishi, hamisha zimmasiga yuklatilgan vazifasini yodida saqlashi va aslo xatoga yo'l qo'ymasligi kerak. Bu borada rahbar o'z kompetentsiyasiga ega bo'lishi juda muhim ahamiyatga ega. Xo'sh, kompetentlik o'zi nima? Rahbar kadrlar kompetentligi to'g'risida juda ko'plab fikrlar mavjud bo'lib, ularning barchasi mazmunan va shaklan turlicha talqin qilinadi. Bizning fikrimizcha, kompetentlik – bu soha egasining kasbiy bilim, ko'nikma, malaka, shuningdek, shaxsiy sifat va fazilatlar integratsiyasidir. Demak, rahbar nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega bo'lishi, shuningdek, uning qanday strategiya va usullarni qo'llashi, muomala madaniyati, jamoasiga nisbatan motivatsiyasi, his-tuyg'ulari, boshqarish jarayonidagi murakkab muammolarni hal qila olishi uning kompetentligini belgilab beradi. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda oliy ta'lim muassasasining rahbar va pedagog kadrlari quyidagi metadologik bilimlarga asoslanishi talab etiladi: - Falsafiy nuqtai nazardan tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari; - Milliy va xalqaro qonunchilik asoslari; - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasidagi farmon, qaror va farmoyishlari; - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror, farmoyish, Davlat dasturlari va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlari; - Oliy va o'rta maxsus Ta'lim Vazirligining huquqiy-me'yoriy hujjatlari; - Xalqaro va mamlakatimiz yetakchi olimlarining ta'lim menejmenti borasidagi fundamental qarashlarini bilish. Bu borada ilg'or tajribalar asosida ishlab chiqilgan xulosalarga tayanish ham katta ilmiy-amaliy maktab hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasasi rahbarlari ta'limtarbiya jarayonini kompetentli boshqarish

jarayonida o'ziga xos vazifalarni bajarishi talab qilinadi: loyihalashtirish, tashkillashtirish, tahlil qilish, nazorat qilish va motivatsiyalash. Rahbar ushbu vazifalarning hammasini o'zaro uyg'unlashtirgan holda o'z faoliyatini amalga oshirishi darkor. Rahbar kompetentligida motivatsiya muhim ahamiyatga ega. U o'z jamoasida faoliyatni adolatli amalga oshirishi, xodimlarining qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishi va yutuqlarini rag'batlantirishi muhim vazifalaridan biridir. Rahbar kerakli vaziyatda o'z xodimlarini ish faoliyatini yanada oshirish maqsadida ularga turli usullar bilan motivatsiya berib borishi kerak: samarali ishi va erishgan yutuqlari uchun xodimlarini rag'batlantirishi, turli mehnat orqali motivatsiya berishi, xodimlari bilan o'zaro muloqotni kuchaytirishi, ular bilan chin dildan suhbat qilishi va lozim bo'lgan vaziyatlarda jazolash usulini ham qo'llashi kerak. Albatta, bular rahbarning vazifasi hisoblanadi va ish faoliyatining samaradorligini ham oshiradi. Dunyoda inson uchun kasblar, vazifalar juda ko'p. Menimcha, ular orasida eng mashaqqatli, jamiyat rivoji, davlatning taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan kasblardan, maqomlardan biri- bu rahbarlik lavozimidir. Lekin rahbarlik lavozimlari ham xalqdan, jamiyatdan ayri holda shakllanmaydi. Ularning mahorati, boshqaruvchanlik kuchi, salohiyati va boshqalar ham jamiyat, davlatning rivojlanganlik darajasiga ko'p holatlarda mutanosib keladi. Qolaversa, bizda shunaqa aqida borki, rahbar kadrlar o'qimishli, ko'p o'qigan, bilimli bo'lishi kerak deyiladi. Men mutlaqo bunga qo'shilmayman. Bir paytlar Aflotun davlatni faylasuf-olimlar boshqarish kerak, deb aytgan ekan, keyinchalik uning shogirdi Arastu o'z ustozining gapini tahlil qilib, yangilik kiritadi. Yo'q, deydi u olim faylasuflar rahbarlik qilmasligi kerak. Rahbarlar shunday odam bo'lishlari kerakki, ular faylasuf-olimlarning gapiga kirib, rahbarlik qilishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. Albatta, Arastuning gaplari purhikmat fikrlar. To'g'ri, ilm-fan, dunyoqarash, mafkura ham rahbarlik faoliyatida muhim o'rin tutadi. Lekin, menimcha, eng muhimi, bu tajriba, hayot tajribasi. Chunki bu ilm har qanday jamiyat uchun yaroqli bo'lgan bilimlarni beradi. Rahbar- bu kim? 1.Rahbar ijtimoiy shaxs sifatida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish resurslarini birlashtirib, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchini boshqaruvchi sifatida omilkorlik bilan ish yurituvchi shaxsdir. 2.Rahbar har qanday ishni amalga oshirish uchun, avvalo, mustaqil qaror qabul qiladi. Bu qaror rahbarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik faoliyati maqsadini belgilaydi. 3.Rahbar o'z sohasiga yangi g'oya, yangi tashabbus, yangi texnologiyalarni joriya etuvchi tadbirkor shaxsh hisoblanadi. 4.Rahbar mehnati, ayni vaqtda tadbirkorlikka asoslangan mashaqqatli faoliyat hisoblanadi, unga sarflangan kuch, maglag' ba'zan vaqtincha foyda emas, zarar keltirish, muassasa foyda o'rniga zarar ham ko'rishi mumkin. U bunday holatlarni oldindan ko'ra olishi va bunga tayyor turishi, zarur bo'lganda, faoliyatini qayta boshlashi, o'zida bunga kuch-g'ayrat topa bilishi lozim. Rahbarning faoliyat motivlari. Har bir rahbar o'z

ishini yaxshi tashkil etish uchun qo‘l ostidagilarini yaxshi ishlashga undashi zarur. Buning uchun rahbar ishchilariga motivatsiya berishi kerak. Maslouning “motivlar ierarxiyasiga ko‘ra insonning ehtiyojlari 5 turga bo‘linadi: komillikka intilish, hurmattalablik, sotsial, himoyalanganlik, fiziologik. Oliy ta‘lim muassasasi rahbarlari ta‘lim-tarbiya jarayonini kompetentli boshqarish jarayonida o‘ziga xos vazifalarni bajarishi talab qilinadi: loyihalashtirish, tashkillashtirish, tahlil qilish, nazorat qilish va motivatsiyalash. Jamoadagi o‘zaro to‘g‘ri munosabatlar, har bir xodimning mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilishini nazorat qiladi. Rahbarlik mavqeyi mudirani o‘z g‘oyaviy, ma‘naviy-ma‘rifiy, siyosiy-huquqiy saviyasini va mutaxassislik mahoratini doimo ongli ravishda oshirishga, pedagogik bilimlarni, bolalarga ta‘lim-tarbiya berish nazariyasi va amaliyotini puxta egallashiga, hozirgi bosqichda maktabgacha ta‘lim oldida turgan vazifalarni bilishga, o‘z bilimlaridan faoliyatida foydalanishga majbur etadi. U dastur, metodik, instruktiv me‘yoriy hujjatlarni puxta bilishi va amal qilishi kerak. U pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur bilishi, kamchiliklarni darhol bartaraf qilish choralarini ko‘rishi lozim. Rahbar ushbu vazifalarning hammasini o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda o‘z faoliyatini amalga oshirishi darkor. Rahbar kompetentligida motivatsiya muhim ahamiyatga ega. U o‘z jamoasida faoliyatni adolatli amalga oshirishi, xodimlarining qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishi va yutuqlarini rag‘batlantirishi muhim vazifalaridan biridir. Rahbar kerakli vaziyatda o‘z xodimlarini ish faoliyatini yanada oshirish maqsadida ularga turli usullar bilan motivatsiya berib borishi kerak: samarali ishi va erishgan yutuqlari uchun xodimlarini rag‘batlantirishi, turli mehnat orqali motivatsiya berishi, xodimlari bilan o‘zaro muloqotni kuchaytirishi, ular bilan chin dildan suhbat qilishi va lozim bo‘lgan vaziyatlarda jazolash usulini ham qo‘llashi kerak. Albatta, bular rahbarning vazifasi hisoblanadi va ish faoliyatining samaradorligini ham oshiradi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, rahbar xodimlar o‘zining ish yuritish uslublarini turli xil darajada amalga oshiradilar. Bunga juda ko‘plab misollar ham keltirishimiz mumkin. Har bir rahbar o‘zining imidji orqali boshqa xodimlarni o‘ziga jalb qila olishi, o‘zining ish uslubini ham shu orqali o‘zgalarga yaxshi tushuntira olishi va shu bilan birgalikda imidji orqali boshqaruv jarayonini yaxshi yo‘lga qo‘ya olishi mumkin. Chunki, rahbar eng avvalo o‘zini tushunishi, o‘zining ish uslubini, tashqi qiyofasini o‘zi yaratib olishi zarur.

Foydalangan adabiyotlar:

1. M.SHarifxo‘jaev, Yo.Abdullaev “Menejment” Toshkent. “Mehnat” 2000 y.
2. SH.N. Zaynutdinov va boshqalar. Menejment asoslari. T. Moliya-2001y.

3. R.I.Gumish, Matmurodov F.I. Innavatsion menejment Toshkent 2008 y. 4. Matmurodov F.I. Ma'muriy menejment Toshkent 2008 y
4. Abdullayev, A. A. (2020). Cluster method in the development of critical thinking technology in the lessons in primary school. Science and World, 5(81), 16-19.
5. Abdullayev, A. A. (2020). Development of professional skill of teachers in the higher education institutions. TDPU ilmiy axborotlari, 10, 191-194.

## Sharq va G'arb mutafakkirlari qarashlarida boshqaruvchanlik faoliyati

*Mamasoatova Baxtigul*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining davlat va uning boshqaruviga oid qarashlari bayon etiladi va tahlil etiladi. Shuningdek bugungi kun pedagog xodimlaridan boshqaruv ilmini egallashda tarixga nazar tashlashlari va buyuk allomalarimiz qarashlariga murojaat qilish zarurligi borasida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Muassasa, alloma, sharq mutafakkirlari, boshqaruv, bunyodkorlik, adolat mezoni, kengash, rahbar.

Yer yuzida 250 dan ortiq davlatda 7 milliardga yaqin inson yashaydi. Davlatchilik tizimi qadimiyligi o'zbek xalqining o'ziga xos xususiyatidir. Boshqaruvni shakllantirish, rivojlantirish, takomillashtirish tizimi va amaliyotini yaratgan taniqli siymolari ana shu xalqning qadim tarixidan darak beradi. Boshqaruvning samarali faoliyatida, davlat rahbarlarining ma'rifiy islohotlarida, albatta, madaniyat va san'at ziyolilarining munosib hissalarini bo'lgan va bu doim e'tirofga sazavor bo'ldi. Mamlakat tinchligi, osoyishtaligiga rahna solib turgan notinchliklar, mamlakat ichki va tashqi siyosatidagi tarfakshliklar o'z navbatida rahbarlarga bo'lgan munosabatlarni, taniqli ilm-fan namoyondalari, din vakillari, shoirlar va yozuvchilarning rahbarlar borasidagi fikrlarini shakllantira borgan. Dunyo tan olgan, qomusiy aql sohibi, ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, Arastuning benazir ilmiy qarashlari, yunon donishmandligi maktabi asoschilaridan biri, boshqaruvning inson tarbiyasiga ta'siri borasidagi nazariyalarni ilgari surgan Abu Nasr Farobiy (873-950) tadqiqotlari alohida o'ringa ega. Alloma boshqaruvni "iste'dod va malakasiga qarab, har bir kishiga munosib vazifa berish orqali ulardan(qo'l ostidagi odamlardan) samarali foydalana olish qudrati", - deb e'tirof etadi. Mutafakkirlarning fikricha tahlil va qiyoslash, doimiy kuzatish-boshqaruvning, boshqaruvchining asosiy vazifasidir. Mana shu asos allomaning "Ruhni tarbiyalash va poklash muttasil davom etsagina, yaxshi amallarga erishish mumkin", - deb e'tirof etishiga sabab bo'lgan.[1:280] Mutafakkir asarlarida 3 mezon boshqaruv taraqqiyotining asosini, o'zagini tashkil etishi - bular fozil jamiyat(ya'ni ilm-ma'rifatli jamiyat), adolatli tuzum(ya'ni adolat va haqqoniylikka asoslangan tuzum) va odil rahbar (faqat to'g'rilik va adolatni yoqlagan rahbar) faoliyati ekani haqida takror-takror ta'kidlanadi. Farobiy jamiyat rivojida madaniyatning nechog'li o'rin tutishini, "Fozil odamlar shahri", "Kitobli madaniyat al-fozila vaal-madanatal-mubaddalavaal -madanatazzola" (Fozil, johil, fosiq, o'zgartirilgan va adashganlar shahri haqida kitob), "Kitob mubodioroual-madanatal fozila" "(Fozil shahar ahli

qarashlarining asoslari haqida kitob) , “Kalom fi almillatal fiqh al-madaniy” (Xalq va shaharlarni boshqarish huquqi haqida so‘z) singari kitoblarida to‘laqonli asoslab beradi. Asarlarning mazmunmohiyati allomaning “Madaniyat”, “al-madaniya”, “al-madanat”, “al-madaniy” singari tushunchalarni jamiyat hayoti, odamlarning munosabatlari, xislatlari bilan mushtarak tasvirlaydi.[2:280] “Madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobar bo‘ladi, kishilar o‘rtasida farq bo‘lmaydi, har kim o‘zi istagan yoki o‘zi tanlagan kasb-hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma’noda ozod bo‘ladilar. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga halaqit beruvchi sulton bo‘lmaydi. Ular odamlar ichida ko‘tarilgan, sinalgan eng oliyjanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo‘ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o‘z saylovchilarini to‘la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladi. Bunday rahbarlar hammaga barobar munosabatda bo‘ladilar, hatto hammaning manfaatini o‘zlarining manfaatlaridan ortiq ko‘radilar, uning manfaati uchun o‘zlarining shaxsiy manfaatlaridan kechadilar, xalq manfaati uchun o‘zlaridagi kuch-g‘ayrat va boyliklarini ayamaydilar”, - deb e’tirof etadi alloma. Farobiyning boshqaruv borasidagi qarashlari haqida fikr yuritar ekanmiz, yana bir davlat arbobi, buyuk sarkardaning ham boshqaruv borasidagi jahonshumul islohotlari orqali dunyo harbiy va boshqaruv siyosatida katta maktab yaratganiga guvoh bo‘lamiz. Xalqning boshqaruv tizimini shakllantirish, rivojlantirish, takomillashtirish tizimi va amaliyotini yaratgan yorqin siymolardan biri - Hazrati Sohibqiron Amir Temur Tarag‘ay Bahodir o‘g‘li (1336-1405) qoldirgan bebaho ilmiy, ma’naviy meros musulmon sharqining bebaho xasinasidir. Yevrosiyoning 27 davlatida adlu imon bilan hukmfarmonlik qilgan Amir Temurning “Temur tuzuklari” o‘z davrining Bosh qomusi bo‘lganini tarix tasdiqlaydi. Jamiyatda boshqaruvning katta muammolaridan tortib, eng mayda taraflarigacha tahlil qilingan, qiyoslangan mazkur asar mana asrlardan asrlarga zeb berib ta’riflanadi, mana man degan mutaxassislarning e’tirofiga sazavor bo‘laveradi. Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: “Bizning tariximizda Amir Temurdek ulug‘ siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi, pandnasihati bugungi hayotimizga hamohang ekan, oldimizda turgan bugungi muammolarni yechishda bizga qo‘l kelayotgan ekan, bizning bu merosni o‘rganmasdan, ta’riflamasdan, targ‘ibot qilmasdan haqqimiz yo‘q” [4:46], - deb yozgan edi. Yaxshi bilamizki, mohir rahbar va mashhur sarkarda davlatni boshqarishda 4 narsaga amal qilgan: 1. Kengash 2. Maslahat 3. Tadbirkorlik va hushyorlik 4. Ehtiyotkorlik Amir Temur uchun 3 asosiy fazilat davlat boshqaruvining mezoni bo‘lib kelgan. Davlatning muhrida ham belgilangan adolat mezoni Sohibqironning umr mazmuniga aylangani haqiqat. Amir Temur adolatni 2 qiyosda qiyoslaydi: bu rahbarning so‘zdagi adolati, nimaniki gapirilsa haqqoniyat nuqtai nazaridan so‘zlash va raiyatga yolg‘on yoki ikki xil

so‘zlashni munofiqlik hisoblaydi. Keyingi qiyos esa ishdagi adolat, rahbarning faoliyatidagi adolat tamoyilidir. Temur zamonida dinga sodiqlik ishonche‘tiqod asosi hisoblangan. Sarkarda e‘tiqodni o‘zidan qanday talab qilsa, hamma lashkarboshilari, vazirlari, hatto oddiy sipohiysidan ham shunday talab qilgan. Shuni alohida e‘tiborga olish kerakki, adolatli hukmdor har qanday fazilatni xodimlaridan talab qilmoqdan avval, shaxsan iborat ko‘rsatmog‘i zarur deb hisoblagan. Shu o‘rinda buyuk sarkardaning quyidagi so‘zlari yozganlarimizning isbotidir: “Kimki biror sahroni obod qilsa, yoki biror koriz qursa, yoki biror bog‘ ko‘kartirsa, yo biror harob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yilda undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yilda raiyat rozilig‘i bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig‘sinlar”. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotida ma‘naviy yangilanishlar to‘g‘risidagi turli g‘oya va qarashlarni chuqur va atroflicha tahlil etmay, ulardan tegishlicha saboqlar olmay, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari degan eng ulug‘ maqsadni amalga oshira olmaymiz. Shu bois insoniyat tarixida jamiyatning ma‘naviy yuksalishi haqidagi turli davrdagi buyuk allomalar, davlat va jamoat arboblarning ilmiy-falsafiy qarashlaridan qancha ko‘p ma‘lumotlarni tadqiq etsak, jahonning rivojlangan davlatlarining ijobiy jihatlarni o‘rgansak, mamlakatimizni jahon tendensiyalariga mos ravishda rivojlantirishimiz, fuqarolarni davlat va jamiyatimizning milliy yuksalishiga faol ishtirokini ta‘minlagan bo‘lamiz.

Ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixiga nazar tashlasak, ma‘naviy yangilanishlar jarayonining jamiyat taraqqiyotiga ta‘sir doirasi sezilarli ekanligini Sharq va G‘arb mutafakkirlari tomonidan qoldirilgan ilmiy merosi guvohlik beradi. Shuning uchun buyuk faylasuf, mutafakkir olimlar va adolatli davlat boshliqlari millatni [mahdudlik holatidan chiqarib](#), taraqqiyotni rivojlantirish maqsadida, birinchi navbatda, ma‘naviy yangilanishlar omiliga e‘tibor berganlar, jamiyat a‘zolarini umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanga daxldorlik mas‘uliyati, insonni e‘zozlash, adolat uchun kurash, halol mehnat, jamoaviylik, oilaga sadoqat, do‘stlarni hurmat qilish ruhida kamol toptirishga, ularda milliy g‘urur [va iftixor](#), burch va mas‘uliyat tuyg‘ularini kuchaytirishga harakat qilganlar. Shundan kelib chiqib, ma‘naviy yangilanishlarning jamiyat rivojida tutgan o‘rnini qadimgi Sharq va G‘arb faylasuf olimlarining ijodlaridan namunalar asosida ilmiy tahlil qilib chiqsak. Bejizga Sharq qadimdan ma‘naviyat va sivilizatsiya o‘chog‘i sifatida ta‘riflanmagan. Qadimgi Sharq faylasuflari ma‘naviy yuksalish, shaxsning o‘zligini anglashi va kamol



topishiga qaratilgan konsepsiyalarda, avvalo, zardushtiylik, buddizm, konfutsiychilik falsafasida juda ko‘plab noyob dialektik g‘oyalar ilgari surilgan. Ayniqsa, bu borada Zardushtning falsify-ijtimoiy qarashlari diqqatga sazovor. Yana bir buyuk ajdodlarimizdan biri - Alisher Navoiydir. Navoiyning eng mashhur asari - “Tarixi mulku ajam” bo‘lib, unda davlat boshqaruviga oid masalalar katta o‘rin tutadi. Shuningdek, “Tarixi mulku ajam” asarida shunday deydi, “Shayx niyoz olsa, uni beva-bechoralarga berishi kerak, agar uni bemasdan o‘zi yasa, murdor et yeganday bo‘ladi, agar uni to‘n qilib kiysa, o‘sha to‘n yirtilmaguncha Alloh uning ro‘zasini qabul qilmaydi, agar non sotib yesa, Alloh uni do‘zahga tashlaydi. Agar kim shu shayxga e‘tiqod qilsa, u inson kofir bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, adolat qilichi keskindir, u hamma uchun barobar. Taniqli allomalarning merosini o‘rganish, ularning Sharq taraqqiyoti va rivoji borasida milliy davlatchilikni boshqarishda qimmatli yo‘nalishlarni belgilab berganlarini e‘tirof etish ibratlidir. Ayniqsa, ularning madaniyat va san‘at sohalarini rivojlantirish borasidagi tavsiyalari bo‘lajak rahbarlar uchun dasturilamal bo‘lishi kerak. Zotan, har bir davlat taraqqiyotini bilimdon va ishbilarmon kadrlar hal qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Farobiy. “Fozil odamlar shahri”. Toshkent. Yangi avlod. 2016.
2. O‘sha manbaa: 280-bet.
3. O‘sha manbaa: 284-bet.
4. Karimov I. Amir Temur haqida so‘z. - Toshkent. O‘zbekiston, 1996. - 62 b.
5. Amir Temur. Temur Tuzuklari. “Ilm-ziyo-zakovat” nashriyoti. Toshkent - 2020. - 144 b.
6. Mirziyoyev Shavkat. Adabiyot va san‘at, ma‘daniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori. (2017-yil 3-avgustdagi

mamalakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi). “Xalq so‘zi”.  
2017-yil. 4-avgust.

7. M.Xolmo‘minov. “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish”. O‘quv uslubiy majmua. Toshkent - 2021.

## Sharq va G'arb mutafakkirlari qarashlarida boshqaruvchanlik faoliyati

*Mamasoatova Baxtigul*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining davlat va uning boshqaruviga oid qarashlari bayon etiladi va tahlil etiladi. Shuningdek bugungi kun pedagog xodimlaridan boshqaruv ilmini egallashda tarixga nazar tashlashlari va buyuk allomalarimiz qarashlariga murojaat qilish zarurligi borasida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Muassasa, alloma, sharq mutafakkirlari, boshqaruv, bunyodkorlik, adolat mezoni, kengash, rahbar.

Yer yuzida 250 dan ortiq davlatda 7 milliardga yaqin inson yashaydi. Davlatchilik tizimi qadimiyligi o'zbek xalqining o'ziga xos xususiyatidir. Boshqaruvni shakllantirish, rivojlantirish, takomillashtirish tizimi va amaliyotini yaratgan taniqli siymolari ana shu xalqning qadim tarixidan darak beradi. Boshqaruvning samarali faoliyatida, davlat rahbarlarining ma'rifiy islohotlarida, albatta, madaniyat va san'at ziyolilarining munosib hissalarini bo'lgan va bu doim e'tirofga sazavor bo'ldi. Mamlakat tinchligi, osoyishtaligiga rahna solib turgan notinchliklar, mamlakat ichki va tashqi siyosatidagi tarfkashliklar o'z navbatida rahbarlarga bo'lgan munosabatlarni, taniqli ilm-fan namoyondalari, din vakillari, shoirlar va yozuvchilarning rahbarlar borasidagi fikrlarini shakllantira borgan. Dunyo tan olgan, qomusiy aql sohibi, ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, Arastuning benazir ilmiy qarashlari, yunon donishmandligi maktabi asoschilaridan biri, boshqaruvning inson tarbiyasiga ta'siri borasidagi nazariyalarni ilgari surgan Abu Nasr Farobiy (873-950) tadqiqotlari alohida o'ringa ega. Alloma boshqaruvni "iste'dod va malakasiga qarab, har bir kishiga munosib vazifa berish orqali ulardan(qo'l ostidagi odamlardan) samarali foydalana olish qudrati", - deb e'tirof etadi. Mutafakkirlarning fikricha tahlil va qiyoslash, doimiy kuzatish-

boshqaruvning, boshqaruvchining asosiy vazifasidir. Mana shu asos allomaning “Ruhni tarbiyalash va poklash muttasıl davom etsagina, yaxshi amallarga erishish mumkin”, - deb e’tirof etishiga sabab bo’lgan.[1:280] Mutafakkir asarlarida 3 mezon boshqaruv taraqqiyotining asosini, o’zagini tashkil etishi - bular fozil jamiyat(ya’ni ilm-ma’rifatli jamiyat), adolatli tuzum(ya’ni adolat va haqqoniylikka asoslangan tuzum) va odil rahbar (faqat to’g’rilik va adolatni yoqlagan rahbar) faoliyati ekani haqida takror-takror ta’kidlanadi. Farobiy jamiyat rivojida madaniyatning nechog’li o’rin tutishini, “Fozil odamlar shahri”, “Kitobli madaniyat al-fozila vaal-madanatal-mubaddalavaal -madanatazzola” (Fozil, johil, fosiq, o’zgartirilgan va adashganlar shahri haqida kitob), “Kitob mubodioroual-madanatal fozila “(Fozil shahar ahli qarashlarining asoslari haqida kitob) , “Kalom fi almillatal fiqh al-madaniy” (Xalq va shaharlarni boshqarish huquqi haqida so’z) singari kitoblarida to’laqonli asoslab beradi. Asarlarning mazmunmohiyati allomaning “Madaniyat”, “al-madaniya”, “al-madanat”, “al-madaniy” singari tushunchalarni jamiyat hayoti, odamlarning munosabatlari, xislatlari bilan mushtarak tasvirlaydi.[2:280] “Madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo’ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo’lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobar bo’ladi, kishilar o’rtasida farq bo’lmaydi, har kim o’zi istagan yoki o’zi tanlagan kasb-hunar bilan shug’ullanadi. Odamlar chin ma’noda ozod bo’ladilar. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga halaqit beruvchi sulton bo’lmaydi. Ular odamlar ichida ko’tarilgan, sinalgan eng oliyjanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo’ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o’z saylovchilarini to’la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladi. Bunday rahbarlar hammaga barobar munosabatda bo’ladilar, hatto hammaning manfaatini o’zlarining manfaatlaridan ortiq ko’radilar, uning manfaati uchun o’zlarining shaxsiy manfaatlaridan kechadilar, xalq manfaati uchun o’zlaridagi kuch-g’ayrat va boyliklarini ayamaydilar”, - deb e’tirof etadi alloma. Farobiyning boshqaruv borasidagi qarashlari haqida fikr yuritar ekanmiz, yana bir davlat arbobi, buyuk sarkardaning ham boshqaruv borasidagi jahonshumul

islohotlari orqali dunyo harbiy va boshqaruv siyosatida katta maktab yaratganiga guvoh bo‘lamiz. Xalqning boshqaruv tizimini shakllantirish, rivojlantirish, takomillashtirish tizimi va amaliyotini yaratgan yorqin siymolardan biri - Hazrati Sohibqiron Amir Temur Tarag‘ay Bahodir o‘g‘li (1336-1405) qoldirgan bebaho ilmiy, ma‘naviy meros musulmon sharqining bebaho xasinasidir. Yevrosiyoning 27 davlatida adlu imon bilan hukmfarmonlik qilgan Amir Temurning “Temur tuzuklari” o‘z davrining Bosh qomusi bo‘lganini tarix tasdiqlaydi. Jamiyatda boshqaruvning katta muammolaridan tortib, eng mayda taraflarigacha tahlil qilingan, qiyoslangan mazkur asar mana asrlardan asrlarga zeb berib ta‘riflanadi, mana man degan mutaxassislarning e‘tirofiga sazavor bo‘laveradi. Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov: “Bizning tariximizda Amir Temurdek ulug‘ siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi, pandnasihati bugungi hayotimizga hamohang ekan, oldimizda turgan bugungi muammolarni yechishda bizga qo‘l kelayotgan ekan, bizning bu merosni o‘rganmasdan, ta‘riflamasdan, targ‘ibot qilmasdan haqqimiz yo‘q” [4:46], - deb yozgan edi. Yaxshi bilamizki, mohir rahbar va mashhur sarkarda davlatni boshqarishda 4 narsaga amal qilgan: 1. Kengash 2. Maslahat 3. Tadbirkorlik va hushyorlik 4. Ehtiyotkorlik Amir Temur uchun 3 asosiy fazilat davlat boshqaruvining mezoni bo‘lib kelgan. Davlatning muhrida ham belgilangan adolat mezoni Sohibqironning umr mazmuniga aylangani haqiqat. Amir Temur adolatni 2 qiyosda qiyoslaydi: bu rahbarning so‘zdagi adolati, nimaniki gapirilsa haqqoniyat nuqtai nazaridan so‘zlash va raiyatga yolg‘on yoki ikki xil so‘zlashni munofiqlik hisoblaydi. Keyingi qiyos esa ishdagi adolat, rahbarning faoliyatidagi adolat tamoyilidir. Temur zamonida dinga sodiqlik ishonche‘tiqod asosi hisoblangan. Sarkarda e‘tiqodni o‘zidan qanday talab qilsa, hamma lashkarboshilari, vazirlari, hatto oddiy sipohiysidan ham shunday talab qilgan. Shuni alohida e‘tiborga olish kerakki, adolatli hukmdor har qanday fazilatni xodimlaridan talab qilmoqdan avval, shaxsan iborat ko‘rsatmog‘i zarur deb hisoblagan. Shu o‘rinda buyuk sarkardaning quyidagi so‘zlari yozganlarimizning isbotidir: “Kimki

biror sahroni obod qilsa, yoki biror koriz qursa, yoki biror bog‘ ko‘kartirsa, yo biror harob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yilda undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yilda raiyat rozilig‘i bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig‘sinlar”. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotida ma‘naviy yangilanishlar to‘g‘risidagi turli g‘oya va qarashlarni chuqur va atroflicha tahlil etmay, ulardan tegishlicha saboqlar olmay, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari degan eng ulug‘ maqsadni amalga oshira olmaymiz. Shu bois insoniyat tarixida jamiyatning ma‘naviy yuksalishi haqidagi turli davrdagi buyuk allomalar, davlat va jamoat arboblarning ilmiy-falsafiy qarashlaridan qancha ko‘p ma‘lumotlarni tadqiq etsak, jahonning rivojlangan davlatlarining ijobiy jihatlarini o‘rgansak, mamlakatimizni jahon tendensiyalariga mos ravishda rivojlantirishimiz, fuqarolarni davlat va jamiyatimizning milliy yuksalishiga faol ishtirokini ta‘minlagan bo‘lamiz.

Ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixiga nazar tashlasak, ma‘naviy yangilanishlar jarayonining jamiyat taraqqiyotiga ta‘sir doirasi sezilarli ekanligini Sharq va G‘arb mutafakkirlari tomonidan qoldirilgan ilmiy merosi guvohlik beradi. Shuning uchun buyuk faylasuf, mutafakkir olimlar va adolatli davlat boshliqlari millatni [mahdudlik holatidan chiqarib](#), taraqqiyotni rivojlantirish maqsadida, birinchi navbatda, ma‘naviy yangilanishlar omiliga e‘tibor berganlar, jamiyat a‘zolarini umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanga daxldorlik mas‘uliyati, insonni e‘zozlash, adolat uchun kurash, halol mehnat, jamoaviylik, oilaga sadoqat, do‘stlarni hurmat qilish ruhida kamol toptirishga, ularda milliy g‘urur [va iftixor](#), burch va mas‘uliyat tuyg‘ularini kuchaytirishga harakat qilganlar. Shundan kelib chiqib, ma‘naviy yangilanishlarning jamiyat rivojida tutgan o‘rnini qadimgi Sharq va G‘arb faylasuf olimlarining ijodlaridan namunalar asosida ilmiy tahlil qilib chiqsak. Bejizga Sharq qadimdan ma‘naviyat va sivilizatsiya o‘chog‘i sifatida ta‘riflanmagan. Qadimgi Sharq faylasuflari ma‘naviy yuksalish, shaxsning o‘zligini anglashi va kamol topishiga qaratilgan konsepsiyalarda, avvalo, zardushtiylik, buddizm, konfutsiychilik falsafasida juda ko‘plab noyob dialektik g‘oyalar ilgari surilgan.

Ayniqsa, bu borada Zardushtning falsify-ijtimoiy qarashlari diqqatga sazovor. Yana bir buyuk ajdodlarimizdan biri - Alisher Navoiydir. Navoiyning eng mashhur asari - "Tarixi mulku ajam" bo'lib, unda davlat boshqaruviga oid masalalar katta o'rin tutadi. Shuningdek, "Tarixi mulku ajam" asarida shunday deydi, "Shayx niyoz olsa, uni beva-bechoralarga berishi kerak, agar uni bemasdan o'zi yasa, murdor et yeganday bo'ladi, agar uni to'n qilib kiysa, o'sha to'n yirtilmaguncha Alloh uning ro'zasini qabul qilmaydi, agar non sotib yesa, Alloh uni do'zahga tashlaydi. Agar kim shu shayxga e'tiqod qilsa, u inson kofir bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, adolat qilichi keskindir, u hamma uchun barobar. Taniqli allomalarning merosini o'rganish, ularning Sharq taraqqiyoti va rivoji borasida milliy davlatchilikni boshqarishda qimmatli yo'nalishlarni belgilab berganlarini e'tirof etish ibratlidir. Ayniqsa, ularning madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish borasidagi tavsiyalari bo'lajak rahbarlar uchun dasturilamal bo'lishi kerak. Zotan, har bir davlat taraqqiyotini bilimdon va ishbilarmon kadrlar hal qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Farobiy. "Fozil odamlar shahri". Toshkent. Yangi avlod. 2016.
2. O'sha manbaa: 280-bet.
3. O'sha manbaa: 284-bet.
4. Karimov I. Amir Temur haqida so'z. - Toshkent. O'zbekiston, 1996. - 62 b.
5. Amir Temur. Temur Tuzuklari. "Ilm-ziyo-zakovat" nashriyoti. Toshkent - 2020. - 144 b.
6. Mirziyoyev Shavkat. Adabiyot va san'at, ma'daniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori. (2017-yil 3-avgustdagi mamalakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi). "Xalq so'zi". 2017-yil. 4-avgust.
7. M.Xolmo'minov. "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish". O'quv uslubiy majmua. Toshkent - 2021.

**РАБОТА ПО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЮ ОШИБОК В УПОТРЕБЛЕНИИ  
ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА**

*Усманова Светлана Нематовна*

*старший преподаватель кафедры русского языка и литературы Узбекско-финского педагогического института*

*Якубова Севинч*

*студентка 213 группы. Узбекско-финского педагогического института*

**Аннотации:** *В данной статье речь пойдет о методике предотвращения ошибок при употреблении фразеологизмов на уроках русского языка. Рассмотрим трудности, с которыми сталкиваются учащиеся, а также роль преподавателя в развитии навыков правильного и эффективного употребления фразеологизмов. Мы также рассмотрим современные методы и технологии, позволяющие улучшить процесс обучения и помочь студентам лучше понять материал.*

**Ключевые слова:** *русский язык, фразеологизмы, обучение, ошибки в употреблении, культурный контекст, обучение, современные технологии, методы обучения.*

**Annotations:** *This article will discuss the methodology for preventing errors in using phraseological units in Russian language lessons. Let's consider the difficulties that students face, as well as the role of the teacher in developing the skills of correct and effective use of phraseological units. We will also look at modern methods and technologies to improve the learning process and help students better understand the material.*



***Keywords:** Russian language, Phraseologisms, Teaching, Errors in Use, Cultural context, Teaching, Modern Technologies, Teaching methods.*

## **Введение**

Русский язык обладает богатым национальным фондом, включая множество фразеологизмов, которые придают речи выразительность и национальную окраску. Однако, ученики иногда сталкиваются с трудностями в правильном использовании этих выражений. В данной статье мы рассмотрим важность работы по предотвращению ошибок в употреблении фразеологизмов на уроках русского языка. Русский язык, как один из наиболее богатых и красочных языков мира, обогащен множеством фразеологизмов. Эти устойчивые выражения придают национальный колорит и выразительность речи. Однако, их правильное использование требует особого внимания и понимания со стороны учеников. В рамках обучения русскому языку важно не только изучать фразеологизмы, но и предотвращать ошибки и недопонимания, которые могут возникнуть в процессе их использования.

### **1. Фразеологизмы: Ключевые элементы Русской Речи**

Фразеологизмы представляют собой неотъемлемую часть русской речи, обогащая ее выразительностью и красочностью. Однако, их неправильное использование может привести к недопониманию и искажению смысла высказывания.

### **2. Трудности, Связанные с Фразеологизмами**

Ученики, изучающие русский язык, иногда сталкиваются с трудностями в понимании значения и правильном использовании фразеологизмов. Эти трудности могут быть связаны с их многозначностью, неоднозначностью, и культурными особенностями.

### **3. Роль Преподавателя в Предотвращении Ошибок**

Преподаватели русского языка играют ключевую роль в формировании языковой компетенции учащихся. Они должны активно работать над предотвращением ошибок в использовании фразеологизмов. Это включает в себя:

### 3.1 Объяснение Значения

Преподаватели должны ясно объяснять значения фразеологизмов, давая примеры и контексты их использования.

### 3.2 Практические Упражнения

Организация практических упражнений, включающих использование фразеологизмов в речи и письме, поможет учащимся закрепить полученные знания.

### 3.3 Культурный Контекст

Работа над культурным контекстом поможет учащимся лучше понять происхождение и использование фразеологизмов в русской речи.

## 4. Использование Современных Технологий

Интеграция современных технологий в учебный процесс может сделать занятия более увлекательными и эффективными. Мультимедийные материалы, онлайн-ресурсы и интерактивные приложения могут помочь визуализировать и закрепить знания об употреблении фразеологизмов. Предотвращение ошибок в использовании фразеологизмов на уроках русского языка является важной частью формирования языковых навыков учеников. Преподаватели играют ключевую роль в этом процессе, используя разнообразные методы и технологии. Эффективная работа в этом направлении помогает не только в улучшении языковой грамотности, но и в формировании глубокого понимания культурного контекста языка.

В этом разделе предоставлен обзор темы статьи, подчеркивая важность фразеологизмов в русском языке и необходимость предотвращения ошибок в их использовании. Введение устанавливает контекст и выделяет цели и задачи статьи.

## 2. Фразеологизмы: Ключевые Элементы Русской Речи

Этот раздел посвящен обзору роли фразеологизмов в русском языке, подчеркивая их значение и влияние на выразительность речи. Рассматриваются преимущества и сложности, с которыми сталкиваются учащиеся в изучении фразеологизмов.

## 3. Трудности, Связанные с Фразеологизмами

Здесь статья фокусируется на конкретных трудностях, с которыми сталкиваются учащиеся при использовании фразеологизмов. Это включает в себя многозначность, неоднозначность и культурные аспекты, что формирует основу для дальнейшего обсуждения методов и стратегий преодоления этих трудностей.

## 4. Роль Преподавателя в Предотвращении Ошибок

Этот раздел анализирует ключевую роль преподавателя в формировании языковых навыков учеников. Вводится несколько конкретных методов, включая объяснение значений, практические упражнения и внедрение культурного контекста.

## 5. Использование Современных

### Технологий

В данном разделе статья обсуждает применение современных технологий в процессе обучения, предлагая практические рекомендации по использованию

мультимедийных материалов и онлайн-ресурсов для более эффективного усвоения материала.

#### 6. Основная Часть

Основная часть статьи представляет собой подробное разъяснение каждого из методологических подходов, описанных в предыдущих разделах. Каждый из аспектов – объяснение значений, практические упражнения, культурный контекст и использование технологий – раскрывается в деталях с примерами и практическими советами.

#### Вывод

В заключении статьи подводятся итоги, подчеркивается важность комплексного подхода и роли преподавателя в формировании языковых навыков. Вывод также поднимает вопрос о важности интеграции современных технологий в обучении фразеологизмам.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'rta Osiyo hududidagi eng qadimgi davlatlarning tashkil topishi, bu davlatlarning chegaralari, davlatlarning rivojlanishidagi va inqirozga yuz tutishidagi asosiy sabablar, shuningdek mamlakatimiz hududida joylashgan qadimiy shaharlar va ularning joylashishgan o'rinlari, O'rta Osiyo hududida tashkil topgan qadimiy davlatlar haqda ma'lumotlarning qadimiy qo'lyozma va manbalarda yoritilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Qadimgi Qang davlatiga alohida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo, Qadimgi Xorazm, Baqtriya, xshatra, satrap, ellinlashtirish, Yunon-Baqtriya, Yaksart, parkan, Davan, Qang'.

**Abstract:** In this article, the formation of the oldest states in Central Asia, the borders of these states, the main reasons for the state's development and crisis, as well as the ancient cities located in the territory of our country and their locations, the ancient states formed in Central Asia. Information about the coverage of information in ancient manuscripts and sources is presented. Also, the Ancient Kang state was mentioned separately.

**Key words:** Central Asia, Ancient Khorezm, Bactria, xshatra, satrap, Hellenization, Greco-Bactria, Yaksart, parkan, Davan, Kang'.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены становление древнейших государств Центральной Азии, границы этих государств, основные причины развития и кризиса государств, а также древние города, расположенные на территории нашей страны и места их расположения, Образовавшиеся в Средней Азии древние государства Представлены сведения об освещении сведений в древних рукописях и источниках. Также отдельно упоминалось Древнее государство Кан.

**Ключевые слова:** Средняя Азия, Древний Хорезм, Бактрия, хшатра, сатрап, эллинизация, Греко-Бактрия, Яксарт, паркан, Даван, Канг.

Davlatning tarixiy ildizlari u qanday sharoitlarda paydo bo'lganligini, qanday rivojlanganligini va zamonaviy voqeilikda qanday mazmun kasb etganini bilmasdan turib sivilizatsiya hodisasi sifatida davlatni ilmiy tushinish mumkin emas. Butun dunyoda bo'lgan singari O'rta Osiyoda ham davlatchilik abadiy mavjud bo'lgan emas, balki insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'ldi.

.Antropologiyaning eng yangi ma'lumotlariga ko'ra faqat zamonaviy kromanyon odamning (homo sapiens yoki neotropning) tarixi qariyb 40 ming yilni tashkil etadi, insoniyat tarixidagi ilk davlat tuzilmalari esa bundan qariyb 5 ming yil oldin, bizning eramizgacha to'rtinchi va beshinchi ming yillik chegarasida paydo bo'lgan. Binobarin – davlatchilik insoniyatning nisbatan yaqin vaqtlardagi ixtirosidir.

Miloddan avvalgi 1-ming yillik boshlarida ajdodlarimiz temirni qayta ishlashni o'rganib oldilar. Demak, har qanday taraqqiyotning turtkisi bo'lib kelgan mehnat mehnat qurollarining takomillashishi uchun keng yo'l ochilgan. Bu esa o'z navbatida inson faoliyatining kengayishi va jadallashiga sabab bo'lgan. Mazkur hol jamiyatning barcha sohalari: siyosiy, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, xalqaro munosabatlarda tegishli sifat o'zgarishlariga turtki bo'lgan bosh omillardan biri hisoblanadi. Miloddan avvalgi 1-ming yillikning birinchi yarmiga xos yana bir jihat bor. U ham bo'lsa, ushbu ming yillikning VIII-VII asrlarda shahar madaniyatining yanada taraqqiy topib borishi bilan bog'liq. Masalan, eng so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, Samarqand miloddan avvalgi VIII asrdayoq shahar qiyofasini va mazmunini olish yo'liga kirgan edi. Taxminan shu davrda yo biroz kechroq Xiva, Buxoro, Termiz, Hazorasp, Shahrisabz, (Kash, Kesh), Quva kabi shaharlar ham asos topa boshlagan. Mazkur jarayonning biz uchun ahamiyati shundaki, shaharlar tarixi bu ma'muriy-boshqaruv, ya'ni davlatchilik tarixi hamdir. Ikkinchi mehnat taqsimotining paydo bo'lishi. Hozirgi O'zbekiston hududidagi ilk davlat birlashmalari Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlatlaridir. Qadimgi Xorazm – mil.avv. 1-mingyillikning 8–6 asrlarida tashkil topgan. Bu davlat Xorazmdan tashqarida bo'lgan yerlarni birlashtirgan. Qadimgi Xorazm markazlaridan biri Ko'zaliqir shahri bo'lgan. U qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Uning dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan aholisi turli xil uy – qo'rg'onlarda va qishloqlarda yashaganlar. Qadimgi Xorazmda hunarmandchilik, binokorlik va savdo sotiq yuksak darajada rivojlangan.

Baqtriya – hududi hozirgi Surxondaryo viloyati, janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston. Bu davlat ham mil.avv. VIII-VI asrlarda tashkil topgan. Baqtriyaning tarkibiga aynan Baqtriyadan tashqari Marg'iyona va So'g'diyona ham kirgan. Shuning uchun u qadimgi bir-biriga qarindosh bo'lgan elatlarning davlat birlashmasi deyilgan. Bu davlatning aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va savdo bilan shug'ullangan. Baqtriyaning shahar xarobalariga Qiliztepa, Uzunqir, Bandixon va boshqalar kirgan. Mil.av. 530 yilda Eron ahamoniylaridan bo'lgan Kir II massagetlarga qarshi hujum qiladi. U malika To'maris bilan to'qnashadi va undan yengiladi. Undan so'ng yana Eron ahamoniylaridan bo'lgan Doro I mil.avv.519 yilda saklarga qarshi hujum qiladi va uning ham yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi. Lekin ahamoniylar ayrim bosib olingan mamlakatlarni alohida viloyat – satrapliklarga bo'lib boshqaradilar. Satrap forscha “xshatra” ya'ni “viloyat” degan

ma'noni anglatadi. Markaziy Osiyoning bosib olingan viloyatlari uch satraplikka bo'linadi. Mil.av. V–IV asrlarda Markaziy Osiyo hududida dastlabki ahamoniylar tanga pullari tarqalgan. Mil.avv.329 yilda Makedoniyalik Iskandar Markaziy Osiyoga hujum qiladi. Greklarga qarshi Spitamen mardonovar kurashgan. Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoning ko'plab joylarini bosib oldi va 12ta shahar qurdirgan. U bu yerda 3 yil hukmroklik qilgan. Uning vafotidan so'ng Markaziy Osiyo yerlarida Salavkiylar davlati tashkil topgan. Shu davrlardan boshlab ellinistik madaniyat tarkib topgan. Ellinlashtirish – Sharqqa yunon madaniyatining yoyilishi jarayoni, aralash madaniyatning – yunon va mahalliy sharq madaniyatining tashkil topish jarayoni.

Mil.av. III asr o'rtalarida, ya'ni 250 yilda Baqtriya va Parfiya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqadi va Yunon–Baqtriya deb ataladi. Uning hukmdorlari greklar bo'lib, birinchishohi Diodot bo'lgan. Parfiyada esa hokimiyat Mitridat I qo'liga o'tgan. Mitridat I Marg'iyonani bosib olgan, uning tarixi ko'proq Arshakiylar davri bilan bog'liq. Bu vaqtda So'g'diyona ham Baqtriya tarkibidan ajralib chiqadi. Yunon–Baqtriya davlati 120 yil yashaydi. Farg'ona vodiysining qadimda salavkiylar davlati tarkibida bo'lganligi haqida ham hech qanday ma'lumot yo'q. Bundan chiqadiki, Farg'ona qadimgi davrda ahamoniylar va yunonlar hukmronligi davrida siyosiy erkini o'z qo'lida saqlab qola olgan. Yunon manbalarida salavkiylarning lashkarboshisi Demodam miloddan avvalgi 280-yilda Yaksart (Sirdaryo)dan o'tib, yunon xudosi Appolon shaniga altar (mehrob) (olovxona) o'rnatdi, degan xabardan bo'lak hech narsani qoldirmagan. Bundan tashqari, antik tarixchilar Yunon-Baqtriya podsholaridan biri Sharqiy Turkistonga Farg'ona orqali bir marta qo'shin tortib borganligini qayd qilish bilan cheklanadi. Bu fikr-mulohazalar asosida xulosa qiladigan bo'lsak qadimgi Farg'ona davlati — Davan miloddan avvalgi II asrda emas, balki ancha ilgariroq, taxminan IV yoki III asrlardayoq tarix sahnasida bo'lganligi ma'lum bo'ladi. U paytda bu davlat Parkan deb atalgan. Davan nomi esa xitoyliklar tomonidan berilgan nomdir. Ba'zi bir xitoy yozma manbalarining guvohlik berishicha, miloddan avvalgi II–I asrlarda Davan aholisi ko'p, dehqonchilik va hunarmandchilik xo'jaliklari yuksak darajada rivojlangan, shaharlarga boy va kuchli qo'shinga ega bo'lgan mamlakat edi. Miloddan avvalgi II–I asrlarda Davanda dehqonchilik madaniyati va yilqichilik yuksak darajada rivojlangan. Chjan Syan bu davrda hammasi bo'lib 70 ta obod shahar bo'lganligini, unda bir necha yuz ming aholi yashaganligini yozadi. Xitoy sayyohi va elchisi Chjan Syanning Davan davlatining harbiy qudrati haqidagi ma'lumotlari ham e'tiborlidir. Bu davlat 60 ming qo'shinga ega bo'lgan. Piyoda askarlar oddiy qurollar bilan qurollangan, o'tliq qo'shinning harbiy mahoratda tengi bo'lmagan. Davan suvoriylarining chopar ot ustida turib orqaga qayrilib kamondan uzgan o'qlari har qanday dushmani ham dog'da qoldirgan. Vodiyning hatto

ayollari ham kamondan o‘q uzish va mohirlikda erkaklardan qolishmagan. Qadimgi Davan davlatini milodning dastlabki yuz yilliklari davomida mahalliy aslzodalar sulolasi boshqargan. Buni Xitoy manbalari tasdiqlaydi. Bu manbalarda ko‘rsatilishicha, qadimgi Farg‘onani 419-yilgacha bir sulola vakillari uzluksiz idora qilganlar. O‘rta Osiyo hududlarida eftaliylar davlati qaror topgach, qadimgi Farg‘ona davlati ham o‘z mustaqilligini yo‘qotib, ana shu eftaliylar davlati tarkibiga kirgan edi O‘rta Osiyoning yana bir qadimgi davlatlaridan biri bo‘lgan Qang‘ davlati haqidagi ma‘lumotlar Xitoy tarixchisi Sima Zyan tomonidan qoldirilgan. Uning ma‘lumotlariga qaraganda miloddan avvalgi II asrning so‘nggi choragida O‘rta Osiyoda bo‘lgan bir Xitoy elchisi va sayyohining so‘zlariga asoslanib, bu yerda aholisi yuechjiga o‘xshash Qang‘yuy nomli katta ko‘chmanchilar davlati bo‘lganligini xabar qiladi. «Avesto» va «Maxabxorat»da ham sak (shak)lar, toharlar va qang‘arlar yashagan Qang‘ davlati haqida eslatib o‘tiladi. Xitoy manbalarida qang‘arlarda davlat bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar miloddan avvalgi III asr oxiri va II asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Tarixchi olim Karim Shoniyozovning fikricha: «Qang‘ davlati solnomalarda aytilgan davrdan ancha oldinroq mavjud bo‘lgan. So‘zsiz Qang‘ davlati O‘rta Osiyoga bosib kelgan makedoniyalik Aleksandr qo‘shinlari bilan yunon-makedoniyaliklardan tashkil topgan salavkiylar sulolasi (miloddan avvalgi 312–250-yillar) bilan uzluksiz ravishda olib borilgan kurashlar natijasida taxminan miloddan avvalgi III asr boshida vujudga kelgan». Qang‘ davlatining chegarasi manbalarda aniq ko‘rsatilmagan. Lekin Karim Shoniyozovning ma‘lumotlariga qaraganda qang‘lilar sharqda Farg‘ona vodiysi, shimoli-sharqda usunlar, shimoli-g‘arbda Sarisu daryosi va g‘arbda Sirdaryoning o‘rta oqimi bilan chegaradosh bo‘lgan. Bu chegarada qang‘arlarga qarashli bir necha viloyat va ularga tobe bo‘lgan qabilalar joylashgan. Qang‘arlar hukmron bo‘lgan hududda miloddan avvalgi I va milodiy I–II asrlarda 120000 oila — 600000 kishi yashagan. Milodning 3 asriga kelib Eftalitlar tomonidan parchalanib ketadi. Qang‘ davlatining qariyb yetti asrlik tarixi ota-bobo, avlod ajdodlarimiz qadim-qadimdan biz haqli suratda faxrlansa arziydi gan tarixga, rivojlangan, qadimiy madaniyatga ega bo‘lganliklarini yana bir marta isbotlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yurtimiz tarixida qadimgi davlatlarning tashkil topishi va rivojlanishi bevosita savdo aloqalariga bog‘liq edi. Yurtimizda tashkil topgan yirik davlatlardan biri Qang edi. Uning shimoliy hududidan yirik savdo yo‘li o‘tgan bo‘lib, bu yo‘l Xitoyliklar bilan doimiy urush harakatlariga olib kelgan. Ammo, keyinchalik mamlakatlarning nafaqat savdo, balki diplomatik aloqalari rivojlanishiga ham sabab bo‘ldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tarix ortga qaytmaydi. (tuplam) T. 2004
2. Sagdullaev A. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. T. 1996.

3. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T. Sharq. 2000
4. Karimov Sh., Shamsuddinov R. Vatan tarixi. Birinchi kitob. T., 2010. O'zbekiston tarixi. T.Universitet. 1999.
5. Sagdullaev A. va boshq. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., Akademiya, 2000
6. B. Ahmedov. O'zbekiston tarixi manbalari. Toshkent-"O'qituvchi" – 2001.
7. A. Sagdullayev. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. Toshkent-"Universitet" – 2004.
8. E.V.Rtveladze, A.X.Saidov. E.V.Abdullayev. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: Davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. Toshkent " Adolat" -2001
9. Abdullayev .O'. O'rta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligi. –Toshkent: "Akademiya"-2009
- 10.Asqarov.A. O'zbek davlatchiligining ilk bosqichlarida qadimgi Farg'ona //Farg'ona kecha, bugun va kelajakda.-Farg'ona, 2003.
- 11.B.J.Eshov, A.A.Odilov. O'zbekiston tarixi 1-jild (Eng qadimgi davrdan XIX asr o'rtalarigacha) Toshkent-2014

**Arablar Ispaniyada: Rekonkista harakatining vujudga kelishi.**

*Xayrullayeva Durdona*

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti*

*Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*Tel: 91 234 25 20*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'rta asrlarda Ispaniya tarixida sodir bo'lgan jarayonlar haqida ma'lumotga ega bo'lasiz. O'rta asrlarda Ispaniya biroz muddat arablar hukmronligi o'rnatilgan edi, ammo, keyinchalik Ispaniya hududida mustaqil amirlik tashkil topdi. Ispan xalqi o'zining avvalgi hududini tiklashga urindi. Natijada mamlakatda rekonkista harakati avj olib ketadi. Dastlab Kordova amirligi tashkil topgan bo'lsa, keyinchalik mamlakat hududida boshqa davlatlar ham tashkil topadi, ammo, ko'p o'tmay ular yagona Ispaniya davlati tashkil topishi uchun asos bo'ldi.

**Kalit so'z:** Kordova, rekonkista, Kastiliya, Izabella, 756-yil, Ferdinand.

**Abstract:** In this article, you will get information about the processes that took place in the history of Spain in the Middle Ages. In the Middle Ages, Spain was ruled by the Arabs for a while, but later an independent emirate was established on the territory of Spain. The Spanish people tried to restore their former territory. Initially, the Emirate of Cordoba was formed, then other states were formed on the territory of the country, but soon they became the basis for the formation of a single Spanish state.

**Key word:** Córdoba, Reconquista, Castile, Isabella, 756, Ferdinand.

**Аннотация:** В этой статье вы получите информацию о процессах, происходивших в истории Испании в средние века. В средние века Испания некоторое время находилась под властью арабов, но позже на территории Испании был основан независимый эмират. Испанский народ пытался восстановить свою прежнюю территорию. Первоначально был образован Кордовский эмират, затем на территории страны образовались и другие государства, но вскоре они стали основой для образования единого испанского государства.

**Ключевые слова:** Кордова, Реконкиста, Кастилия, Изабелла, 756 год, Фердинанд.

Ispaniya hozirgi kunda Yevropaning eng yirik davlatlaridan biri hisoblanadi. Uning hududida insoniyatning yashashi so'ngi paleolid davriga borib taqaladi. Ammo hammamizga ma'lumki davlatlarning tashkil topishi va rivojlanishi birdaniga sodir

bo'lib qolmagan. Aynan Ispaniyaning ham hozirgi kunga kelishida uning o'ziga xos tarixi mavjud. Ispaniya qirolligi- Yevropaning janubi-g'arbida, Pireney yarim orolida joylashgan davlat. VIII asrda Arab xalifaligi zaiflasha boshladi, natijada undan bir nechta hududlar ajralib chiqdi. Xalifalikdan ajralib chiqqan birinchi amirlik 756-yilda Ispaniyada tashkil topadi. U X asrdan Qurdoba (Kordova) amirligi nomini oladi.<sup>4</sup>

Xasr boshlarida Ispaniyada arablar hukmronligi eng kuchli edi, bu vaqtda Kordova xalifalikka aylangan edi. Ispan arablariga Pireney yarim orolidan tashqari, yana qo'shni shimoliy Afrikadagi ko'p sonli barbar qabilalari ham bo'ysinar edi. Arablar davrida Pireney yarim orolida ishlab chiqarish kuchaygan edi. Aynan arablar tomonidan Ispaniyada sun'iy sug'orish tizimi rivojlantirilgan. Ular Ispaniyada ekinning yangi turlarini yetishtira boshlaydi, ular orasida: tut daraxti, sholi, shakarqamish, apelsin, limon ham bor edi. Ispan arablari Yevropaning turli mamlakatlari bilan, ayniqsa qo'shni mamlakatlar hisoblangan: Fransiya va Italiya bilan ham oloqalarni rivojlantiradi, Vizantiya bilan qizg'in aloqani yo'lga qo'yadi. Rimliklar davrida mavjud bo'lib, vestgotlar davrida rivojlanishi boshlangan Ispaniya arablar davriga kelib yirik sanoqat markaziga aylandi.<sup>5</sup>

Ispaniyadagi arab feodalizmi mahalliy aholi uchun g'oyat og'ir bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan feodal eksplutatsiyasi tobora kuchayib bordi. Ayni damda mamlakatda tengsizlik ham avj oladi, xristian aholisini zo'rlab musulmon diniga o'tkazish mamlakatdagi musulmon fanatizmining kuchayishiga olib keldi. Xalifalikda aholining katta qismini arablar emas balki boshqa xalqlar tashkil etgan. Mavrlar nisbatan juda ozchilikni tashkil etardi. Ular orasida arab tilini o'rganganlar (mosarablar), xatto islom dinini qabul qilganlar (renegatos) bo'lsada, lekin ular mavrlarni kelgindi va istilochi sifatida ko'rar edi.

Kordova hukmdorlari 929 yildan xalif deb atala boshlandi. Arablarning Pireney yarim orolida 20 yillik yurishlari natijasida shimoldagi Galitsiya va Asturiyadan tashqari barcha hududlar ular qo'l ostiga o'tdi. Keyinchalik xuddi shu Galitsiya va Asturiyadan arablarni Ispaniyadan chiqarish harakati ispancha "Rekonkista"- "qaytarib olish" boshlandi. U deyarlik 8 asr davom etib, Ispaniyaning keyingi taqdirini belgilab berdi. Asturiya tog'laridagi Kordova jangida (718 yili) ispanlar arablar ustidan ilk g'alabaga erishadi. Ispan xalqining arablar bilan uzoq davom etgan, ko'p asrlik kurashi Ispaniya davlatining tashkil topishida juda katta rol

---

<sup>4</sup>.T.O'.Salimov, F.E.Sultonov "Jahon tarixi" T-2017.

<sup>5</sup>. V.F. Semenov "O'rta asrlar tarixi" T-1974.



o'ynadi. Pireneya yarim orolning arablardan qaytarib olinishi tarixiy adabiyotda rekonkista deb nom olgan. Ispan xalqlarining arab-mavrlarga qarshi olib borgan ozodlik kurashi bo'lgan keng ma'nodagi rekonkista VIII asrdan-boshlab, arablar yarim orolni istilo qilganlaridan keyinroq, ya'ni VIII asrdan, to XV asr oxirigacha davom etdi. XV asr oxirida arablarning Ispaniyadagi so'nggi yirik mulki hisoblangan Granada qo'ldan boy berildi.

Galitsiya, Asturiya, ispan markasi, bular tog'li, odam yurishi va yashashi qiyin hududlar bo'lib, arablarning bu yerlarni bosib olishga urinishi natijasiz chiqdi. Bu yerlar boshqa hududlardan ko'chib kelgan ispan qochoqlari bilan to'lib ketgan edi. Keyinchalik xuddi shu yerlardan rekonkista harakati boshlandi.

Rekonkista harakati VIII asrdayoq boshlangan edi. Ammo XI asrgacha bu harakat ispan kuchlarining tarqoq bo'lganligi va ularga qarshi jipslashgan xalifalik kuchlari turganligi sababli biror yutuqqa erisha olmadi. Rekonkistachilar 1031 yilda ummaviylar sulolasi parchalanib, 23 ta tayplarga bo'linib ketganidan keyin muvaffaqiyatga erisha boshladi. Bu harakatning markazlari Toledo, Kastiliya va Leon edi. Asturiya qirolligi VIII—IX asrlarda yarim orolning butun shimoliga va shimoli-g'arbga o'z ta'sirini yoydi. X asr boshlarida asturiyaliklar janubga ham siljib bordilar, Leon shahri esa ularning asosiy markazi bo'lib qoldi va butun Asturiya qirolligi Leon nomi bilan Leon qirolligi deb atala boshladi. X asrning ikkinchi yarmida— XI asr boshlarida Leon janubgacha kengayib, Duero daryosi havzasigacha cho'zilib ketadi. Bu yerda juda ko'p qasrlar-qal'alar — burglari bo'lgan chegara viloyat tashkil topadi. Ana shu qasrlar nomidan olinib, yangi mamlakat Kastiliya deb ataldi. Burgos shahari Kastiliyaning asosiy shahari hisoblanardi. 1037 yilda Leon qiroli Kastiliyaning ham qiroli deb atala boshladi. XI asrning ikkinchi yarmida Kastiliyaliklar Taho daryosi havzasini bosib oldilar. 1085 yili qiroli Alfons VI Toledo shaharini istilo qildi. Bu yangidan istilo qilingan hudud, ya'ni Taho havzasi Yangi Kastiliya deb atala boshladi. Biroq XI asrda Yangi Kastiliyaning ahvoli hali ancha nomustahkam edi. 1086 yili, ya'ni Toledo istilo qilingandan keyingi yili Alfons VI ning o'zi Zallak shahriga yaqin joyda arablardan qattiq zarba yedi. Shimoli-sharqda joylashgan Navarra qirolligi IX asrda juda katta ahamiyatga ega edi. Bundan keyingi asrlarda u uncha kengaymadi. Ammo uning janubida ancha-muncha siyosiy o'zgarishlar bo'lib o'tdi. IX asr oxirida Ispaniya markasidan yangi mustaqil mulk, Aragon grafligi ajralib chiqib, so'ng XI asrda qirollikka aylandi. 1118 yili aragonliklar arablardan Saragosa shahrini tortib olib, uni Aragonning poytaxti qildilar. 1137 yili Aragon Ispaniya markasi bilan birlashdi, Ispaniya markasi bu vaqtda Kataloniya yoki Barselona grafligi degan yangi nom bilan yurardi. Nihoyat, yarim orolning g'arbida Portugaliya janubga tomon cho'zilib ketgan edi. Dastlab bu ham graflik edi ( u 1095 yillarda tashkil topgan edi), 1116

yilga kelib u ham qirollik bo‘lib oldi. Portugaliyaning poytaxti boshda Duero daryosining mansabidagi Oporto shahri edi, keyin 1147 yildan — Taxo daryosining mansabidagi Lissabon shahri poytaxt bo‘lib qoldi. Leon koroli hokimiyatidan xalos bo‘lgan Portugaliya qirolli Rim papasiga qaram bo‘lib qoldi. Ammo bu qaramlik nomigagina bo‘lib, aslida boshqacha edi.<sup>6</sup>

Yarim oroldagi to‘rtta xristian davlatlaridan Navarra va Portugaliya alohida-alohida rivojlandilar. Navarrada fran-suzlar ta’siri juda kuchli edi. Atrofnı tog‘lar o‘rab olgan bu kichik mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi sekinlik bilan bordi. Shu sababli XIII—XV asrlar davrida Navarra katta rol o‘ynagani yo‘q.<sup>7</sup> Kastiliya va Aragon Pireneya yarim orolining ikkita asosiy davlati bo‘lib, pirovardida ular yagona qirollikka birlashdilar. Bu birlashgan davlatlarning o‘rta asrlar davridati tarixi o‘zining bir qancha xususiyatlariga egadir. Kastiliya qirolligi yarim orolda eng katta hududni egallagan edi. Yarim oroldagi hududning deyarli beshdan uch qismi uning hissasiga tushar edi. Rekonkistada ham Kastiliya eng aktiv qatnashgan edi. Kastiliya tili keyinchalik ispan milliy adabiy tiliga asos bo‘ldi. Kastiliya shahar va qishloq jamoalarining siyosiy ahamiyati Kastiliyada umumtoifa vakilligi, ya’ni korteslarning ertaroq vujudga kelishida ochiq-oydin namoyon bo‘ldi. Korteslar o‘z faoliyatini 1188 yildayoq (ingliz parlamenta va fransuz General shtatlaridan ancha oldin) boshlagan edi, shu bilan birga uchinchi toifa vakillari tarkibiga shaharliklar bilan birgalikda dehqonlarning ham ba’zi bir vakillari kirgan edi. Kastiliyadagi qirol hokimiyati shaharlarga tayanib turib, XIII asrdayoq o‘z obro‘-e’tiborini kuchaytirishga harakat qildi va yirik feodallar bilan qattiq kurash olib bordi.<sup>8</sup> Kastiliya korteslari qirol hokimiyati kuchsiz bo‘lgan paytlarda davlatning barcha ishlari ustidan nazorat o‘rnatgan. Ayrim hollarda korteslar qirolning uyidagi kundalik turmushiga ham aralashardilar. 1258 yilda Kastiliya kortesi qirol va uning oilasi ko‘p ovqat yemasligi, belgilangandan ko‘p mehmon chaqirmasligi va ma’lum miqdordagi puldan ortiq xarajat qilmasligi haqida qaror chiqardi. Ispaniyani XIV-XV asrlarda o‘zaro urushlar, dehqonlar qo‘zg‘olonlari qamrab olgan. Zodagonlar kurashi qirol hokimiyatiga qarshi qaratilgan. Ushbu sharoitda markaziy hokimiyatni kuchaytirish ehtiyoji tug‘iladi. Ferdinand Aragonskiy 1469 yili Izabella Kastilskayaga uylanadi. Ferdinandning 1479 yili Aragon qirolli tojini kiyishi, Aragon-Kataloniya va Kastiliya-Leon qirolliklarining birlashishiga zamin

---

<sup>6</sup>.Salimov T.O’ “Jahon tarixi” (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda) T-2014

<sup>7</sup>.Удальсова З.В “История Европа” 1988.

<sup>8</sup> Корсунеский А.Р “История Испании IX-XIII вв.М,1976

tayyorlaydi. Ferdinand va Izabella zodagonlarga qarshi kurashni davom ettirib, ularning qator imtiyozlarini bekor qiladilar. Bu borada 1476 yili tuzilgan Kastiliya shaharlarining “Muqaddas Ermandad” ittifoqi ko‘magiga tayanadi. Zodagonlar o‘zboshimchaligiga chek qo‘yganidan so‘ng, qirol shaharlar erkinliklarini ham birmuncha cheklaydi. Kastiliyada va Aragonda sinfiy kurash, shu-ningdek, rekonkistaniyag tamom bo‘lmaganligi har ikkala mamlakat feodallarini ikki qirollikni yagona Ispaniya davlatiga birlashtirish to‘g‘risida bir bitimga kelishga majbur etdi. Ikkala qo‘shni davlat o‘rtasidagi uniya (ittifoq) sulolaviy nikoh yo‘li bilai amalga oshirildi. Malika Izabella Kastilskaya 1469 yili shahzoda Ferdinand Aragonskiyga turmushga chiqdi. 1474 yili Izabella Kastiliya qirolichasi bo‘ldi, 1479 yili taxtga o‘tirdi. Birlashgan ikkala mamlakatning har biri o‘zining avvalgi qonunlari, urf-odatlar va alohida-alohida korteslarini saqlab qoldi. Shunday qilib, mamlakatni boshqarish ikki tusdaligicha qolaverdi. Shunday bo‘lsa ham, yagona Ispaniyani vujudga keltirish uchun asos solingan edi. Kastiliyada ham, Aragonda ham qirol hokimiyati mustahkamlana boshladi. Birlashish Ferdinand bilan Izabellaning ichki va tashqi siyosatlarida ijobiy aks etdi.

O‘rta asrlarda Ispaniyada biroz muddat arablar hukmronligi o‘rnatilgan edi, keyinchalik Ispaniya hududida mustaqil amirlik tashkil topdi. Ispan xalqi o‘zining avvalgi hududini tiklashga urindi. Natijada mamlakatda rekonkista harakati avj olib ketadi. Ispaniyadagi rekonkista harakati natijasida u o‘z hududini yanada kengaytirdi. Mamlakatdagi o‘zgarishlar, aholining ijtimoiy hayot tarzi, mamlakatning iqtisodiy ahvoliga ham ta‘sir etmay qolmadi. Dastlab Kordova amirligi tashkil topgan bo‘lsa, keyinchalik mamlakat hududida boshqa davlatlar ham tashkil topadi, ammo, ko‘p o‘tmay ular yagona Ispaniya davlati tashkil topishi uchun asos bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Корсунеский А.Р “История Испании IX-XIII вв.М,1976
2. Т.О’ .Salimov, F.E.Sultonov “ Jahon tarixi” T-2017.
3. V.F. Semenov “O’rta asrlar tarixi” T-1974
4. Удальсова З.В “История Европа” 1988.
5. Salimov Т.О’ “Jahon tarixi” (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda) T-2014

## Rahbarning boshqaruvchilik faoliyatidagi psixologik xususiyatlari

*Xayrullayeva Durdona Abdumo'min qizi*

[luis6@gmail.com](mailto:luis6@gmail.com)

**Annotatsiya :** Ushbu maqolani yozishdan maqsad rahbarlarning boshqaruvchanlik xususiyatlari hamda ularning shaxsiga qo'yiladigan talablar shuningdek rahbarning o'rni haqidadir.

**Kirish so'zlar:** Boshqaruv, Psixologik tadqiqotlarda, shaxs yoki odamlar, falsafa, tarix iqtisod, xuquqshunoslik va psixologiya, Kibemetika (grekcha so'zidan olingan bo'lib, „kibemetike“ — korablni boshqarish san'ati demakdir, .Boshqarish — o'zi san'at, san'at esa — qobiliyatdir.

Boshqaruv ilmining nazariy tarixiy asoslari. Shaxsiy motivatsiyalash uslublari. Oxirgi yillarda inson omiliga e'tiboming ortib borishi munosabati bilan boshqarish psixologiyasi masalalariga ham qiziqish kuchaydi. Shu asosda ijtimoiy psixologiyaning maxsus bo'limi — boshqarish psixologiyasi paydo bo'ldi. Boshqarish psixologiyasi psixologiyaning shunday tarmog'iki, u boshqaruv faoiyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni, shaxs va shaxslar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoiyatini samarali tashkil etish va birgalikdagi faoiyatini amalga oshirishning psixologik mexanizmlarini o'rganadi. Boshqarish muammolari ham bir qancha fanlar tom onidan o'rganiladi, jumladan, falsafa, tarix iqtisod, xuquqshunoslik va psixologiya uning o'ziga xos tomonlarini ochish bilan shug'ullanadi. Psixologiya boshqarishni ham ob'ekti, ham subyektini o'rganadi. Psixologik tadqiqotlarda o'rganiladigan olimlar jamoasi, alohida shaxs, ularning psixologik holatlari, ulardagi ayrim jarayonlar va vazifalari boshqariv ob'ekti deb aytiladi. Boshqaruvning subyektini o'rganilganda esa, odatda, boshqaruvchi shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi. Psixologiya ko'proq boshqaruvchi shaxs faoliyatining psixologik asoslarini o'rganadi va shu asosda bo'ysunuvchilar ishlarinn samarali tashkil etish, aniq va to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun qanday psixologik holat vajarayonlarni o'zida tarbiyalash lozimligi kabi qator muammolarni echadi. Masalan, konkret hayotiy sharoitlarda agar boshliq majlis olib borayotgan bo'lsa, har bir so'zga chiquvchilarning fikrlari, ma'ruzalari va hokazolar orqali ularning psixologik holatlari aniqlanadi, yangi ish dasturlari ishlab chiqariladi, qabul qilingan qarorlarga ko'ra, boshliqning va xodimlarning har biriga alohida ilmiy ko'rsatmalar va maslahatlar beriladi. Boshqaruv psixologiyasi boshliq faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatni boshqarish uning ehtiyoji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligi, qaysi

individual xususiyatlariga ko'ra, u boshliq darajasiga ko'tarildi, ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u boshqaruvning qay usullaridan foydalanyapti, xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish maqsadida u qanday ta'sir uslublarini qo'llayapti kabi qator masalalarga qaratadi. Boshliq bo'lish ishiga turli shaxslarning munosabatlari har xil, chunki kimdir boshliqda bo'lgan imtiyozlarga beriladi, kim uchundir unga berilajak huquqlarni afzal ko'rish xos, kimgadir yuksak mas'uliyatlarni bo'yinga olish ma'qul keladi. Shaxslarning boshliq funksiyalari haqidagi tasavvurlari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, boshliqdan real sharoitlarda odamlar guruhini aniq maqsad asosida faoliyatga yo'llash, ularga bosh bo'lish, turli tadbirlarni amalga oshirish, obro'ga ega bo'lish, har bir qilingan ish uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olish kabi ko'plab sifatlarning mujassam bo'lishi talab qilinadi. Ayniqsa, boshliq uchun turli guruhlardagi, ko'p holda bir boshliq uchun bir vaqtning o'zida bir qancha guruhlardagi shaxslararo munosabatlarning xarakteriga javobgar bo'lish qiyinchiliklar tug'diradi, chunki o'sha guruhlarni tashkil etgan har bir shaxsning o'ziga xos individualligi, boshqaruvchi haqidagi ular tasavvurining har xilligi va guruhlarda norasmiy liderlarning borligi boshliqdan odamlar bilan ishlash borasida ham tajribaning, ham psixologik fahm-farosatning va sabr-qanoatning bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham kundalik hayotimizda, ham ilmiy adabiyotlarda tez-tez yonma-yon ishlatiladigan „lider“ va „boshliq“ tushunchalarining psixologik mazmunlarini bilish maqsadga muvofiqdir. Boshqarishning umumiy nazariyasini kibemetika fani o'rganadi. Kibemetika (grekcha so'zidan olingan bo'lib, „kibemetike“ — korablni boshqarish san'ati demakdir). Boshqarishning obykti bu alohida shaxslar yoki guruhlarni bo'lib, ularga maxsus tashkil etilgan, sistemali va rejalashtirilgan usullar orqali ta'sir etiladi. Boshqarishda gorizont va vertikal jihatlar mavjud. Masalan: gorizont bu psixologik bilimlarni asos qilib olsa, vertikal esa yuridik hujjatlarga asoslangan bo'ladi.

Boshqaruv — bevosita ijtimoiy psixologiya bilan bog'liq bo'lib, eng avvalo, shaxsni boshqarish va shaxs orqali uning faoliyatini boshqarish demakdir. Boshqaruvning asosini ijtimoiy, huquqiy, psixologik va nazariy bilimlar tashkil etadi. Boshqaruvning nazariyasi va uning tizimi kibemetika fani bilan uzviy bog'liq. Boshqaruv nazariyasi o'ziga xos genezisga ega bo'lib, avvalo, ijtimoiy hayotiy tajribalarga suyanadi. Boshqarish — o'zi san'at, san'at esa — qobiliyatdir. Demak, shaxs doimo boshqarishga muhtojdir. Boshqaruvda rahbaming doimo ob'ekti mavjud bo'lib, qonun, buyruq va ko'rsatmalaiga asoslanib, o'z faoliyatini olib boradi. Faoliyat esa ko'p hollarda xabarlar yig'indisidan iboratdir. Boshqaruv nazariyasi qonun, bo'yruq va ko'rsatmalarga asoslangan bo'lsa, psixologik bilimlar esa boshqaruvning asosiy quroli va usuli hisoblanadi. Boshqaruv faoliyatida rahbar o'zining ijtimoiy xatti-harakatini

tartibga solib boradi. Boshqaruv faoliyatini o‘ziga xosligi shundan iboratki, agar boshqaruv faoliyati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmas ekan, har qanday qaror, ko‘rsatmalar yo‘lda pala-partish bo‘lib ketishi barchaga ma‘lum. Nazariya qachon ijtimoiy hayotga tadbiiq etiladiki, u qachonki hayotiy va aniq maqsadga qaratilgan bo‘lsa. Boshqaruvda nazariya empirik hodisalarni tushuntirishga tadbiiq qilish mumkin boigan mavhum talqinlarni yaratishni taqozo qiladi. Boshqaruvga nazariy yondashuv — ularni empirik jihatdan tekshirish mumkin bo‘lgan taqdirdagina o‘rinlidir. Har qanday nazariya boshqaruvda nazariy savollar, dalillarni anglab idrok qilishga yordam beradi. Aslida rahbarlar empirik masalalar, muammolar bilan shug‘ullanadilar, lekin o‘rganinayotgan hodisalarning, muammolarning sababini nazariy jihatdan tahlil qilishmasa, o‘ylagan natijalariga erisha olmaydilar. Rahbar g‘oya va nazariy fikrlarga e‘tibor bermasliklari mumkin, biroq amaliyotda yuzaga keladigan muammolarning echimi asosida nazariya yotadi. Nazariya grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, teoriya — tadqiqot m a’nosini anglatadi, boshqacharoq aytganda, fanni u yoki bu yo‘nalishi bo‘yicha g‘oyalar tizimi degan mazmunda tushunishimiz mumkin. Nazariya — haqiqat m e’zoni va rivojlanishning asosidir. „Boshqaruv — bu doimo ikki jarayonni o‘z ichiga oladi, ya’ni nazariya va amaliyot“. Nazariya doimo amaliyot bilan ziddiyatda bo‘lib boradi, chunki ba’zida nazariya amaliyotdan ilgarilab ketadi, ba’zi hollarda esa uning aksi bo‘lishi mumkin. Nazariya ko‘pincha amaliyotda yuzaga kelgan yangiliklarni takomillashtirishga bevosita yordam beradi. Boshqaruv nazariyasi qachon yuzaga keldi degan savol tug‘ilishi tabiiydir. Amaliy faoliyatda shaxs o‘zining mehnatini samarali tashkil etishni xohlaydi, samarali tashkil etish esa, albatta mantiqiy fikrlashga majbur etadi. Mantiqiy fikrlash boshqaruvning eng oliy darajasi va qurolidir shu sababdan jamiyatni, jam oani, taraqqiyotning barcha bosqichida, qobiliyatli, bilimli kishilar tomonidan boshqarish ehtiyoji mavjud bo‘lgan. Boshqaruv nazariyasini takomillashtirib borish natijasida barcha sohani boshqarish usuli va mehnat metodologiyasi yuzaga keladi. Boshqaruv nazariyasida boshqaruv tizimi, bosqichi, muddati va javobgar shaxslar ko‘rsatiladi. Boshqaruvda nazariyaning samarasi ko‘p jihatdan ushbu jarayonning asoslanganligiga bog‘liqdir. Boshqaruv nazariyasi boshqaruvning asosi sifatida barcha rahbarlarga birdek taalluqli yoki har-bir rahbarga shablon shaklida ta’sir qilishi kerak bo‘ladi degan fikrdan biz uzoqdamiz. Boshqaruv psixologiyasining nazariyasi va metodologiyasida maqsadga erishish uchun o‘zaro uyg‘unlik mavjuddir. Psixologiyada boshqarish nazariyasining quyidagi jihatlari o‘rganiladi: a) boshqarish faoliyatining nazariyasi; b) boshqarishda kasbiy faoliyatning psixologik tahlili; c) boshqarish tizimida guruhlarining faoliyati; d) boshqarish tizimida shaxslararo munosabatlar; e) boshqarish tizimida rahbarlik; f) boshqarishda psixologik ta’sir etish usullari va hokazo. Boshqarishda huquqiy

funksiya tushunchasi mavjud bo'lib, bu — qo'l ostidagi shaxslarni, jamoani to'g'ri boshqarishda asosiy huquqiy usul hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Boshqarishda psixologik bilimlar esa yordamchi usul hisoblanadi. Boshqarish jarayonida vaqtdan samarali foydalanish bugungi kun talablaridan biridir. Vaqt — bu to'xtatib bo'lmaydigan jarayon hisoblanadi. Vaqtdan samarali foydalangan shaxsning ishida unum, baraka bo'ladi. Vaqtni boshqarish tushunchasi bu insonning o'zini o'zi boshqarishi bo'lib qolmasdan, balki jamoani, oilani boshqarish demakdir. Vaqtdan unumli foydalanish majlisbozlikdan, qog'ozbozlikdan va foydasiz ishlardan holi bo'lish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.B.Axmedjanov. A.X.Xolov. Yosh rahbar kadrlarda samarali qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish. O'quv qo'llanma // Toshkent. - "Tafakkur qanoti", 2020.
2. To'ychiyeva S. Boshqaruv texnologiyalari. O'quv qo'llanma // Toshkent. - "Navro'z" nashriyoti, 2020.
3. Rahmatullayeva N, Kamolov A. Ijtimoiy menejment. // O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-Moliya",
4. E.G'. Nabiyeu, D.N. Rahimova, Sh.N. Mavloniy. Zamonaviy menejment nazariyasi va amaliyoti. // O'quv qo'llanma. - T.: "Akademiya" nashriyoti, 2006.
5. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. // - Toshkent: "Yangi asr avlod", 2016
6. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. // - Tosh



**PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMING THE SPIRITUAL AND MORAL  
EDUCATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS.**

*Nusratov Anvar Nematjonovich*

*Associate Professor of Bukhara State Pedagogical Institute*

*Nasullayeva Dildor Sharofovna*

*Master's student of the 1st stage of pedagogy and psychology at the International  
University of Asia*

**Abstract:** Spiritual and moral education is very important for students of junior school age, because it is important for the future society that they learn the principles of humanity and develop their respect for other people and fair relations. These systems can help in the formation of spiritual and moral education of students. In this article, there are systems for the formation of spiritual and moral education of students of junior school age.

**Key words:** patriotism, morality, sense of country, loyalty, humanitarianism, country, national tradition

**The main part:** Patriotism is a special feeling of love and loyalty to one's country, its history and culture, to serve it, to make its people highly valuable. Patriotism is very important in the system of spiritual and moral education, which teaches students to appreciate the country, its history, culture and people with love.

**Patriotism can be studied for spiritual and moral education in the following ways:**

- ❖ Historical lessons: To teach students to value the history of the country, struggle for its independence, show respect to their country.
- ❖ Flag and national symbols: To increase the sense of patriotism by organizing lessons about the national flag, symbols and national features of the students.
- ❖ Advocacy and Protection: To encourage students to protect the security and independence of the country, to learn how they value the security of the country.
- ❖ Statements related to their country: Help students to get to know their country and its people with love by creating statements related to their country.

- ❖ People of high value of the country: By organizing lessons about the people of high value of the country, to show respect to the students and encourage their social activities.
- ❖ Through these methods, it is possible to form patriotic spiritual and moral education for students. By forming this education, students show respect for their country, value its history and culture, and show love for its valuable people.

*The following pedagogical systems can be used to form the spiritual and moral education of students of junior school age:*

- ✓ Literature lessons: Literature lessons are very important for spiritual and moral education. Students can learn the principles of justice, respect, love, patience and other humanitarian principles in literature classes.
- ✓ Dialogues and regular lessons: It is important to organize dialogues, regular lessons and dialogues to form the spiritual and moral education of students. Through this, students can learn the principles of humanitarianism, develop their mutual relations and improve their spiritual and moral education.
- ✓ Humane trainings: Organization of practical trainings on humanitarianism is very important in the formation of moral and moral education of students. Through these activities, they can practice humanitarian principles, show respect for other people and develop fair relations.
- ✓ Mass-viewing programs: Students can expand their understanding through mass-viewing programs, videos, and books to build moral education.
- ✓ Encourage students to actively participate in the community: Encourage students to actively participate in the community, discuss humanitarian issues with friends, encourage community participation for future performance.

Spiritual and moral education is very important for students of junior school age, because it is important for the future society that they learn the principles of humanity and develop their respect for other people and fair relations. These systems can help in the formation of spiritual and moral education of students.

**Conclusion:** "To love the country is from faith" is not said for nothing. Therefore, it is an expression of faith that a person loves and honors his homeland, the place where he was born and grew up, his country, which binds his friends and relatives. Therefore, it is everyone's filial duty to love the Motherland, to honor it, to protect it, and to make efforts for its prosperity. Therefore, formation of students' sense of patriotism in primary education plays an important role in improving the content of education. In this process, the patriotism, humanitarian and moral skills of elementary school students are formed to a certain extent.

**References:**

1. Ochilova B. Milliy-manaviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorislik. - Toshkent: «Istiqlol», 2009.
2. Mahkamov U.I. O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. –T.: “Fan” 1995.
3. Mahkamov U.I. Axloq odob saboqlari. –T.: “Fan” 1994.
4. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI N.A.Abdukarimov

## INFLUENCE OF THE PROCESSES OF PREPARATION AND UNWINDING OF COCOONS ON THE CONNECTION OF RAW SILK

*Islambekova N.M*

**Annotation.** The effect of the concentration of an aqueous solution of sericin on the binding of raw silk was studied and it was revealed that the higher the concentration of an aqueous solution of sericin in the silk reeling basin, the higher the binding of raw silk. The most rational exposure in water is a 3-minute exposure; after 3 minutes, the cohesion of the raw silk decreases by 20-28 moves of the carriage. It was revealed the temperature sequences in the processes of preparing cocoons for unwinding and their unwinding.

**Introduction.** The quality of raw silk is regulated by a state standard, mandatory for both suppliers and consumers. Raw silk is characterized by qualitative and quantitative characteristics. Qualitative characteristics, in turn, are divided into primary and secondary. The main characteristics include unevenness in linear density, rewinding ability and cleanliness for large defects, and the secondary ones include unconformity, relative breaking load, elongation at break, cleanliness for small defects, cohesion and condition of the skeins. The grade of raw silk is established according to the worst indicator of the main quality characteristics, if the raw silk meets the established standards according to secondary characteristics. If, according to two of the secondary characteristics, the indicators are worse than the norm, then the grade of raw silk is reduced by one.

**Research methods.** Cohesion is the resistance of raw silk to splitting forces. To determine the connectivity, use 20 of 50 or 25 spools of raw silk wound to determine the rewinding capacity. To carry out the tests, a Duplan cosimeter and a reel are used. The device is threaded with a single thread from each spool. Threading is done by threading through each hook. Both ends of the thread are secured. The thread being tested must be free from all defects in cleanliness. Cohesion is determined by abrading raw silk threads with metal plates at a carriage speed of 140 strokes per minute. The weight of the upper grid is 300 g. The total load of the suspension system that creates thread tension is 180 g. For each of the 20 threadings, one thread is selected from the spools by random selection and threaded. After refueling, lowering the top grill turns on the device. The device is reset every 10 strokes. Raise the upper grid and use a magnifying glass with 10x magnification to examine the condition of the raw silk thread. After registering 10 loosening 6 mm or more in length. This phenomenon is noted. In this case, the number of friction cycles necessary to separate the thread and destroy its connection is noted.

The data obtained and their discussions. The main factor on which cohesion depends is the environment for unwinding the cocoons. We investigated the effect of the concentration of an aqueous solution of sericin on the binding of raw silk (Table 1).  
Table 1.

Effect of the concentration of an aqueous solution of sericin on the connectivity of raw silk

Concentration of aqueous solution of sericin, g/l	Connectivity, number of carriage strokes
0,0	41,3±4,2
0,5	52,6±3,3
0,8	55,8±2,7
1,0	55,7±2,8
1,5	74,3±2,5

The data presented shows the dependence of the magnitude of connectivity on the concentration of sericin in the water of the silk-winding basin. It can be seen that the higher the concentration of the aqueous solution of sericin in the silk reeling basin, the higher the binding of raw silk. In this regard, it is irrational to wash out cocoons in running water. When unwinding cocoons, it is necessary to use a drainless water recirculation system, as is customary on Japanese machines.

The influence of the duration of storage of cocoons after steaming in water at a temperature of 92-93<sup>0</sup>C on the cohesion of raw silk was investigated.

Table 2.

The influence of the duration of storage of cocoons after steaming in water at a temperature of 92-93 on the cohesion of raw silk

Duration of exposure of steamed cocoons in water at a temperature of 38-42 <sup>0</sup> C, min	Connectivity, number of carriage strokes
1	79±2
3	94±3
6	70±3
10	70±2
15	62±2

As can be seen from the table, the most rational exposure in water is a 3-minute exposure; after 3 minutes, the cohesion of the raw silk decreases by 20-28 moves of the carriage.

The cohesion of raw silk also depends on the sequence of temperature conditions in the processes of preparing cocoons for unwinding and their unwinding (Table 3).

Table 3.

The influence of the processes of preparation and unwinding of cocoons on the cohesion of raw silk

Index	Options														
	1			2			3			4			5		
	Steaming	Shaking	Unwinding	Steaming	Shaking	Unwinding	Steaming	Shaking	Unwinding	Steaming	Shaking	Unwinding	Steaming	Shaking	Unwinding
Water temperature, °C	92	92	42	93	93	37	92	89	42	9	80	3	93	6	42
Connectivity, number of carriage strokes	64			69			70			75			89		

As can be seen from the data obtained, the highest coupling is when parked 93°C, when shaking 65°C and when unwinding 42°C

### Conclusions.

- the higher the concentration of the aqueous solution of sericin in the silk reeling basin, the higher the binding of raw silk.
- the most rational exposure in water is a 3-minute exposure; after 3 minutes, the cohesion of the raw silk decreases by 20-28 moves of the carriage.
- the highest cohesion when parked 93°C, when shaking 65°C and when unwinding 42°C

## "PLACEMENT OF PICTORIAL, GRAPHIC INFORMATION ON THE WEB PAGE"

*Kuldasheva Feruza Kurdoshevna*

*Informatics teacher of TSUE academic lyceum*

*E-mail: [feruzakuldasheva777@gmail.com](mailto:feruzakuldasheva777@gmail.com)*

**Abstract:** This scientific article explores the critical role of effectively placing pictorial and graphic information on web pages to enhance user engagement and satisfaction. The study delves into the psychological and cognitive aspects influencing user perception, the impact on information retention, and the implications for website design. Through a thorough examination of current research and practical insights, this article aims to provide valuable guidelines for web designers and developers seeking to optimize the placement of visual elements on their websites.

**Keywords:** Web design, User engagement, Graphic information, Pictorial elements, Cognitive psychology, Information retention, User experience, Visual hierarchy.

### Introduction

In the digital age, where attention spans are dwindling, the placement of pictorial and graphic information on web pages plays a pivotal role in capturing and retaining user attention. Visual elements not only convey information more efficiently but also contribute significantly to the overall user experience. Understanding the cognitive and psychological processes involved in processing visual information is crucial for designing web pages that are both aesthetically pleasing and highly functional. The proliferation of online content has made effective communication more challenging than ever. In this context, the placement of pictorial and graphic information on web pages becomes a crucial factor in ensuring that users can quickly grasp and retain information. This article aims to explore the science behind optimal placement, considering both visual aesthetics and cognitive processes.

### Visual Hierarchy and Cognitive Processing

The placement of visual elements on a web page directly influences the user's visual hierarchy, guiding them through the content in a meaningful way. Studies show that users tend to focus on certain areas of a webpage more than others, often influenced by factors such as size, contrast, and placement. By strategically positioning important information and visuals, designers can optimize the user's cognitive processing, leading to a more intuitive and satisfying experience. One fundamental aspect of web design is establishing a clear visual hierarchy to guide users through the content. Strategic placement of pictorial and graphic elements helps create this hierarchy, drawing attention to essential information. Elements such as headers,

subheadings, and images contribute to a visually organized structure, making it easier for users to navigate and understand the content.

#### **Cognitive Load and Information Processing:**

Understanding how users process information is essential for effective placement. Cognitive load theory suggests that individuals have a limited capacity for processing information. Therefore, optimizing the arrangement of images and graphics can reduce cognitive load, ensuring that users can absorb and retain information more effectively.

#### **Focal Points and Call-to-Action:**

Placing visually compelling elements strategically can direct users' attention to key areas of a web page. Whether it's a call-to-action button or an important piece of information, the placement of graphics can guide users through the desired user journey. Eye-tracking studies and heatmaps can provide valuable insights into users' natural gaze patterns, aiding in the optimal placement of focal points.

#### **Responsive Design:**

In the era of multiple devices and screen sizes, responsive design is paramount. The placement of pictorial and graphic elements should adapt to various screen sizes seamlessly to maintain a consistent user experience. Ensuring that images scale appropriately and remain impactful across devices contributes to a more inclusive and accessible design.

#### **Testing and Iteration:**

The effectiveness of placement strategies can be assessed through user testing and data analytics. A/B testing and usability studies can provide valuable feedback on how users interact with different placements of graphics and pictorial elements. Continuous iteration based on user feedback contributes to an evolving and user-centric design approach.

19. Khamdamova M. T. Somatometric characteristics of women of the first and second period of adulthood using different contraceptives with different body types // The american journal of medical sciences and pharmaceutical research - 2020. – N8 (2). - P.69-76.
20. Khamdamova M.T., Zhaloldinova M.M., Khamdamov I.B. The state of nitric oxide in blood serum in patients with cutaneous leishmaniasis // New day in medicine. Bukhara, 2023. - No. 5 (55). - pp. 638-643.
21. Khamdamova M.T., Zhaloldinova M.M., Khamdamov I.B. The value of ceruloplasmin and copper in blood serum in women wearing copper-containing intrauterine device // New day in medicine. Bukhara, 2023. - No. 6 (56). - pp. 2-7. Khamdamova M. T. Bleeding when wearing intrauterine contraceptives and their relationship with the nitric oxide system // American journal of pediatric medicine and health sciences Volume 01, Issue 07, 2023 ISSN (E): 2993-2149. P.58-62
22. Khamdamova M. T. The state of local immunity in background diseases of the cervix // Eurasian journal of medical and natural sciences Innovative Academy Research Support Center. Volume 3 Issue 1, January 2023 ISSN 2181-287X P.171-175.

23. Khamdamova M.T., Khasanova M.T. Various mechanisms of pathogenesis of endometrial hyperplasia in postmenopausal women (literature review) // *New day in medicine*. Bukhara. 2023. - No. 8 (58). - pp. 103-107.
24. Khamdamova M.T. Reproductive Health of Women Using Copper-Containing Intrauterine Contraception // *Eurasian Medical Research Periodical* Volume 28 January 2024, ISSN: 2795-7624 .[www.geniusjournals.org](http://www.geniusjournals.org) P. 39-45.
25. Khamdamov I.B. Advantages Of Laparoscopic Hernioplasty in Obesity Women of Fertile Age // *Eurasian Medical Research Periodical* Volume 28 January 2024, ISSN: 2795-7624 .[www.geniusjournals.org](http://www.geniusjournals.org) P. 33-38.
26. Токтар Л.Р. Женская пролаптология: от патогенеза к эффективности профилактики и лечения // *Акушерство и гинекология: новости, мнения, обучение*. 2017. № 3 (17). С. 98-107.
27. Blomquist J.L., Carroll M., Munoz A., Handa V.L. Pelvic floor muscle strength and the incidence of pelvic floor disorders after vaginal and cesarean delivery // *Am. J. Obstet. Gynecol.* 2020. Vol. 222, N 1. P. 62-65.



**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA  
TAYYORLASH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO**

*Jumayev Zuxriddin Rustam o‘g‘li*  
*Termiz davlat pedagogika instituti*  
*1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo‘ljak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash dolzarb pedagogik muammo ekanligi va yurtimiz ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga oid qilinayotgan ishlar hamda innovatsion kompetentlik haqida yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Innovatsiya, kompetensiya, kompetentlik, modernizatsiyalash, muammo, innovatsion kompetensiya, texnologiyalar

**Abstract:** This article sheds light on why the preparation of future teachers for innovative activities is an urgent pedagogical problem, and about the work being done on the development of innovative activities and innovative competence in the educational system of our country.

**Key words:** Innovation, competence, competence, modernization, problem, innovative competence, technologies.

**Аннотация:** В данной статье объясняется, почему подготовка будущих учителей к инновационной деятельности является актуальной педагогической проблемой, а также о работе, проводимой по развитию инновационной деятельности и инновационной компетентности в системе образования нашей страны.

**Ключевые слова:** Инновация, компетентность, компетентность, модернизация, проблема, инновационная компетентность, технологии.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim mazmunini modernizatsiyalash munosabati bilan oliy ta’lim muassasalarida talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bo‘yicha ishlar birmuncha jonlandi. 2017-yilda qabul qilingan «Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaror kasbiy oliy ta’limni o‘zgarib borayotgan jamiyat va mehnat bozori ehtiyojlariga tez moslashishga yordam beruvchi yangi ta’limiy texnologiyalarni, jumladan, distansion, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va ulardan samarali foydalanishning zarurligi qayd etilgan. Turli kafedralar (ayniqsa, pedagogika va psixologiya kafedralari) o‘qituvchilarida pedagogik innovatsiya nazariyasi va amaliyoti sohasidagi ilmiy ishlarga katta qiziqish uyg‘ondi. Maktab ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson

qilib o‘stirish pedagog-tarbiyachi zimmasiga yuklatiladi. Shu sababdan, maktab ta’limi sohasidagi islohotlarning bevosita davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi ko‘plab dasturlar tasdiqlagan. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining mazkur davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasida maktab yoshidagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me‘yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, unda maktab ta’limining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari ifodalangan, shuningdek, bolaning ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan. Bu o‘z navbatida maktab ta’limi tizimida pedagogik jarayonlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi zarurligini talab etadi.

Shu o‘rinda innovatsion faoliyat o‘zi nima, nega bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash dolzarb pedagogik muammo degan savollar tug‘iladi. “Innovatsion faoliyat — yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o‘tkazilishi va amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha faoliyat” bo‘lib, ta’limda innovatsion faoliyat deganda esa ta’lim sohasida yangi va ijodiy yondashuvlar, usullar va amaliyotlarni joriy etish va amalga oshirish tushuniladi. Bunday tadbirlarning maqsadi o‘quv tajribasini oshirish, talabalarni ta’lim jarayoniga yanada samarali jalb qilish va ularni zamonaviy dunyo muammolariga tayyorlashdir. Ta’limdagi innovatsion faoliyat talabalarni kelajak muammolariga tayyorlash, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, moslashuvchanlik va uzluksiz ta’limga bo‘lgan muhabbatini rivojlantirishga qaratilgan.

Hozirgi kun o‘qituvchisi doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarda ish olib borishiga to‘g‘ri kelmoqda, bu o‘z navbatida uning kasbiy sifatleri takomillashtirilishini talab qiladi. Pedagogik nazariya va metodikalarning doimiy rivojlanishi, pedagogik amaliyotga o‘qitish va tarbiyalashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ularni joriy qilish hozirgi kun o‘qituvchisining ta’lim texnologiyalari sohasida qo‘shimcha tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarurligini ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda ta’limni rivojlantirishning maqsadli dasturiga muvofiq ta’lim tizimini modernizatsiyalash, kadrlarni qayta tayyorlash, o‘quv jarayonini axborotlashtirish, axborot makonlarini yaratish kabilarni amalga oshirish zarur. Sanab o‘tilgan talablar yangi milliy ta’lim tizimining shakllanishiga, inson kapitalining rivojlanishiga, mamlakatimiz iqtisodiyotining mustahkamlanishiga olib keladi. Pedagog kadrlarning bilimlarini, kompetensiyalarini doimiy yangilash va butun ta’lim tizimini takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish lozim. Ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi ta’lim oluvchilarni dolzarb bilimlar bilan ta’minlash uchun o‘z kasbiy faoliyatiga yangi yondashuvlarni olib kirish va ularni o‘zlashtirish darajasining ortishiga imkon beradi. Ta’lim tizimini

modernizatsiyalash ta'lim oluvchilarning ham ta'lim olish faoliyatidagi o'zgarishlarini ko'rsatadi.

Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan fikrlari ham mustaqil O'zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e'tibordan holi emas. Shunday ekan hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilish oldimizdagi yuksak vazifalardan biridir. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li - oliy ta'limda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv talabadan bilim va ko'nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur holatda, o'z navbatida, o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Kompetent yondashuv oliy ta'limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) - “bilim - ko'nikma - malaka”ni oltita birlik (sekstet) - “bilim - ko'nikma - malaka - amaliy faoliyat tajribasi - kompetensiya - kompetentlik” tarzida tahlil qilish talab etiladi. Dastlab “kompetensiya” tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. Kompetensiya (lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildiradi) - sub'yektning maqsadni qo'yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog'liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, “kompetensiya” tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat bilan bog'liqlikda bayon etilgan. Biroq umumiy o'rta ta'lim bilan bog'liqlikda mazkur tushuncha innovatsiya tavsifiga ega bo'lganligi sababli, uning mohiyatini aniqlashtirishga alohida ehtiyoj mavjud. Kompetentlik - biron bir ishni ma'lum talablari asosida maromiga yetkazib bajara olish qobiliyati sifatida tushuniladi. “Innovatsion kompetentsiyani esa innovatsiyaning amaliyotga asoslangan jihatini qamrab oladigan va amaliyot va o'rganish orqali vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadigan dinamik tushuncha sifatida tushunish mumkin”.

Hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar ko'laming ortib borishi, mamlakatimizda modernizatsiya jarayoni

tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ammo ko'plab pedagogik innovatsiyalarning yaratilayotganiga qaramay, ta'lim jarayonlariga o'qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini tatbiq etish bo'yicha pedagogik tadqiqotlarni joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi. Darhaqiqat, yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir o'qituvchining o'z faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid yangiliklarni muntazam o'rgana borib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning muhim talabidir. Ma'lumki, bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'proq yangiliklar kiritishga intilmoqda. Ta'lim tizimi rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda, Respublikamizda ham eng so'nggi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy va mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega yetuk kadrlarga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Bu yondashuvlarni amalga oshirishda esa innovatsion kompetensiyasi yuqori bo'lgan kadrlar bevosita o'z hissalarini qo'shishadi. Ta'lim tizimidagi yangiliklar esa kelajak uchun tikilgan uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 27.07.2017 yildagi PQ-3151-son
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.07.2020 yildagi O'RQ-630-son
3. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. *Integration of science, education and practice. scientificmethodical journal*, 1(02), 132-137.
4. Ахмедов, Б. А. (2020). Сиддигов Бахтиёр Саидкулович, Джалалов Бахромжон Бегмурзаевич МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, 9, 60.
5. Джалалов, Б. Б. (2019). Важные аспекты формирования инновационных компетенций у будущих учителей. *In european research: innovation in science, education and technology* (pp. 43-44).
6. Сиддигов, Б. С., & Джалалов, Б. Б. MODERNIZATION OF EDUCATION-THE FUTURE INNOVATIVE COMPETENCE OF TEACHERS AS A MAIN FACTOR OF FORMATION.

7. Mahliyo Khaydarova. (2023). THE CONTENT OF TEACHING SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY CLASSES. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 45-48.
8. Mahliyo Khaydarova. (2023). IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL FACILITY TO TEACHING PEDagogy. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 49-53.
9. XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. (2022). THEORETICAL BASES OF PREPARATION OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR TEACHING THE SUBJECT OF EDUCATION. *Conference Zone*, 95–96.
10. XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. (2022). THE NEED TO TEACH THE SUBJECT OF EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. *Conference Zone*, 97–98.
11. Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 792-797.
12. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2021). POSSIBILITIES OF AN INTEGRATIVE APPROACH TO THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. *European Scholar Journal*, 2(11), 43-44.

## BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA NOSTANDART MASALALARDAN FOYDALANISH

*Boborahim Choriyev*

*Termiz davlat pedagogika instituti,*

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va  
metodikasi (boshlang'ich ta'lim)*

*1-bosqich magistranti*

*Tel: +998915833161*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matematik savodxonlik, kreativ fikrlash va nostandart masalalar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** matematika, nostandart, ijodiylik, tanqidiy fikrlash, qobiliyat, muammo, potensial.

**Annatation:** This thesis discusses mathematical literacy, creative thinking, and non-standard problems.

**Key words:** mathematics, non-standard, creativity, critical thinking, ability, problem, potential.

**Аннотация:** В данной диссертации рассматриваются математическая грамотность, творческое мышление и нестандартные задачи. **Ключевые**

**слова:** математика, нестандартность, креативность, критическое мышление, способности, проблема, потенциал.

Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida xalqimizning hayoti, davlatimizning siyosiy faoliyatida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonda xalqimiz o'zining buyuk kelajagini yaratmoqda. Uni yaratishda ulug' ajdodlarimiz - buyuk pedagog -faylasuflar, din arboblari, mutasavvif donishmandlar, ulug' allomalarning ta'limotlarini o'rganish sari yo'l ochildi. Asrlar mobaynida xalqimiz saqlab kelayotgan milliy, umuminsoniy qadriyatlarni ilmiy tadqiq qilib rivojlantirishga yangi imkoniyatlar yaratildi. Shu chumladan ta'lim va tarbiyaga, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishga, yoshlarni o'zi qiziqqan sohaga yo'naltirishga e'tibor qaratilyabdi.

Ijodiy fikrlash- bu shunday fikrlashki, natijada ma'lum bir muammoni tubdan yangi yoki takomillashtirilgan yechimini topish demakdir.

J.Guilfordning fikriga ko'ra ijodiy fikrlashning xususiyatlari quydagilar: O'ziga xoslik, g'ayrioddiy g'oyalar;

Semantik moslashuvchanlik-ob'ektni turli nuqtai nazardan ko'rish qobiliyati; Majoziy moslashuvchanlik-ob'ektning yashirin tomonlarini ko'rish uchun idrokini o'zgartirish qobiliyati;

Noma'lum vaziyatda turli g'oyalarni ishlatish qobiliyati deb sanab o'tgan.

"Inson, o'zi va ruhiyati orasidagi hamda o'zi va boshqa birov orasidagi mavjud narsani tadqiq etishda bor imkoniyatni ishlatib muntazam ravishda mashq qildirib turish kerak. Buni u haqiqat vositalarini egallashda sabot bilan yo o'qitish va murabbiylik usullari yoki bahs va munozara usullari bilan amalga oshirilishi zarur" deb yozadi, Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" kitobida boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlanishida ularning tug'ma qobiliyat va iste'dodining o'rni muhim ahamiyatga ega. Tug'ma qobiliyatga ega bo'lgan yoshlarimiz kattalarning har bir ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta'limotlarini tez ilg'ab oladilar va tez o'zlashtirib hayotga tabiiq eta oladilar. Lekin bu qobiliyat va iste'dod, barcha yoshlarimizga tug'ma talant nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib borish, yoshlarning iste'dodini oshirib borish birinchi navbatda pedagoglarimizga va keng jamoatchilik zimmasiga ya'ni oila, mahalla, o'quv muassasalari zimmasiga tushadi. Bolalar o'zidagi turli faoliyatlarga bo'lgan tug'ma layoqatlarni jamoada, o'z ustida tinmay ishlash jarayonida ro'yobga chiqaradilar. Maktablardagi sinf hamda jamoa, guruhlar, to'garaklar, fan olimpiadalarida ishtirok etish tug'ma layoqatlarning imkoniyatlaridir. Shuningdek, o'quv va mehnat faoliyatida ularning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda hozirgi kunda rivojlanayotgan va ahamiyatli bo'lgan nostandart topshiriqlar (IQ testlari, brein testlari, tanqidiy fikrlash, muammoli masalalar,..) bilan rivojlantirish hozirgi davr talabidir.

Nostandart muammo" atamasi ko'plab metodistlar tomonidan qo'llaniladi. Demak, Yu M. Kolyagin ushbu kontseptsiyani quyidagicha ochib beradi: «Under nostandart tushunilgan vazifa, taqdimotga binoan talabalar uni hal qilish usulini yoki echim asosidagi o'quv materialini oldindan bilishmaydi ".Nostandart muammoning ta'rifi L.M.ning mualliflari tomonidan "Qanday qilib muammolarni echishni o'rganish" kitobida keltirilgan. Fridman, E.N. Turetskiy: "Nostandart vazifalar - bular matematika kursi uchun ularni hal qilishning aniq dasturini belgilaydigan umumiy qoidalar va qoidalarga ega bo'lmaganlar."Nostandart vazifalarni murakkabligi oshgan vazifalar bilan adashtirmaslik kerak. Murakkablikning oshishi muammolari shunday bo'lib, ular o'quvchilarga matematikada muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan matematik apparatni osongina tanlashga imkon beradi. O'qituvchi ushbu turdagi muammolarni hal qilish orqali o'quv dasturi tomonidan berilgan bilimlarni mustahkamlash jarayonini boshqaradi. Ammo nostandart vazifa tadqiqot xarakterini nazarda tutadi. Ammo, agar bitta o'quvchi uchun matematikada muammoning echimi nostandart bo'lsa, chunki u ushbu turdagi muammolarni hal qilish usullari bilan tanish emas, boshqasi uchun masalaning echimi standart usulda sodir bo'ladi, chunki u allaqachon bunday muammolarni va bittadan ko'pini hal qilgan. Matematikani o'qitishda nostandart muammolardan foydalanish nazariyasi va

amaliyotini tahlil qilish asosida ularning umumiy va o'ziga xos rolini belgilash mumkin. Nostandart vazifalar:

Bolalarni nafaqat tayyor algoritmlardan foydalanishni, balki mustaqil ravishda muammolarni hal qilishning yangi usullarini topishga o'rgating, ya'ni. muammolarni hal qilishning o'ziga xos usullarini topish qobiliyatiga hissa qo'shish;

O'quvchilarning zukkoligi, zukkoligi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi;

Muammolarni hal qilishda zararli kliklarni rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik, talabalar bilim va ko'nikmalaridagi noto'g'ri assotsiatsiyalarni yo'q qilish, algoritmik metodlarni o'zlashtirishni bilimdagi yangi bog'lanishlarni topish, bilimlarni yangi sharoitlarga o'tkazish, aqliy faoliyatning turli usullarini o'zlashtirish kabi taxmin qilishni;

O'quvchilarning bilimlari kuchliligi va chuqurligini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, matematik tushunchalarni ongli ravishda o'zlashtirishni ta'minlash. Nostandart vazifalar:

\*Bolalar tomonidan o'rganilgan tayyor algoritmlarga ega bo'lmaslik kerak;

\*Barcha talabalar uchun tarkib jihatidan qulay bo'lishi kerak;

\*Tarkib jihatidan qiziqarli bo'lishi kerak;

\*Nostandart muammolarni hal qilish uchun talabalar dasturda o'zlari tomonidan etarli darajada bilimga ega bo'lishlari kerak.

Nostandart vazifalarni hal qilish o'quvchilar faoliyatini faollashtiradi. Talabalar taqqoslashni, tasniflashni, umumlashtirishni, tahlil qilishni o'rganadilar va bu bilimlarni yanada mustahkam va ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, nostandart topshiriqlar nafaqat darslar uchun, balki sinfdan tashqari ishlar uchun, olimpiada topshiriqlari uchun ham juda foydalidir, chunki bu har bir ishtirokchining natijalarini chinakamiga ajratish imkoniyatini beradi. Bunday topshiriqlar darsdagi mustaqil ishlarning asosiy qismini osonlikcha va tezkor ravishda uddalaydigan talabalar yoki qo'shimcha topshiriq sifatida istaganlar uchun individual topshiriqlar sifatida muvaffaqiyatli ishlatilishi mumkin. Natijada talabalar intellektual rivojlanish va faol amaliy faoliyatga tayyorlanishadi. Nostandart muammolarning umumiy qabul qilingan tasnifi mavjud emas, ammo B.A. Kordemskiy bunday vazifalarning quyidagi turlarini aniqlaydi:

Maktab matematika kursiga qo'shni bo'lgan muammolar, ammo qiyinlashib borayotgani - masalan, matematik olimpiadalaridagi muammolar. Asosan matematikaga aniq qiziqish ko'rsatadigan maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan; tematik jihatdan bu vazifalar odatda maktab o'quv dasturining ma'lum bir bo'limi bilan bog'liq. Bunga oid mashqlar o'quv materialini chuqurlashtiradi, maktab kursining ayrim qoidalarini to'ldiradi va umumlashtiradi, matematik dunyoqarashini kengaytiradi va qiyin masalalarni echish ko'nikmalarini rivojlantiradi.



Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo'l ham yo'q. Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Uning uchun:

tanqidiy fikrlash tajribasini egallashi uchun vaqt va imkoniyat berish;

oquvchi-yoshlarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;

turli – tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;

o'quvchi-yoshlarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;

o'quvchi-yoshlarni kulgiga qolmaslikka ishontirish kerak;

har bir oquvchi-yoshlarning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga

o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;

tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Insonning fikrlash qobiliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu mantiqiy savodxonlik, ya'ni har qanday intellektual faoliyatda zarur bo'lgan ma'lum bir minimal mantiqiy ko'nikma va bilimdir. Mantiq matematikaning ajralmas qismi bo'lganligi sababli, maktab o'quvchilari uchun maktab matematika kursida mavjud bo'lgan mantiqiy tushunchalar va harakatlarni ajratib ko'rsatsak, ularga tegishli uslubiy ishlov berishni qo'llasak, ularda mantiqiy ko'nikmalarni shakllantirish mumkin deb taxmin qilish mumkin. Har qanday faoliyatda e'tibor, mantiqiy fikrlash qobiliyati inson uchun zarurdir, chunki ular muammolarni hal qilishga, qiyin vaziyatlardan chiqish yo'lini topishga yordam beradi. Matematika ijodkorlik sifatida alohida holatlarda qo'llanilishi kerak bo'lgan umumiy qoidalarni ishlab chiqishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu qoidalarni yaratgan kishi yaratadi. Tayyor matematik qoidalarni qo'llagan har bir kishi bilimning boshqa sohalarida yangi qiymatlarni yaratishi mumkin. Matematika alohida qobiliyatlarni talab qiladi, degan fikr bor. Ammo matematikani o'qitish amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'quvchining matematik bilimlarni mazmunli o'rganishi uchun oddiy o'rtacha qobiliyatlar etarli. Ba'zan matematikada muvaffaqiyat oddiy yodlashga asoslangan deb o'ylashadi. Yaxshi xotira kerak, ammo har xil turdagi vazifalarni hal qilishning eng muvaffaqiyatli usullarini topish va vizual tasvirlardan foydalanish qobiliyati muhimroqdir. Mantiqiy, oqilona va izchil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ayniqsa qimmatlidir. Bu qobiliyatlarning barchasi matematikani ijodiy o'rganish jarayonida nostandart masalalarni yechish yoki turli adabiy manbalarda ham deyilganidek - ko'ngilochar, evristik, ijodiy, izlanish, muammoli, mantiqiy deb ataladi.

V.V.Drozina, V.L.Dilman "Nostandart muammolarni hal qilish uchun ijodkorlik mexanizmi" kitobida nostandart vazifaning quyidagi ta'rifini beradi - bu reproduktiv

usullar bilan aniqlab bo'lmaydigan o'ziga xos, ijodiy printsiptni o'z ichiga olgan vazifadir.

Nostandart vazifalarni hal qilish bevosita shaxsning ijodkorligi bilan bog'liq, bolalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun o'quv faoliyatining samaradorligi bunga bog'liq. Matematik qobiliyat - bu qizg'in va yaxshi tashkil etilgan ish. Muammolarni yechish qobiliyati matematikani o'rganishning asosiy vositasidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. (OO'Yu uchun darslik.) Toshkent. «Turon-Iqbol», 2016 yil. 426 b.
2. Jumayev M.E. va boshq. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent. 2005 yil.,
3. Nilufar Azamova va boshqalar. 1-sinf matematika darsligi. Toshkent. 2022 yil.
4. Nilufar Azamova va boshqalar. 2-sinf matematika darsligi. Toshkent. 2022 y.
5. Mahliyo Khaydarova. (2023). THE CONTENT OF TEACHING SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY CLASSES. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 45-48.
6. Mahliyo Khaydarova. (2023). IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL FACILITY TO TEACHING PEDagogy. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 49-
7. XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. (2022). THEORETICAL BASES OF PREPARATION OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR TEACHING THE SUBJECT OF EDUCATION. *Conference Zone*, 95–96.
8. XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. (2022). THE NEED TO TEACH THE SUBJECT OF EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. *Conference Zone*, 97–98.
9. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1781-1785.
10. Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF



**INTERNATIONAL CONFERENCE ON  
INTERDISCIPLINARY SCIENCE**

Volume 01, Issue 02, 2024

ENVIRONMENTAL SAFETY. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 792-797.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING ATROF-MUHITGA  
BO'LGAN MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISHDA TABIIY  
FANLARINING ZARURIYATI**

*Jumayeva Qizlarxon Farhod qizi*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi*

*(Boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitga bo'lgan munosabatini shakllantirishda tabiiy fanlarining zarurati haqida

**Kalit so'zlar:** Atrof-muhit, Boshlang'ich sinf, ta'sir, rivojlantirish, ekologik, faoliyat, ko'nikma, g'oya, imkoniyat.

**Annotation:** The importance of natural science in further expanding the thinking of primary school students about the environment.

**Key words:** The environment, elementary school, effect, development, ecological, activity, skill, idea, opportunity.

**Аннотация:** Значение естествознания в дальнейшем расширении представлений учащихся начальных классов об окружающей среде.

**Ключевые слова:** окружающая среда, начальная школа, эффект, разработка, экологический, активность, навык, идея, шанс.

Bugungi kunda atrof-muhit muammolari global va butun dunyoga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida atrof-muhit sohasidagi ta'lim masalasi alohida aniqliklarga ega. Tadqiqotlar va amaliyot shuni ko'rsatadiki, bolalar o'rganish uchun ilgari o'ylanganidan ko'ra ko'proq salohiyatga ega va shuning uchun erta bolalik sharoitlari o'rganish uchun yanada boy va qiyinroq muhitni ta'minlashi kerak. Bunday sharoitlarda, mohir o'qituvchilar rahbarligida, bolalarning dastlabki yillardagi tajribasi ularning keyingi o'rganishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, ilm-fan erta bolalik davrida ayniqsa muhim soha bo'lishi mumkin, bu nafaqat kelajakdagi ilmiy tushunish uchun asos yaratish, balki o'rganish uchun muhim ko'nikma va munosabatlarni shakllantirish uchun ham xizmat qiladi. Shu munosabat bilan bolalarning birinchi yilidan zamonaviy maktabda atrof-muhit sohasidagi ta'limga e'tibor berish va ularning o'rganayotgan bilim darajasiga diqqatimizni qaratishimiz kerak. Nima uchun bunchalik ahamiyatli va buning sababi nimada? Eng qiziqarlisi shundaki atrof-muhit ifloslanishi bilan bog'liq muammolarni o'z ichiga olib uni asrashimiz to'g'risidagi tushunchalar muhim ahamiyatga ega. Jamiyat va tabiiy muhitning o'zaro ta'siri ahamiyati bolalarda tabiatga mas'uliyatli munosabat shakllantirish vazifasini uyg'otadi. O'qituvchilar va ota-onalar maktab o'quvchilarini tabiatdagi xulq-atvor qoidalariga ko'ra bilishi muhimligini bilishadi.

O'quvchilarning atrof-muhitga bo'lgan bilimi juda tez rivojlanib bormoqda va uning pedagogik ijrosining shakllanish jarayoni ham tez o'sib rivojlanmoqda. Shu bilan birga, bolalarning o'quv va darsdan tashqari faoliyatining barcha shakllari va turlari yaqin atrofda bo'lishi kerak. Maktab yoshidagi bolalarning tabiatga mas'uliyatli munosabati uchun ishonchli asosni rivojlantirish imkoniyati to'g'risida gapirishga imkon beradigan noyob istedadli bilim va tajribalar orqali ajralib turadigan mukammal jarayon yaratish lozim. Boshlang'ich sinfning barcha o'quv turlari bolalarning ekologik javobgarligini shakllantirishga hissa qo'shish uchun yaratilgan. Shunday qilib, bola tabiatni tushunishni o'rganadi, uning go'zalligini his qilishni boshlaydi va siz o'rgatayotganingiz uchun siz ushbu fazilatni bolaligidan ajratishingiz kerak.

Atrof-muhitga bo'lgan bilimlar va madaniyat bir shaxsda erta yoshdan boshlab hosil bo'ladi. Va bu borada yosh maktab o'quvchilarining tabiiy fanga bo'lgan bilimi yuqori. Shuning uchun malaka ishining asosiy maqsadi, yosh maktab o'quvchilarining mavjud ekologik ta'limini tahlil qilish, uni "Atrofdagi dunyo" kursini o'rganish va ushbu mavzu bilan bog'liq ijtimoiy-pedagogik muammolarni tahlil qilishdir. Yoshlar bilan doimiy aloqada bo'lgan maktab o'qituvchisi doim o'z ustida ishlashi, atrof-muhitga oid ta'lim va yosh o'quvchilarni tarbiyalash muammosini hal qilishda yanada tubdan yondashuvning o'tkir zarurati bilan shug'ullanishi kerak. Ekologik ta'limning asosiy maqsadi: Bolaga tirik organizmlar o'rtasidagi atrof-muhit bilan bog'liqlik va jismoniy va ruhiy holatni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun bolaga yovvoyi tabiat qonunlari to'g'risida bilimlarini o'rgatadi. Ilmiy izlanishlar bolalarga aniq yoki bilvosita turli ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Quyidagi ana shunday ro'yhatlardan biri:

- Ob'ektlar va materiallar va hodisalarni o'rganish bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish;

- Faoliyat paytida ehtiyotkorlik bilan kuzatuvlar qilish maktab o'quvchilarining kognitiv, ijodiy, jamoat faoliyatini rivojlantirish,

- Oddiy tadqiqotlar bilan shug'ullanish jamoa bilan birgalikda,

- Ta'riflash (shakli, o'lchami, soni), taqqoslash, saralash, tasniflash va tartiblash.

So'zlar, rasmlar, diagrammalar va grafiklar yordamida kuzatishlarni yozib olish.

Kuzatishlarni kengaytirish uchun turli xil oddiy vositalardan foydalanish.

Shakllar va munosabatlarni aniqlash. Taxminan tushuntirishlar va g'oyalarni ishlab chiqish. Boshqalar bilan hamkorlikda ishlash ayni muddao. Fikrlarni baham ko'rish va muhokama qilish va yangi istiqbollarni ham tinglash lozim albatta.

Qanday ta'lim berish kerak? Maktabda mavjud bo'lgan bilimlarning umumiy tarkibi nimada? Yosh maktab o'quvchilarining ekologik tayyorgarligiga qanday talablar bor? Qanday qilib ta'lim berish kerak?

Dars turlaridan biri - tabiatga ekskursiyalar. Afsuski, ko'pchilik bolalar tabiat haqida juda cheklangan g'oyalari bilan maktabga kelishadi. Jamiyat va tabiiy muhitning o'zaro ta'siri ahamiyati bolalarda tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish vazifasini ta'minladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish ekologik ta'limsiz amalga oshmaydi. Masalan, sinfda tabiat burchagi yaratildi, u yerda gullarga g'amxo'rlik qilish paytida bolalar gullarni to'g'ri parvarish qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar, har bir gul o'ziga xos go'zalligi va g'amxo'rlikka muhtojligini bilib oladilar. Amaliy faoliyatda bolalarning individual namoyon bo'lishi ularning ekologik tarbiyasi va madaniyati darajasining ko'rsatkichidir. Odatda biz bolalarning e'tiborini gulzorlarga, daraxtlarga, qushlarga, yilning turli vaqtlarida sodir bo'ladigan o'zgarishlarga qaratamiz. Bolalar o'qituvchi yordamida kunning davomiyligi, ob-havo, o'simliklar va hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar to'g'risida xulosa chiqaradilar. Shuningdek, bolalarda kognitiv qiziqishni rivojlantirish uchun qum, yer, loy, qor, muz, suv xususiyatlari bilan tanishish bo'yicha muhim tajribalar o'tkaziladi. Bunday tajriba asosida biz kuzatilgan hodisaning sababini ochib beramiz, bolalarni mustaqil fikr va xulosalar chiqarishga o'rgatamiz. Muhokama va vakillik fanni o'rganish uchun juda muhim va tadqiqot jarayoni va ilmiy fikrlashni rivojlantirishning muhim qismidir. Kichik guruhlarda ham, katta guruhlarda ham munozara bolalarni boshidan kechirganlari haqida o'ylashga, boshqalarning tajribasini tinglashga va ularning g'oyalari haqida fikr yuritishga undaydi. Xuddi shunday, turli xil vositalar, jumladan, chizish, yozish va kollaj yordamida tasvirlash bolalarni diqqat bilan kuzatishga va vaqt o'tishi bilan o'z tajribalarini aks ettirishga, shuningdek, lug'at va til tuzilmalarini yaratishga undaydi. Bu jarayonda tabiiy materiallar bilan o'yinlar tashkil etiladi. Shuningdek, sayr qilish paytida didaktik o'yinlar o'tkaziladi, masalan: "Mevaga qiziqarli nom bering!", "Fasllar..", "Ta'rifi bo'yicha yashiringan so'zni toping!", "Agar bu sodir bo'lganda..." va boshqalar. Shamol bilan ishlaydigan o'yinchoqlar yordamida biz shamol yo'nalishi va uning kuchini aniqlashga harakat qilamiz. Biz o'quvchilarda atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishda ingliz tili va badiiy adabiyotdan ham samarali foydalanishga harakat qilamiz.

### **Xulosa**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga bo'lgan qiziqarli munosabatni shakllantirishda bayramlar va tadbirlarning roli juda ham katta. Bu kabi bayramlarda tanish bo'lgan san'at asarlari, sahna ko'rinishlar, she'rlarni yodlash va yangicha tajribali o'yinlar yaratish juda muhimdir. Bolalarga ekologik ta'lim berish bo'yicha ota-onalar bilan shlashda an'anaviy shakllardan foydalanilish o'rinlidir (ota-onalar yig'ilishlari, konsultasiyalar, suhbatlar va qo'shicha vazifalar aynan ota-onalar bilan birgalikda bajariladigan). Bunda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish muhim: "Daraxt eking", "Qushlarga yordam bering", "Ona tabiatini asraylik", "Fasllar

kelinchagi bahor”, “Oltin kuz” shunga oxshash tadbirlarda bolalar ota-onalari bilan birgalikda faoliyat olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar uchun ota-onalarining o‘rni va tabiatiga munosabati juda muhimdir. Bunday jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim sharti - bu kattalar shaxsiy namunasi bilan bolalarga tabiatga to‘g‘ri munosabatni namoyish etadigan va o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tabiatni muhofaza qilishda faol ishtirok etadigan muhitni yaratish. Ekologik ta‘lim o‘quvchilarga sinf devorlaridan tashqarida bo‘lgan haqiqiy dunyo muammolari bilan shug‘ullanish uchun muhim bo‘lgan imkoniyatlarni ochib beradi. Ular o‘zlarining sinfdagi mashg‘ulotlarining sayyoramiz oldida turgan murakkab ekologik muammolarga e‘tibor qaratishlari, kuzatishlari mumkin va keyinchalik kelajakda muammolarni ijodiy hal qilishi va kuchli himoyachilari bo‘lishi uchun ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi. Kaliforniya maktablari devorlarining birida shunday deyilgan; “Ekologik ta‘lim o‘quvchilarga, maktablarga va bizning kata dunyoimizga katta foyda keltiradi”!

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 27.07.2017 yildagi PQ-3151-son
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.07.2020 yildagi O‘RQ-630-son
3. Mahliyo Khaydarova. (2023). THE CONTENT OF TEACHING SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY CLASSES. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 45-48.
4. Mahliyo Khaydarova. (2023). IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL FACILITY TO TEACHING PEDAgogy. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 49-53.
5. XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. (2022). THEORETICAL BASES OF PREPARATION OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR TEACHING THE SUBJECT OF EDUCATION. *Conference Zone*, 95–96.
6. XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. (2022). THE NEED TO TEACH THE SUBJECT OF EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. *Conference Zone*, 97–98.
7. Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 792-797.
8. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2021). POSSIBILITIES OF AN INTEGRATIVE APPROACH TO THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. *European Scholar Journal*, 2(11), 43-44.
9. Xaydarova, M. (2023). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINIF

O‘QITUVCHILARINI TARBIYA FANINI O‘QITISH FAOLIYATIGA TAYYORLASH MAZMUNI. *Interpretation and researches*, 2(1).

10. Jahonova, X., & Xaydarova, M. (2023). TA’LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASI. *Interpretation and researches*, 1(1).

11. Turayev, A. (2023). TIMSS 2023 TADQIQOTIDA RAQAMLI TEST TOPSHIRIQLARINING TURLARI VA JAVOB FORMATLARI. *Interpretation and Researches*, 1(1).



## PIRLS XALQARO TADQIQOTI

*Jahonova Xolida G'anisher qizi*  
*Termiz davlat pedagogika instituti*  
*3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida yangi PIRLS-yondashuv dasturi haqida ma'lumotlar berilgan. PIRLS ta'lim tizimini o'rganish va tadbiq etishdagi jarayonlar. Ta'lim jarayoniga PIRLS ta'lim tizimining joriy etilishi natijasida kelajakda innovatsion iqtisodiyotni yaratish uchun zarur bo'lgan kasblarni egallashga zamin yaratishini namoyon etadi va kreativlik mohiyatini anglatishga zamin yaratadi.

**Kalit so'zlar:** PIRLS, ta'lim tizimi, bola, ertak, hikoya, PIRLS ta'limining afzalliklari .

**Аннотация:** В этой статье представлена информация о новом подходе PIRLS к образованию. Процессы изучения и внедрения образовательной системы PIRLS. В результате внедрения образовательной системы PIRLS в образовательный процесс показано, что она создает основу для приобретения профессий, необходимых для создания инновационной экономики в будущем, и создает основу для реализации сущности творчества.

**Ключевые слова:** PIRLS, образовательная система, ребенок, технология, преимущества PIRLS-образования .

**Abstract:** This article provides information about the new PIRLS approach to education. Processes of studying and implementing the PIRLS educational system. As a result of the introduction of the PIRLS educational system into the educational process, it shows that it creates a foundation for acquiring the professions necessary for creating an innovative economy in the future, and creates a foundation for realizing the essence of creativity.

**Key words:** PIRLS, educational system, child, technology, benefits of PIRLS education.

Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi butun dunyo bo'ylab ta'limni baholash, tushunish va yaxshilash bo'yicha ish olib boradigan milliy tadqiqot institutlari, tadqiqot agentliklari, olimlar va tahlilchilarning xalqaro hamkoridir. Mazkur notijorat va mustaqil tashkilot tarmog'ida 60 dan ziyod mamlakatlar hamda 100 dan ortiq ta'lim muassasalari ishtirok etmoqda. 1958-yildan buyon IEA o'quvchilarning matematika, tabiiy fanlar hamda o'qish salohiyati bo'yicha savodxonliklarini baholash jarayonida ta'lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar hamda maqbul tavsiyalar yaratishi bilan boshqa xalqaro tashkilotlardan ajralib turadi. PIRLS tadqiqotlari doirasida turli ta'lim tizimiga ega

bo'lgan davlatlar 4- sinf bituvchilarining o'qish sifati va o'qilgan matni tushunish darajasi o'rganiladi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o'quvchilarining tanlanishi shu bilan e'tiborliki, aynan o'qishning to'rtinchi yilida o'quvchilar o'qishning yuqori darajasiga ega bo'lishi, ularning keyingi ta'limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. Ko'pchilik davlatlarda bolalar 6 yoshdan maktabda o'qishni boshlashadi. Ammo Angliya va Yangi Zelandiyada ta'lim 5 yoshdan boshlanadi. Shuning uchun, loyihada 4-sinfdan emas 5-sinfdan o'quvchilar ishtirok etishadi. O'qish va matni tushunish sifati tekshiriladigan o'quvchilarning yoshi 10,5 yoshni tashkil etadi. Sharq mamlakatlarida bolalar 7 yoshdan o'qishni boshlagani uchun ulardan 10,7-10,9 yoshdagi o'quvchilar tadqiqotda ishtirok etishadi.

**PIRLS** (inglizcha: *Progress in International Reading Literacy Study*) — bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. PIRLS loyihasi Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA — International Association for the Evaluation of Educational Achievement) shafeligida yaratilgan. Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish uchun Chestnut Hill (Massachusetts, AQSh) Boston kolleji mas'ul hisoblanadi. Xalqaro tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Gamburgdagi (Germaniya) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi. Tadqiqot davriy ravishda - har besh yilda bir marta o'tkaziladi va hozirgacha besh marta: 2001, 2006, 2011, 2016 va 2021-yillarda o'tkazilgan.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. Tadqiqotda qatnashuvchilarni saralash bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda ishtirokchi davlatlarning milliy koordinatorlari Xalqaro muvofiqlashtirish markaziga mamlakatdagi barcha maktablarning (shahar, qishloq, qishloq) ro'yxatlarini yuboradilar. Keyin "tasodifiy sonlar usuli" yordamida maxsus dastur yordamida har bir mamlakatdan 150 ga yaqin maktab tanlanadi. Tadqiqotda ishtirok etish uchun xalqaro ekspertlar tomonidan tanlab olingan maktablar Milliy muvofiqlashtiruvchiga to'rtinchi sinf o'quvchilarining ro'yxatlarini sinflardagi ma'lumotlarga to'liq mos ravishda taqdim etadilar. 4-sinf o'quvchilari ro'yxati ma'lumotlar bazasiga kiritiladi va Xalqaro

muvoqiflashtirish markaziga yuboriladi. O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS tadqiqoti tomonidan o'qish savodxonligiga berilgan ta'rif IEA xalqaro assotsiatsiyasining 2001-yildagi tadqiqotiga asoslangan bo'lib, unda o'qish savodxonligi "tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan va yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyati" deb izohlangan. Har bir o'tkaziladigan tadqiqotda o'qish savodxonligiga nisbatan yuqorida keltirib o'tilgan ta'rif barcha yoshdagi o'quvchilar va keng turdagi yozma til shakllariga nisbatan qo'llanilishi mumkinligini, ammo bugungi texnologik jihatdan rivojlangan dunyoda soni tobora oshib borayotgan qator matnli ma'lumotlarni qabul qilish, maktabda va kundalik hayotda o'qib tushunish qobiliyatini qanchalik muhim ekanini teran his etadigan yosh o'quvchilarning o'qish ko'nikmasi va tajribalarining o'ziga xos jihatlarni yoritib berishni ta'minlash maqsadida qayta ishlab chiqilishini taqazo etadi. Endilikda, PIRLS xalqaro tadqiqoti tomonidan o'qish savodxonligiga nisbatan qo'llanilgan ta'rif quyidagicha: O'qish savodxonligi tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan va yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir. O'quvchi turli shakldagi matnlardan mazmun hosil qiladi. Ular o'rganish, maktab va kundalik hayotda o'zlari kabi boshqa o'quvchilar jamoasiga qo'shilish va vaqtini samarali o'tkazish uchun o'qiydilar. O'qish savodxonligiga nisbatan bildirilgan bunday yondashuv konstruktiv va interfaol jarayon sifatida o'qish savodxonligiga oid turli nazariyalarni aks ettiradi. Matn mazmuni muayyan o'qish tarzi asosida o'quvchi va matn o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik orqali hosil qilinadi. O'quvchi matndan anglashilgan ma'noni tez ilg'ab oladigan, matn ustida mulohaza yuritadigan, samarali o'qish strategiyasidan xabardor va o'qish ustida tafakkur qiladigan shaxs sifatida gavdalanadi. O'qish jarayonining boshlanishi, o'rtasi va oxirida o'quvchi til ko'nikmalarining, kognitiv va metakognitiv strategiyalar hamda mazmun shakllantirishda birlamchi bilim va ko'nikmalar majmuasidan foydalanadi. O'quvchi o'zini o'rab turgan dunyo va o'zi haqida tasavvurga ega bo'lishi uchun u turli matnlarni o'qib o'rganishi mumkin. Har bir turdagi matn o'quvchiga matnni talqin qilishiga imkon beruvchi sodda shakllar va qoidalardan iboratdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 27.07.2017 yildagi PQ-3151-son
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.07.2020 yildagi O‘RQ-630-son
3. Mahliyo Khaydarova. (2023). THE CONTENT OF TEACHING SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY CLASSES. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 45-48.
4. Mahliyo Khaydarova. (2023). IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL FACILITY TO TEACHING PEDagogy. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 49-53.
5. Xaydarova mahliyo xabibullayevna. (2022). Theoretical bases of preparation of future primary school teachers for teaching the subject of education. *Conference zone*, 95–96.
6. Xaydarova mahliyo xabibullayevna. (2022). The need to teach the subject of education in primary school. *Conference zone*, 97–98.
7. Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 792-797.
8. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2021). POSSIBILITIES OF AN INTEGRATIVE APPROACH TO THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. *European Scholar Journal*, 2(11), 43-44.
9. Xaydarova, M. (2023). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINI TARBIYA FANINI O‘QITISH FAOLIYATIGA TAYYORLASH MAZMUNI. *Interpretation and researches*, 2(1).
10. Jahonova, X., & Xaydarova, M. (2023). TA’LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASI. *Interpretation and researches*, 1(1).
11. Turayev, A. (2023). TIMSS 2023 TADQIQOTIDA RAQAMLI TEST TOPSHIRIQLARINING TURLARI VA JAVOB FORMATLARI. *Interpretation and Researches*, 1(1)

## PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Abdulhamidova Mohlaroyim*

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi*

*(boshlang'ich ta'lim) I kurs magistranti*

*Ilmiy maslahatchi: Mahliyo Xaydarova*

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik va kasbiy mahoratini oshirishda axborot texnologiyalaridasosida o'qitish tizimini ta'lim jarayoniga tatbiq etish natijasida yuksak natijaga erishish xorij tajribalarida ham isbotlanib bormoqda. Aynan axborotlashgan ta'lim jarayonini tashkil etishda ta'lim, o'qitish, o'qish, ta'lim qonuniyatlari, ta'lim tamoyillari, o'qitish metodlari, o'qitish shakllari, o'qitish vositalari, texnologiyalari kabi tushunchalarga tez-tez duch kelamiz.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik va kasbiy mahoratini oshirishda axborot texnologiyalari asosida o'qitish muayyan sohada mutaxassislar tayyorlash tizimidagi barcha fanlarni kompleks tarzda o'qitishga asoslangan, biroq, kompleks doirasida o'qish jarayoni uchun qat'iy belgilangan joy va vaqt mezonini shartli o'rnatilmagan ta'lim shaklidir.

Hozirgi kunda o'qitishning zamonaviylashuvi, tahsil olish jarayonini optimallashtirish va mustaqil ta'lim olish imkoniyatini oshirish maqsadida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni tatbiq etish butun oliy ta'lim jarayonida keng ommalashib bormoqda. Bu uchun esa ta'lim sharoitida o'qitish jarayonini to'liq loyihalash, o'rganish, o'rgatishning innovatsion usullari hamda qoidalarini individuallashtirish qolaversa, intellektuallashtirish, mustaqil bilim olish imkoniyatini oshirish, beriladigan yangi modifikatsion ma'lumotlarni insonparvarlashtirish, o'quv materiallarining mustaqil qabul qilinishi, qo'llaniladigan elektron vositalar kommunikativligi, zamonaviy va axborotliligi, bilim olish va mustaqil izlanishga nisbatan yuqori motivasiya uyg'otishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijiy davlatlarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik mahoratini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etish asosida o'qitish bo'yicha bir qator muassasalar va olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan va axborot texnologiyalari asosida o'qitish haqida turlicha fikrlarni bildirishgan.

Axborot texnologiyalari asosida o'qitish talabalar ta'lim jarayoniga xos bo'lgan barcha komponentlarni (maqsad, mazmun, usul, tashkiliy shakllar, vositalar)

internet texnologiyalaridan faol foydalangan holda masofadan turib amalga oshiriladigan o‘qitish shakli hisoblanadi

O‘qitishning maqsadi – o‘qitish jarayonining oldindan bashoratlanadigan natijasi va uning aniqlovchi komponenti hisoblanadi, maqsadlar asosan ta’lim mazmunini belgilaydi O‘qitish mazmuni – o‘qitish kurslarida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan o‘quv materiallari, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar.

Ta’lim usuliy materiallariga quyidagilar kiradi:

darslik, o‘quv, usuliy qo‘llanma va o‘quv-usuliy majmualar;

audio va video darsliklar;

onlayn darslar (Internet sayt);

elektron kutubxona;

testlar;

multimedia elektron darsliklar.

Axborot texnologiyalari asosida o‘qitish qonuniyatlari an’anaviy o‘qitish shaklida o‘rnatilgan asosiy qonuniyatlar o‘qitish jarayonida ham asosiy qonuniyat bo‘lib xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari asosida o‘qitish tamoyillari o‘qitish jarayonining maqsadlari va qonuniyatlariga muvofiq holda uning mazmuni, tashkiliy shakllari va metodlarini belgilovchi asosiy qoidalar jamlanmasi.

Axborot texnologiyalari asosida o‘qitish metodlari o‘qitish kurslarida ta’lim beruvchilar bilan ta’lim oluvchilarning ta’limiy maqsadlariga erishishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyat usullari.

Axborot texnologiyalari asosida o‘qitish vositalari o‘qitish kurslarida bilim olish yoki ko‘nikmalarni shakllantirish manbalari.

Axborot texnologiyalari asosida o‘qitish shakllari ta’lim jarayonini tashkil qilishning tashqi tomoni; tizimning eng tobe komponenti; chunki ta’limni tashkil qilish shakllari yuqorida sanab o‘tilgan hamma komponentlarga bog‘liq ravishda hal etiladi.

Axborot texnologiyalari asosida o‘qitish nazorati o‘qitish kurslarida ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini tekshirish, baholash va ularning muayyan davrda tegishli fanlar, modullar bo‘yicha ta’lim olganlik darajalarini aniqlab borish hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari asosida ta’lim texnologiyalari ta’lim oluvchi va pedagog xodimning to‘liq yoki qisman masofadan o‘zaro faoliyatida, asosan, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llab amalga oshiriladigan ta’lim texnologiyalari tushuniladi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari asosida o‘qitish ta’limning qator afzalligi shundaki, unda har kim qulay vaqtda, qulay manzilda, qulay muhit va sharoitda

bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sabab ham ta'lim sharoitida o'qitish bugungi kunga kelib dunyoda keng ommalashmoqda.

Qolaversa, bugungi kunga kelib O'zbekistonda ta'limni axborotlashtirish bo'yicha chiqarilayotgan qator farmon hamda qarorlar ham ta'lim jarayonida AT asosida o'qitishdan foydalanishning nechog'lik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 27.07.2017 yildagi PQ-3151-son
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.07.2020 yildagi O'RQ-630-son
3. Mahliyo Khaydarova. (2023). THE CONTENT OF TEACHING SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY CLASSES. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 45-48.
4. Mahliyo Khaydarova. (2023). IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL FACILITY TO TEACHING PEDagogy. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 49-53.
5. XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. (2022). THEORETICAL BASES OF PREPARATION OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR TEACHING THE SUBJECT OF EDUCATION. *Conference Zone*, 95–96.
6. XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. (2022). THE NEED TO TEACH THE SUBJECT OF EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. *Conference Zone*, 97–98.
7. Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 792-797.
8. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2021). POSSIBILITIES OF AN INTEGRATIVE APPROACH TO THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. *European Scholar Journal*, 2(11), 43-44.
9. Xaydarova, M. (2023). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF

O‘QITUVCHILARINI TARBIYA FANINI O‘QITISH FAOLIYATIGA TAYYORLASH MAZMUNI. *Interpretation and researches*, 2(1).

10. Jahonova, X., & Xaydarova, M. (2023). TA'LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASI. *Interpretation and researches*, 1(1).

11. Turayev, A. (2023). TIMSS 2023 TADQIQOTIDA RAQAMLI TEST TOPSHIRIQLARINING TURLARI VA JAVOB FORMATLARI. *Interpretation and Researches*, 1(1).



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM

*Hasanova Umida G'aybulla qizi*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika darsining integratsiyalashgan tarzda o'tishning ahamiyati, integratsiya so'zining mazmuni, dars jarayonidagi integratsiya, yanggi "Milliy o'quv dasturi" asosida nashrdan chiqqan darsliklarda integratsiyaning namoyon bo'lishi, integratsiya haqida turlicha qarashlar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Integratsiya, ta'lim, matematika, qarashlar, tadqiqot, boshlang'ich, bog'lanish, o'quvchi.

Hozirgi globallashuv jarayonida butun jahonda texnika-texnologiyalar jadal sur'atda rivojlanmoqda, shu bilan birga ta'lim jarayonida ham keskin rivojlanishni ko'rishimiz mumkin. Aynan yurtimizdagi ta'lim sohasidagi ko'plab yangiliklarni e'tirof etsak arziydi. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda natijaga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga ta'tiydigan o'zgarishlar bo'ldi, desak xato bo'lmaydi.

Ulug' donishmandlardan biri "...kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit" degan ekan.

Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilmoqda eng eng avvalo integratsiya so'zining o'ziga to'xtalib o'tamiz.

Integratsiya-lotinch "integra" umumiylikni to'ldirish, yaratish, tiklash, demakdir. Ta'lim mazmunidagi uyg'unliklarni ta'minlash muammolari ham integratsiyalashning shug'ullanadigan sohasi hisoblanadi. U tushunchalarni umumlashtirishni o'rgatish. Ta'lim va tarbiyada esa bilimlar, tushunchalar, ko'nikmalar, va malakalarni shakllantirishlarni umumlashtirib, qonun yoki qoida ko'rinishida keltirishni amalga oshiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida integrativ yondashuvni amalga oshirish tizim yoki mavjud shakldagi yaxlit ob'ektning ichki va tashqi aloqalari, uni tashkil etish va boshqarish qonuniyatlarini bilgan holda olib borilishi mumkin. Integrativ yondashuv mazmunan tutash, aloqador, mantiqiy birbirini taqozo etuvchi va birbiriga singib chuqurlashtiruvchi va kengaytiruvchi o'quv fanlarini integratsiyalash uchun qo'llanilib, yaxlit mantiqiy mukammal bilim, ishharakat usullari va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishni ko'zda tutadi. Agar XIX – XX asrlar orallo'ida jahon pedagogikasida A.Gerd, D.Kaygarodov, A.Pavlov singari olimlar boshlano'ich maktabni tashkil qilish, unda olamni anglash jonli va jonsiz predmetlar haqida yaxlit tushunchalarni shakllantirish orqali amalga oshirilsa,

o'quvchining biluv faoliyati samarali kechishi haqidagi o'z qarashlarini bayon qilgan bo'lsalar, Yan Komenskiy, D.Lokk, M.Pestalotsi, K.Ushinskiy qarashlarida ayni ta'lim samaradorligiga fanlararo aloqa vositasida erishish mumkinligi asoslandi. Ushbu qarash XX asrning oxirgi o'n yilliklariga qadar S.Baranova, N.Talizina, M.Lvov, N.Svetlovskaya, E.Koladin kabilar ishlarida ancha takomillashtirildi. Boshlano'ich ta'limdagi fanlararo va fanga oid tushunchalar aloqadorligiga tayanib ta'lim samaradorligiga erishish yo'llari, usul va vositalar XX asr oxiriga qadar Rossiyalik olimlar N.Drujinina, T.Nazarova, I.Blinova, R.Matyushova tomonidan keng ko'lamda tadqiq qilindi. XXI asrga kelib, fanlararo aloqa o'zaro yaqin tushunchalarga asoslanib, yoki aloqador mavzular doirasida ularning mohiyatini o'quvchiga tushuntirishda ta'limni tizimli yaxlitlashtirish, uzviylashtirish o'zaro mujassamlash asosida bilim berish – ta'lim mazmunini integratsiyalash muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda integratsiyalashgan ta'lim muammosiga boshlano'ich ta'limda ham jiddiy diqqat qaratilayotganligining sababini professorlar R.Mavlonova va N.Rahmonqulova "Boshlano'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi"(2009), "Boshlano'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" (2013) nomli o'quv qo'llanmalarida quyidagicha izohlaydilar: "O'quv predmetlari orasidagi integratsiya predmetlar tizimini inkor etmaydi, balki predmetlar orasidagi aloqalar va boo'liqliklarni chuqurlashtirishga qaratilgan yondashuv – differentsiya va integratsiya orasidagi munosabatni tushunishga tayanadi. Turli fanlarning element va qismlarini bir butunga birlashtirishga yo'naltirilgan integratsiya bir predmet bo'yicha bilimlarni ikkinchisiga ko'chirish yoki faoliyatning almashinishi emas, balki fanlar integratsiyasi yo'nalishlarini aks ettiruvchi yangi didaktik ekvivalentlarni yaratish jarayonidir.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkinki, ta'limda integratsiyani amalga oshirish ham iqtisodiy jihatdan, ham pedagogik, gigiyenik va fiziologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o'quvchining vaqti va kuchi tejaladi, zo'riqishning oldi olinadi. O'quv-bilish jarayonining samaradorlik darajasi ortadi Robert Karlosning aytishicha, boshlang'ich maktab faqat o'qish, yozish va sanashni o'zgartibgina qolmasdan, bundan ham muhimroq va kattaroq masalani amalga oshirishi kerak. Chunki har bir bola shakllantirish davrida uning intellektual faolligini rag'batlantirish, tabiiy qobiliyati singari uning keyingi muvaffaqiyatlari uchun juda muhimdir. Integratsiyalangan kurslarni shu yoshdagi bolalarga tushunarli va qiziq bo'lishi uchun bayon qilishning qiyinligini bartaraf etishning yo'llari amaliyotda tekshirilgan eng ma'qul uslublarni ishlab chiqishda hamda o'qituvchilar tayyorlashning maxsus tizimidadir. Darhaqiqat, integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish, psixologik jihatdan ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda qulay shart-sharoit vujudga keladi. O'quvchilar zarur va malakalarni,

tushunchalar hamda bilimlarni o'quv predmetlari mazunini uyg'unlashtirish natijasida har tomonlama chuqur o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 27.07.2017 yildagi PQ-3151-son
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.07.2020 yildagi O'RQ-630-son
3. Mahliyo Khaydarova. (2023). THE CONTENT OF TEACHING SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY CLASSES. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 45-48.
4. Mahliyo Khaydarova. (2023). IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL FACILITY TO TEACHING PEDagogy. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 49-53.
5. XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. (2022). THEORETICAL BASES OF PREPARATION OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR TEACHING THE SUBJECT OF EDUCATION. *Conference Zone*, 95–96.
6. XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. (2022). THE NEED TO TEACH THE SUBJECT OF EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. *Conference Zone*, 97–98.
7. Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 792-797.
8. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2021). POSSIBILITIES OF AN INTEGRATIVE APPROACH TO THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. *European Scholar Journal*, 2(11), 43-44.
9. Xaydarova, M. (2023). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O'QITUVCHILARINI TARBIYA FANINI O'QITISH FAOLIYATIGA TAYYORLASH MAZMUNI. *Interpretation and researches*, 2(1).
10. Jahonova, X., & Xaydarova, M. (2023). TA'LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASI. *Interpretation and researches*, 1(1).
11. Turayev, A. (2023). TIMSS 2023 TADQIQOTIDA RAQAMLI TEST TOPSHIRIQLARINING TURLARI VA JAVOB FORMATLARI. *Interpretation and Researches*, 1(1).
12. Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo, . (2023). IMPROVING VARIATIVE CONCEPTS IN TEACHING NATURAL SCIENCES IN PRIMARY EDUCATION. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(10), 22–30.

13. Sirojiddin Bobomurotov. (2023). MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING NATURAL SCIENCES BASED ON VARIATIVE CONCEPTS TECHNOLOGY. E Conference Zone, 39–46.
14. Erkin Babamuratov, Dzhuraeva Ulmashon, & Zhovliev Zhurabek. (2023). METHODS OF IDEOLOGICAL WORK FOR YOUTH WITH IDEOLOGICAL DEPRESSION. World Bulletin of Social Sciences, 27, 136-143.
15. Jorabek Jovliev. (2023). EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL AND GENERAL HUMAN VALUESTECHNOLOGY. Open Access Repository, 10(10), 51–55.

## O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA PIRLS HIKOYALARINI QO‘LLASH METODIKASI

*Hasanova Sabohat Komil qizi*

*Termiz davlat pedagogika institute talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘qish savodxonligi darslarida PIRLS hikoyalarini qo‘llash va uning ahamiyati haqida batafsil to‘xtalgan.

**Kalit so‘zlar:** dars, PIRLS xalqaro baholash dasturi, o‘qish savodxonligi, mantiqiylik, o‘qish va tushunish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari.

Rivojlanib borayotgan ta‘lim tizimimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta‘lim- tarbiyaga e‘tiborini kuchaytirishni talab etadi. Rivojlangan mamlakatlar yoshlar ta‘limining jamiyat taraqqiyoti va inson rivojlanishidagi o‘rnini muhim deb hisoblaydi. Shu bois ham ular ta‘lim sifatiga alohida e‘tibor qaratadi. Ayni davrda yurtimizda ham ta‘lim sohasidagi sifat tushunchasi ancha ommalashib ulgurdi. Kelajak yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, keng dunyoqarashini shakllantirish nafaqat muayyan bir mamlakat uchun, balki, xalqaro hamjamiyat uchun ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun ta‘lim sifati, ta‘lim sifatini baholash kabi masalalar bilan ko‘pgina xalqaro tashkilotlar ma‘lum bir talabgor davlatlarda ta‘lim sohasini baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, PIAAC, ICCS, SITES, IALS, ALL kabi xalqaro baholash dasturlarini amaliyotga tatbiq etishgan. Jumladan, PIRLS tadqiqotlarida O‘zbekistonning ham ishtirok etishi to‘g‘risida kelishuv imzolanganligi O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimini tubdan isloh qilishga zamin yaratadi va yosh avlodning intellektual faolligini oshirish, ularning ta‘limdagi kompetentligini va kreativligining rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Darslarga aniq maqsad qo‘yish, o‘quvchilarni turli xil metodlar orqali tashkillashtirish har bir o‘qituvchining kreativligini baholovchi asos hisoblanadi. Bu jarayonda xalqaro baholash dasturi talabiga mos topshiriqlarni bajarish ham o‘rinli. O‘qish darslarida PIRLS hikoyalaridan foydalanish, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi. PIRLS — bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. U o‘qish ta‘limini takomillashtirish uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma‘lumotlarni xalqaro

miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadi. Ko'p imkoniyatlarni rivojlantirishga xizmat qilayotgan bu baholash dasturi O'zbekiston ta'lim tizimida ham ahamiyatli deb topilgan va amalda qo'llash joriy etildi. Shunga binoan, hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular:

diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;

to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish;

kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish;

g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish.

PIRLS tadqiqotlari quyidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan:

- ta'lim sohasidagi dunyo ustuvorliklarini aks ettiruvchi obyektiv o'lchovlar va vositalarni ishlab chiqish;

- mamlakat o'quv jarayonini tashkil etish samaradorligini qiyosiy baholash;

- tadqiqot natijalariga ta'sir ko'rsatgan kontekstual omillarni aniqlash;

- xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan dalillarga asoslangan ma'lumotlarga ega bo'lish.

Tadqiqotda O'zbekistonning boshlang'ich sinf bitiruvchilari boshqa davlatlardagi tengdoshlariga nisbatan qanchalik darajada yaxshi o'qiydi? O'zbekiston o'quvchilarining o'qish savodxonligi qay darajada? O'qish 4-sinf o'quvchilari uchun sevimli mashg'ulotmi? Oila tomonidan savodxonlikni rivojlantirishga qanday hissa qo'shilmogda? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda o'qishni o'rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan? O'zbekiston o'qishni o'rgatish jarayonining boshqa davlatlarga nisbatan o'ziga xosligi bormi, agar shunday bo'lsa u nimada namoyon bo'ladi? Boshlang'ich sinflarimizning o'qituvchilari foydalanayotgan metodlar boshqa mamlakat o'qituvchilari foydalanayotgan metodlardan farq qiladimi? kabi asosiy masalalar o'rganiladi.

PIRLSga qatnashish O'zbekistonga boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida o'qish qobiliyatlari darajasini mustaqil ravishda obyektiv baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, O'zbekiston ta'limining ochiqligi va integratsiyalashuvi dunyoning

yetakchi ta'lim tizimlarining xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 27.07.2017 yildagi PQ-3151-son
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.07.2020 yildagi O'RQ-630-son
3. Mahliyo Khaydarova. (2023). THE CONTENT OF TEACHING SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY CLASSES. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 45-48.
4. Mahliyo Khaydarova. (2023). IMPROVEMENT OF METHODOLOGICAL FACILITY TO TEACHING PEDagogy. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 49-53.
5. XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. (2022). THEORETICAL BASES OF PREPARATION OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR TEACHING THE SUBJECT OF EDUCATION. *Conference Zone*, 95–96.
6. XAYDAROVA MAHLIYO XABIBULLAYEVNA. (2022). THE NEED TO TEACH THE SUBJECT OF EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. *Conference Zone*, 97–98.
7. Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 792-797.
8. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2021). POSSIBILITIES OF AN INTEGRATIVE APPROACH TO THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. *European Scholar Journal*, 2(11), 43-44.
9. Xaydarova, M. (2023). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O'QITUVCHILARINI TARBIYA FANINI O'QITISH FAOLIYATIGA TAYYORLASH MAZMUNI. *Interpretation and researches*, 2(1).
10. Jahonova, X., & Xaydarova, M. (2023). TA'LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASI. *Interpretation and researches*, 1(1).
11. Turayev, A. (2023). TIMSS 2023 TADQIQOTIDA RAQAMLI TEST TOPSHIRIQLARINING TURLARI VA JAVOB FORMATLARI. *Interpretation and Researches*, 1(1).
12. Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo, . (2023). IMPROVING VARIATIVE CONCEPTS IN TEACHING NATURAL SCIENCES IN PRIMARY EDUCATION. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(10), 22–30.

13. Sirojiddin Bobomurotov. (2023). MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING NATURAL SCIENCES BASED ON VARIATIVE CONCEPTS TECHNOLOGY. E Conference Zone, 39–46.
14. Erkin Babamuratov, Dzhuraeva Ulmashon, & Zhovliev Zhurabek. (2023). METHODS OF IDEOLOGICAL WORK FOR YOUTH WITH IDEOLOGICAL DEPRESSION. World Bulletin of Social Sciences, 27, 136-143.
15. Jorabek Jovliev. (2023). EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL AND GENERAL HUMAN VALUESTECHNOLOGY. Open Access Repository, 10(10), 51–55.



## Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish shakl va metodlari

*Eshpo'latova Jang'il Eshanqulovna*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*“Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrası o'qituvchisi*

**Annontatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida foydalanish lozim o'qituvchi vazifalari haqidagi kerakli ma'lumotlar va manbalar keltirib o'tilgan. Maqolada berilgan ma'lumotlar asosida o'qituvchilar va ota-onalar o'zilar uchun kerakli tavsiyalarni olishlari mumkin.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, metodika, tafakkur, kreativlik, belgi, mashq, fikrlash, ijodkorlik, fikrlash, erkinlik.

This article provides the necessary information and resources on teacher responsibilities that should be used to develop creative skills in primary school students. Based on the information provided in the article, teachers and parents can get the advice they need.

**Keywords:** education, methodology, thinking, creativity, character, exercise, thinking, creativity, thinking, freedom.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;
- 2) bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1) o'zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo'lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil

etilishi, ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirilishi va ta'lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, ta'lim jarayoni o'qituvchining to'liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan noto'g'ri fikrning tug'ilishiga asos bo'la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo'ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishga oid mexanizmgina bo'lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmazlik lozim. Bizningcha, o'quv vaziyati ta'lim jarayonini tashkil qiluvchi o'zgaruvchan tizim sanalib, u quyidagicha ikki qismdan iborat. O'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligi o'quvchilarning o'zaro bir-birlari bilan hamkorligi.

O'qituvchi bilan o'quvchilarning hamkorligi o'qituvchining o'quvchilarga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi. U asta-sekin faollashib o'quv harakatlariga aylanadi. Natijada, o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabati hamkorlik pozitsiyasiga o'sib o'tadi. Materiallar tahlilining ko'rsatishicha, mantiqiy topshiriqlar hamkorlikda bajarilgandagina bilimlarni o'zlashtirish mahsuldor bo'ladi. Ilmiy manbalarda ta'limning shunday tashkil etilishini hamkorlikdagi mahsuldor faoliyat vaziyati, deb atash qabul qilingan. Pedagogik adabiyotlar tahlili va ijodiy tajribalarimiz natijalariga ko'ra hamkorlikdagi mahsuldor o'quv faoliyati vaziyatini tashkil qilishning asosiy tamoyilini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir:

1. Ta'limda mazmunning izchilligi tamoyili. Unga ko'ra shaxs o'z faoliyatini muayyan maqsad asosida tashkil qilishida mazkur faoliyatning uzluksiz shakllanishi ko'zga tashlanadi.

2. O'qituvchi-o'quvchilar hamkorligining mustaqil ijodiy faoliyat bilan bog'liqligi tamoyili. O'quv jarayonida o'quvchilar bilan hamkorlik qilish katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning ta'limga qay darajada ixlos qo'yishi o'qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog'liq. O'qituvchi bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi muhitning to'g'ri uyushtirilishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni butun kuch va g'ayratini sarflashga undaydi. Bu o'zaro muloqotning shunday bir shaklidirki, bunda o'quvchi o'zini pedagogik ta'lim obyekti deb emas, balki mustaqil va erkin harakat qiluvchi shaxs deb biladi. O'qituvchining o'rganilayotgan fan bo'yicha qaysidir bir ma'lumotga aniqlik kiritish paytida o'quvchilarga yordam so'rayotganday murojaat qilishi hamkorlik faoliyatini yanada chuqurlashtiradi. O'quvchilarni o'rganuvchi va tarbiyalanuvchiga aylantirish o'qitish jarayonini muvaffaqiyatli olib borishninggina sharti bo'lib qolmay, balki ularni har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ham muhim shartidir. O'quvchi o'qitish va tarbiyalash jarayonining o'zidayoq bilim va tarbiya oluvchi shaxsga aylanadi. Sh.A.Amonashvili ta'lim jarayonida o'quvchi bilan hamkorlik munosabatini o'rnatish lozimligini ta'kidlab, shunday deydi:

«O`quvchining o`quv biluv faoliyati nafaqat qiziqarli o`quv materiali va uni tushuntirishning turli metodlari vositasida, balki pedagogning ta`lim jarayonidagi muomala xarakteriga ko`ra tartibga solinadi. Mehr, ishonch, hamkorlik, hurmat mavjud bo`lgan muhitda o`quvchi o`quv topshiriqlarini oson o`zlashtiradi. Yutuqlari, mustaqil fikri, ijodiy izlanishlari yuqori baholanayotganini ko`rgan o`quvchi yanada murakkab bo`lgan o`quv topshiriqlarini bajarishga intila boshlaydi». O`qitishda muammoli ta`limdan foydalanish ham, kreativ qobiliyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi. O`quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog`liq bo`lgan ta`lim metodlaridan evristik yoki tadqiqotchilik metodlari bilan birga o`quvchilarni ijodiy fikr “laboratoriyasi”ga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir. Muammoli ta`lim shu jihatdan bir qancha afzalliklarga ega:

1. U o`quvchilarni mantiqiy, ilmiy, didaktik, ijodiy fikrlashga o`rgatadi.
2. U o`quv materialini ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning e`tiqodga aylanishiga ko`maklashadi.
3. U odatda, ancha ta`sirchan bo`lib, chuqur intellektual his-tuyg`ular, shu jumladan ko`tarinki ruh, hissini o`z imkoniyatlari va kuchiga ishonch tuyg`usini vujudga keltiradi, shuning uchun u o`quvchilarni qiziqtiradi, o`quvchilarda ilmiy bilishga jiddiy qiziqishni tarkib toptiradi.
4. Haqiqat qonuniyatining mustaqil “kashf etilishi” olingan bilimlarni unutmasligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilingan bilimlar unutilgan taqdirda ham ularni tezda qayta tiklash mumkin.

Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar o`quvchilarning o`quv jarayoniga munosabati o`qituvchi va o`quvchilar o`zaro ta`sir jarayonining to`g`ri tashkil etilishi, o`quv materiallarini tanlash va tashkil qilish, bilimlarni o`zlashtirish jarayonini takomillashtirish usullariga, o`quv natijalariga qo`yiladigan baho tizimiga bogliqligini ko`rsatdi. Kreativlik va o`zaro hamkorlik bir-biriga mustahkam bog`liq. Zero, faqatgina yangicha yondashuv asnosida hamkorlik vujudga keladi va mana shu hamkorlikda ijodkorlik o`z ifodasini topadi. Pedagogik kreativlikni faqatgina yangilikka, tajribalar o`tkazishga intilish deb tushunmaslik kerak. Bu intilish sog`lom fikrning rasmiyatchilik ustidan g`alabasini ham ifoda etadi. Boshlang`ich sinf darslarida o`quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar ustida ishlash alohida o`rin tutadi. O`quvchi o`zi uchun qulay sharoitda hayotiy va o`quv tajribasiga tayanib og`zaki yoki yozma nutqi orqali fikrlash faoliyatini amalga oshiradi. Unda har bir fanning o`zi uchun noma`lum qirralari xususida o`qituvchi bilan faol hamkorlik qilish uchun ruhiy tayyorgarlik paydo bo`ladi. U mavzu yuzasidan berilgan savollarga tegishli javob qaytarish uchun mustaqil ijodiy izlanishlarga harakat qiladi. O`qituvchi bunday hamkorlik jarayonida o`quvchilarning kreativligini o`stirish bilan birga diagnostik vazifani

ham bajaradi, ya'ni o'quvchilarning qobiliyati, qiziqish doirasini aniqlaydi, kreativ iqtidorini chamalaydi. Kreativlikni rivojlantiruvchi topshiriqlar ustida ishlash jarayonida bu g'oyat muhimdir. Boshlang'ich ta'lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda. O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarni o'zgacha yondashuvli ya'ni kreativ bo'lishlariga erishishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarni o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi. «Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog'liq. Biroq, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O'nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik va ijodkorlik aynan bir xil ma'no anglatmaydi degan fikrga keldik. Chunki, ijodkorlik deganda barchaning ko'z o'ngiga ma'lum bir narsani ixtirosi, chizmasi va hokazolar kelishi mumkin. Lekin biz tadqiqotimizda kreativlikni, dars jarayonida berilgan vazifaga hech kimnikiga o'xshamas yo'l topish va uni ilmiy asoslay olish, yangicha fikrlash, uni tadbiiq eta olish qobiliyati deb oldik. Ya'ni biz tadqiqotimizda ta'lim sohasiga oid kreativlikni ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasini ko'rib chiqamiz. Kreativlik ijodkorlikka nisbatan kengroq tushuncha degan fikrga keldik.

### **XULOSA**

Avvalo, har bir dars jarayonini tashkil etilishida aniqlik bo'lishi muhim hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilarga erkinlikni, albatta, me'yorida ta'minlab berishi lozim. Bolaga, garchi u ishning ijobiy natijaga ega bo'lishiga ishonmasa-da, boshlangan ishni oxiriga etkazishi uchun imkoniyat yaratish lozim va kundalik daftar yuritib, unga bolada kreativ qobiliyat shakllanishini qayd etib borishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.

2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O,,zbekiston”, 2016 yil, 56 bet.
3. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo`yicha o`quv-uslubiy qo`llanma. :- Toshkent 2015,40 bet
4. Zhangil ESHPULATOVA. CRITERIA FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 1-5.
5. Eshpulatova Jang`Il Eshonqulovna. (2023). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF CREATIVE SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *International Journal of Pedagogics*, 3(03)
6. Ne`matov Bo`ritosh. “Boshlang`ich sinf o`qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish” diss. Avtoreferati. Termiz), 25–31.

## JAMIYAT HAYOTI VA UNING TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI VA ROLI

*Ramazonova Dilorom Raximjon qizi*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-kurs talabasi*

*Xazratkulova Shoira Noraliyevna*

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyat hayoti va uning taraqqiyotida ma'naviyatning o'rni va roli, ahamiyati haqida atroflicha to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga har qanday jamiyatning taraqqiyoti, avvalo, uning yetuk va barkamol avlodiga bog'liqdir, shunday ekan ushbu fikr tarix sinovida tasdiqlanib kelgan haqiqatdir. Ma'naviyat millatning asrlar davomida shakllangan ildizlari, uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy-madaniy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan aqliy intellektual va sobit hissiy dunyosi ekanligi ko'zda tutilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, milliy tarbiya, ma'naviyat, shaxs, barkamollik, axloq, barkamol avlod.

Tarixga nazar tashlasak, insoniyat tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat hayoti va taraqqiyotida ma'naviy soha nihoyatda muhim o'rin tutganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» acapida ma'naviyatning inson barkamolligida, jamiyat taraqqiyotida nechog'lik muhimligi xususida o'z fikr va mulohazalarini bildirib o'tgan. Asarda Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib, hayotga kirib borishiga bog'liqdir, deyiladi. Darhaqiqat, har qanday jamiyatning taraqqiyoti, avvalo, uning yetuk va barkamol avlodiga bog'liqdir. Ushbu fikr tarix sinovida tasdiqlanib kelgan haqiqatdir. Ma'naviyat millatning asrlar davomida shakllangan ildizlari, uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy-madaniy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan aqliy intellektual va sobit hissiy dunyosidir.

"Barkamollik-kamolot, balog'atga erishgan, beka mu ko'st, yetuk, mukammal, komil, ma'rifatli kishilarga nisbatan qo'llanadigan tushuncha. U insonning aqliy, ma'naviy, axloqiy jihatdan yetukligi, o'zi tanlagan kasb-hunarning ustasi bo'lishi, shaxs sifatida shakllanib, Vatan taraqqiyoti, el-yurt farovonligi uchun jon kuydirishi, ezgu g'oya va niyatlar bilan bunyodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishini ham anglatadi"[1].

Ulkan bir tizim bo‘lgan inson ma’naviy olamining huquq va axloq deb atalgan ikki atributi bor, bularsiz inson ma’naviy olamini tasavvur qilish mushkuldir. Bu ikki tushuncha insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatining asosini tashkil etadi.

Axloq va huquq insonlar o‘rtasidagi muloqot, o‘zaro munosabatni tartibga soluvchi talablar, qoidalar, me‘yorlar yig‘indisidir. Ulardan birinchisi axloq - bu insonga ham ma’naviy, ham jismoniy jihatdan foyda berib, iymon pokligiga erishtiradigan tushuncha. Axloq – o‘z hatti-harakati, kilmishi, yurish-turishi uchun ma’nan yetuk jamoatchilik oldidagi mas’uliyatini anglatadi, vijdon, tarbiya kabi me‘yorlar bilan belgilanadi.

Har qanday aqli raso kishi o‘zini o‘z hayoti, yaqinlari va yurtining kelajagi uchun mas’ul deb biladi. Mas’uliyat tushunchasi axloqning asosiy kuchi va tayanchidir, chunki aynan mas’ullik hissi bizni befarqlikdan himoya qilib, javobgarlikka undaydi.

Birinchi Prezident Islom Karimov ham «komil inson deganda, biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan boshqalarga ibrat bo‘la oladigan kishini tushunamiz», deb ta’kidlangan edi.

XXI asr – intellektual qadriyatlar ustivorlik qiladigan asr ekanligi hozirgi kunda hech kimga sir emas. Shuni e’tiborga olgan holda, 2010 yil hurmatli Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan mamlakatimizda «Barkamol avlod yili» deb e’lon qilingani bejizga emas edi. Yoshlar jamiyatning ijtimoiy tarkibida nisbatan mustaqil tuzilma bo‘lib, umuman, ijtimoiy tizimga xos qonuniyatlar unda muqarrar aksini topadi.

Shu nuqtai nazardan karaganda, biz tanlagan taraqqiyot yo‘lining tarkibiy qismiga, aniqroq aytadigan bo‘lsak, kelajagimizning mustahkam poydevoriga aylanib borayotgan ta’lim sohasidagi buyuk dasturlarimizni o‘z vaqtida, uzoqni ko‘zlab ishlab chiqqanimiz va amalga oshirganimiz naqadar to‘g‘ri bo‘lganini bugun mamlakatimiz erishgan yuksak marra va natijalar yaqqol namoyon etmoqda.

Shu bois, yoshlar ijtimoiy guruhlarining hayot faoliyati xususiyatlarining tadqiqi ularning ahvolini, rolini va faoliyat turlarini jamiyatimiz, o‘z navbatida, yoshlarga va ularning ma’naviyatiga ko‘p jihatdan ta’sir ko‘rsatishni hisobga olgan holda belgilaydigan ijtimoiy-iqtisodiy holatga doimo mos kelishi darkor.

Davlat va jamiyat yurtimizning kelajagi bo‘lgan, mana shu kelajakda adolatli, farovon hayotni bunyod etishi kerak bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy ongi, axloqi, ma’naviy barkamolligi qanday shakllanayotganiga befarq qarab turmaydi, albatta. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tarixiy jarayonlarning barcha sohalarida yoshlarni adolatli, xalqparvar, vatanparvar, mehnatsevar, boy ma’naviy merosimizga, tarixiy, milliy an’analarimizga, mustaqil Vatanimiz ideallariga sadoqatli qilib voyaga yetkazish bugungi kunda muhim ahamiyatga molik vazifa hisoblanadi. Endilikda yoshlar o‘z millati, xalqiga, qolaversa, o‘zi va oilasi

manfaatlari uchun erkin mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu muhim ijtimoiy o'zgarishlar mustaqil davlatimiz Konstitutsiyasida, O'zbekiston Fuqarolik kodeksi qonunlarida xalqaro kadriyatlarga muvofiq ravishda mustahkamlab qo'yildi.

Bularning barchasi yoshlarning yangicha tafakkurini, milliy, ijtimoiy ongini shakllantirishga xizmat qilyapti.

Yoshlarning aqliy qobiliyatlari va imkoniyatlarini yuzaga chiqarish muammosi, xullas, ularni ma'naviy kamol toptirish, mehnat faoliyatida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarini uyg'unlashtirish, Vatan taraqqiyoti ehtiyojlarini anglab yashash, mehnat qilishga o'rgatish barcha korxonalar, tashkilotlarning rahbarlari, hokimlar hamda mutasaddilarning aniq va muhim vazifasidir.

Yoshlarning jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy islohotlarni amalga oshirish jarayonlarida faol qatnashuvini rag'batlantirish, ularning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-nazariy salohiyatlarini o'stirish uchun zarur sharoitlar yaratib berish uchun, mustaqillikka erishib, ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirayotgan O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy ruhiyati shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganish, tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmokda.

Milliy g'oya, birinchi navbatda, yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur[2].

Yoshlar hayoti muammolari, yoshlarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotga kirib kelishi, jamiyat hayotiga faol aralashuvi faqat pedagoglar va psixologlarni qiziqtirib qolmay, balki faylasuflar, sotsiologlar, demograflar, yuristlarni ham qiziqtirib keladi. Insonshunos olimlar yoshlarning ijtimoiy psixologiyasi muammolarini tadqiq etish jarayonida taraqqiyot yo'llarining o'zgarishi, jamiyatda milliy an'analarning, halollik, adolat, gumanizm-insonparvarlik kabi qadriyatlarining qaror topishi muammolariga e'tiborni qaratadilar.

O'zbekiston Respublikasi chinakam mustaqillikni qo'lga kiritgach, o'z hayotining barcha sohalarini sifat jihatdan yangilash, dunyoviy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidan bormoqdaki, mamlakat Konstitutsiyasi o'zining huquqiy bazasi, milliy istiqloq mafkurasi esa yoshlarning ma'naviy barkamolligining asosi bo'lib qoldi.

Ushbu muhim vazifalarni amalga oshirish uchun jamiyat barcha a'zolarining, ayniqsa, bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar 10 mln 360 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 17 mln 80 ming nafarni yoki 64 foizini yoshlar tashkil etadigan yoshlarning kuch-g'ayratini safarbar etishni talab qiladi. Madaniyat ma'naviyatini, rivojlanishning intellektual boyliklarini bo'lajak jamiyat a'zolari ongiga joylash aynan yoshlarning vazifasidir. Yoshlar bunday mas'uliyatli vazifani bajara olishi



uchun O‘zbekistonda uning erkin rivojlanishi hamda mehnat faoliyati uchun qulay imkoniyatlar yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risidagi Qonuning 5-moddasida “Qonun bilan yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashni; yoshlarning hayoti va sog‘ligini saqlashni; yoshlarning ma‘naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashishni; yoshlar uchun ochiq va sifatli ta‘limni ta‘minlashni; shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharit yaratish” qayd etib o‘tilgan. Bu qonunning asosiy yo‘nalishlari esa yangi vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishga yordamlashadigan ilmiy metodologiyani ishlab chiqishga asos bo‘ladi[3].

Bunday yo‘nalish yoshlarning ma‘naviy barkamolligi, uning ijtimoiy vazifasi to‘g‘risidagi tasavvurlarni tubdan o‘zgartirib yubordi. Jamiyatimizning ma‘naviy yangilanishi inson turmush tarzida ham, ma‘naviy barkamolligida ham chinakam global o‘zgarishlar qildi. Yangicha fikrlashga, yoshlarning ma‘naviy barkamolligini shakllantirishga yo‘l ochildi. Bu hol umumiy taraqqiyotning hamda aholi farovonligini oshirishning juda muhim sharti bo‘lgan yoshlarning umumiy malakasini oshirish masalasini hal qilishda ko‘p jihatdan ko‘maklashadi.

Xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshqalarga hech o‘xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o‘zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo‘ladigan bir qator o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘ramiz.

Misol uchun, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma‘no-mazmun bilan boytadigan va to‘ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g‘alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o‘zi mushkul bir muammo.

Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir shunchaki o‘ylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan so‘zlar emas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma‘naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan ongu shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarining amaliy ifodasidir.

Masalan, ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasini oladigan bo‘lsak, uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari borligini ko‘rish mumkin. Bu, avvalo, insonning inson bilan, qo‘shnining qo‘shni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg‘un bo‘lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga saxovat ko‘rsatish, sidqidildan, beg‘araz yordam berishni anglatadi va bunday xususiyat xalqimizning, jumladan, yoshlarimizning ma‘naviy olamiga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi.

Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepoyon mintaqada qanday hamjihat bo‘lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo‘lsa, bugun ham, ta’bir joiz bo‘lsa, tarix va hayot gardishi, tabiatning o‘zi bizni - butun O‘rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do‘stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da’vat etmoqda. Xullas, Mustaqillik yillarida bosib o‘tgan yo‘limiz bizni insoniylik ruhi bilan sug‘orilgan, bozor munosabatlariga asoslangan fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlatni faqat ilg‘or ma’naviyatning mustahkam poydevori negizida qurish mumkinligi to‘g‘risida xulosa chiqarishimizga asos beradi.

Bir so‘z bilan aytganda, tarixiy voqelikka mana shunday qarash, jamuljam bo‘lib yashash tuyg‘usi biz uchun hayot falsafasiga, yana ham aniqrog‘i, hayot qoidasiga aylanib ketgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ma’naviyat asosiy tushunchalari izohli lug‘ati. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 2009. 64-b.
2. “Kelajak yoshlar qo‘lida”. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlaridagi Barkamol avlodni tarbiyalashga oid hikmatli fikrlar majmuasi. T.: “O‘zbekiston”, 2010, 35-bet.
3. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2016 y 15 sentabr.
4. Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisiga murojaatnomasi. “Xalq so‘zi”. Toshkent. 2021.30.12. № 276 (7778).
5. Mukhtarova L.A. Ways of formation of ecological culture in children of primary age // AJMR:Asian Journal of Multidimensional Research Journal. Vol 10, Issue 4, April, 2021. - Pp 648-652. (Impact Factor 7.699).
6. Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 792-797.
7. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2021). POSSIBILITIES OF AN INTEGRATIVE APPROACH TO THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. European Scholar Journal, 2(11), 43-44.

8. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1781-1785.
9. Мухтарова, Л. А. (2018). Пути Использования Возможностей Мультимедиа В Повышении Качества И Эффективности Уроков Чтения В Начальных Классах. *Научные горизонты*, (11-1), 247-252.
10. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие И Формирования Критического Мышления У Школьников Начальных Классах. *Гуманитарный трактат*, (24), 13-14.
11. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. *Гуманитарный трактат*, (24), 9-10.
12. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Open Access Repository*, 4(02), 81-84.
13. Lobar Mukhtarova, & Shahnoza Isakova. (2023). METHODOLOGY OF SPEECH DEVELOPMENT OF VISUALLY IMPAIRED STUDENTS. *Academia Repository*, 4(10), 360–371. Retrieved from
14. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna, & Saidakhmatova Nafisa Soatmurod kizi. (2023). DEVELOPMENT OF READING UNDERSTANDING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Academia Science Repository*, 4(04), 18–22. Retrieved from
15. Khazratkulova Shoira Noraliyevna. (2022). USE OF MODERN TEACHING METHODS IN EDUCATION OF STUDENTS IN PRIMARY SCHOOLS. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 8(2), 123–126. Retrieved from
16. Sh. N. Khazratkulova. (2023). EDUCATION DIRECTED TO STUDENTS IN TEACHING THE SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY GRADES

DISTINCTIVE ASPECTS. *Academia Science Repository*, 4(04), 644–646.

Retrieved from

17. Hazratkulova, S., & Abdiraxmonov, S. (2023). ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYANING O'RNI. Interpretation and researches, 2(1).

18. Хазраткулова Ш.Н. «Совершенствование методов воспитания на занятиях в начальных классах». Международной научно-практической конференции. АЭТЕРНА. УФА. 1 августа 2022 г.

19. Sh.N.Hazratkulova "Boshlang'ich sinflarda tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar" Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: innovatsiyalar, muammolar va rivojlanish istiqbollari. Том 2 № 1 (2023) 855-859-с.

<https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/issue/view/14>

20. Nafisa Saidakhmatova, & Lobar Mukhtarova. (2023). THE SIGNIFICANCE OF A ARTWORK IN THE FORMATION OF LEARNING SKILLS. *Academia Science Repository*, 4(04), 176–180. Retrieved from

21. Pardayeva Gulbahor Jalgashevna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF TEACHING NATURAL SCIENCES BASED ON STEAM TECHNOLOGY. *World Bulletin of Social Sciences*, 21, 109-111. Retrieved from

22. Gulbahor Pardayeva. (2023). THE IMPORTANCE OF STEAM TECHNOLOGY AND ITS USE IN TEACHING NATURAL SCIENCES. *Academia Repository*, 4(10), 18–23. Retrieved from

23. Daminova Dilbar Melimurodovna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF FORMING MATHEMATICAL LITERACY SKILLS OF PRIMARY SCHOOL PUPILS. *Open Access Repository*, 4(3), 971–976.

24. Shonazarova , S. . . (2023). BOSHLANG`ICH SINFLARDA TABIIY GEOGRAFIK FANLARNING NAZARIY MUAMMOLARI. Наука и технология в современном мире, 2(22), 4–6. <https://in-academy.uz/index.php/zdift/article/view/22756>
25. Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. World Bulletin of Social Sciences, 27, 6-9. Retrieved from
26. Erdanova Zamira Olimovna. (2023). ILLUMINATION OF THE PROBLEM OF USING THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. World Bulletin of Social Sciences, 27, 13-17. Retrieved from
27. Erkin Babamuratov, Dzhuraeva Ulmashon, & Zhovliev Zhurabek. (2023). METHODS OF IDEOLOGICAL WORK FOR YOUTH WITH IDEOLOGICAL DEPRESSION. World Bulletin of Social Sciences, 27, 136-143.
28. Jorabek Jovliev. (2023). EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL AND GENERAL HUMAN VALUESTECHNOLOGY. Open Access Repository, 10(10), 51–55.
29. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
30. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

## PEDAGOGICAL CONTENT OF DEONTOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

*Nusratov Anvar Nematjonovich*

*Associate Professor of Bukhara State Pedagogical Institute*

*Tosheva Gulshoda Kamolovna*

*Master's student of the 1st stage of pedagogy and psychology at the International  
University of Asia*

**Abstract:** This article is devoted to the deontological preparation of future teachers for professional activities. The article considers issues of working with children, health-saving school conditions and deviant behavior in patriotic education. The deontological preparation of aspects and directions of the university's activity on the formation of the main future teachers will be discussed.

**Key words:** deontology, readiness, professional training, professional duty, self-awareness, consciousness, compliance with ethical principles, spiritual and intellectual development of students, rather than personal goals. spiritual and intellectual development,

**The main part:** "deontology" (Greek deon, ontos - necessary; logos - word) is an explanation of morality, the science of ethics. The term "deontology" was first introduced by Bentham, who applied to the theory of ethics. Jeremy (Jeremiah ) Bentham - (1748-1832) English philosopher, jurist, one of the founders of the University of London. Organizer and economist, in the field of science, he is famous for developing one of the narrow directions of the theory of utilitarianism (utilitas - useful) puts forward the theory that action should be evaluated in terms of the benefits it brings to people. According to his theory, at the age of 21, I. Bentham left a will that after his death, his body should be transferred to anatomical experiments. I. Bentham called his concept "deontology". In the USSR, this direction has been known since the revolution of 1917, rejecting the entire "heritage of the royal system", under the threat of punishment, the government prohibited the existence of ethics, which is the most important component of any science, including medicine. "Throwing well-known medical ethics into the trash can: only criticism and self-criticism are the basis of the work of a Soviet doctor," he said. At that time, there were many people with similar views in different fields of science. But medicine cannot be imagined without ethics. In 1946, the founder of Soviet oncology, Nikolai Nikolayevich Petrov, wrote a book on surgical ethics. 70-year-old N.N. Petrov realizes that it is impossible to publish a book on ethics in the USSR and replaces the term "ethics" in the manuscript with the unknown term "deontology". N.N.

Petrov's contemporaries and students wrote in their memoirs: "Nikolai Nikolaevich clearly understands that if his replacement is found, he will not return from the camps, but he took a risk. Censor N.N. It turned out to be less knowledgeable than Petrov, and the book burned out ". Nowadays, a term has appeared that is used not only in medicine, but also in other sciences that consider various aspects of the activity of the "person-person" system.

Deontological competence is based on pedagogical content, teachers' adherence to laws and ethical principles. This content takes place in mastering the advice and decisions of teachers, in treating students fairly and conscientiously, in paying attention to the spiritual and intellectual development of students rather than personal goals.

The following important points for teachers are included in the pedagogical content of deontological competence:

1. Adherence to ethical principles: Teachers must commit themselves to complying with laws and ethical principles. They should pay attention to fair treatment of students, protection of their rights and effective teaching.
2. Spiritual and intellectual development of students: Teachers strive to provide academic, spiritual and social opportunities to actively support students, develop and expand themselves.
3. Spiritual and intellectual development of students rather than personal goals: Teachers should consider themselves competent for the spiritual and intellectual development of students. They should avoid harming students rather than personal goals.

**Conclusion:** In the pedagogical content of deontological competence, these points are essential for teachers and help them to be successful in advising students, developing them and protecting their rights.

#### References:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқув кўлл. -Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси, 2006. -159 б.
2. Ахмедова М.Т. Педагогик компетентлик. Услубий кўлланма. -Т.: БРОК СЛАСС СЕРВИС, 2016. – 84 б.
3. Ахмедова М.Т. Педагогик конфликтология. Ўқув кўлланма. -Т.: Адабиёт учкунлари, 2017. – 320 б.
4. Зиёмухаммедов Б. Педагогик маҳорат асослари. Ўқув кўлл.-Т.: ТИБ-КИТОБ, 2009. -183 б.

5. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий копетентлигини шакллантириш технологияси. Монография. -Т.: Фан ва технологиялар, 2013.
6. 6. Муслимов Н.А. ва бошқалар. Профессиональная компетентность будущего учителя: теория и технология обучения Учебное пособие . -Т.: ТДПУ, 2014
7. Холиқов А. Pedagogik mahorat. Darslik-Т.: Iqtisod-moliya, 2011. - 420 б.
8. Кертаева Г.М. Основы педагогической деонтологии. 2019. 6-40 б.



## PRINCIPLES OF USING THE DUAL EDUCATION SYSTEM IN THE TRAINING OF EXPERT PERSONNEL IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

*Nusratov Anvar Nematjonovich*

*Associate Professor of Bukhara State Pedagogical Institute*

*Isoqova Shaxnoza Shuxrat qizi*

*Master's student of the 1st stage of pedagogy and psychology at the International  
University of Asia*

**Abstract:** Today, the training of specialists in our country is becoming a major problem. Measures aimed at preventing this actual problem are increasing day by day. In this article, discussions and proposals aimed at solving the problem of developing the education system using the dual education system are presented.

**Keywords:** Professional staff, dual education, Practical training, Work-related training, Coordinated training programs, Mentoring and planning, Industry cooperation

**Main part:** A specialist is a concept that represents a person or group of people who possess the morale, knowledge and skills and specialize in a field or fields. Specialist personnel are persons who are prepared to perform tasks in the specified field with their specific knowledge and skills and who strive to develop skills.

Specialist personnel are individuals who are highly qualified in their field, easily adapt to new developments, and have a high level of experience and knowledge to solve problems. Constant learning and interaction is important to improve their skills and knowledge of their fields.

Professional staff, up-to-date in their field, adept at finding solutions that fit the industry's requirements, and strengthen their commitment to industry development. Their interest and talent for self-development and learning new knowledge will help them solve problems and tasks in the field.

In addition, professional personnel constantly collaborate with teachers, mentors or other professional contacts to learn and develop innovations in their field. It is important that they participate in a continuous learning process to develop knowledge and skills that are relevant to the innovations in the field.

The existence and development of specialist personnel in every sphere of society are the most important conditions for the adoption of innovations and their successful implementation in practice.

*The main principles of using the dual education system in the training of specialist personnel are as follows:*

- ✚ Practical training: The dual education system plays an important role in the training of specialist personnel through practical training. Students will have the opportunity to put theoretical knowledge into practice and will be able to get acquainted with, strengthen and develop practical work for their mastery.
- ✚ Work-related training: The dual education system gives students the opportunity to gain practical experience through work-related training. These experiences help students get to know the industry, improve their skills in practice, and carry industry-related knowledge.
- ✚ Coordinated educational programs: Dual education system provides coordinated educational programs for the training of specialist personnel. These programs combine theoretical and practical knowledge to help equip students with the necessary knowledge and skills to meet the demands of the industry.
- ✚ Mentoring and Planning: Dual education system provides students with mentoring and planning opportunities. This provides additional support for educational pathways designed in conjunction with personal development for students.
- ✚ Collaboration with the industry: The dual education system enhances collaboration with the industry and gives students the opportunity to collaborate with companies, institutes or other organizations in the industry. This will help students stay up-to-date with industry news, gain hands-on experience, and develop professional connections.

The regulation on the procedure for establishing a dual system of training in professional education of the Republic of Uzbekistan is approved. According to the regulations, in the implementation of dual education, the Constitution and laws of the Republic of Uzbekistan, decisions of the chambers of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, decrees, decisions and orders of the President of the Republic of Uzbekistan, decisions and orders of the Cabinet of Ministers, other legal documents, does.

Professional educational institutions where dual education is organized are determined by the Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of Uzbekistan. The possibilities of educational institutions, where dual

education is planned, can be studied with the participation of experts appointed by the Ministry of Higher and Secondary Special Education.

**Conclusion:** The use of the dual education system is important for familiarizing specialists with practical work, introducing them to innovations in the field, and developing their skills through coordinated training programs.

**References:**

1. Zimnyaya I.A. Shaxsning kompetentsiyasi – ta’lim natijasini yangi sifati // Ta’lim sifati muammolari. kitob XII Butunrossiya materiallari- Uchrashuv. – M.; Ufa: Mutaxassislarni tayyorlashda sifat muammolari tadqiqot markazi, 2003.-B.4-13
2. Novikov A.M. Ta’lim metodikasi.M.: EGVES, 2006.-492 b.
3. Maxmutov M. I. Ta’limning kasbiy yo’nalishi printsipi / Zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotda ta’lim tamoillari // Universitetlararo ilmiy ishlar to’plami.- Chelyabinsk, 1985.—S .52-56
4. <https://m.kun.uz/uz/news/2020/08/29/ozbekiston-professional-talimida-oqitishning-dual-tizimini-tashkil-etiladi>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-dualnoy-sistemy-professionalnogo-obrazovaniya-na-kachestvo-podgotovki-obuchayuschih-sya-organizatsiy-spo>

## OLIV TA'LIMDA PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNING AHAMIYATI

*Omonboyeva Meruyert Erkin qizi*

*“Boshlang'ich ta'lim” kafedrasi o'qituvchisi, NavDPI*

*Kamalova Dilnavoz Ixtiyorovna*

*“Fizika va astronomiya” kafedrasi professori, NavDPI*

Bugungi kunda ta'lim tizimida kompetentlik atamasi ko'p ishlatilmoqda. “Kompetentlik” so'zining ma'nosi ingliz tilidan “competence” – “qobiliyat” degan ma'noni anglatadi. Kompetentlik – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish qobiliyati hisoblanadi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik” ni anglatadi. Kompetensiya – sohaga oid bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar majmui, shaxsning qadriyati va sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati.

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olishni anglatadi.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko'nikma, malakalarni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.


Ular o'zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

✓ psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

- ✓ metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;
- ✓ informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;
- ✓ kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;
- ✓ innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tadbiq etish;
- ✓ kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.
- ✓ shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘shishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.
- ✓ texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.
- ✓ ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan) da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.


Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan.

Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O‘z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligini qayd etadi (1-rasm).



1-rasm

O‘zbekiston sharoitida ham pedagogga xos kasbiy kompetentlik, uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan bo‘lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi (2-rasm):



2-rasm

Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlanti-rish. Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi. O‘z ustida ishlash – shaxs yoki mutaxassis tomonidan o‘zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo‘lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etish muhim hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Д.И.Камалова, Н.Ф.Буранова, У.Б.Саидова. “Астрономический кружок – путь к повышению уровня знаний учащихся”. “Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы” научный журнал. Январь. 2015. №1(10).
2. Д.И.Камалова, Г.Турлибаева. “Современные инновационные методы в подготовке будущего учителя”. “Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы” научный журнал. Таганрог. 2016. №2(17).
3. D.I.Kamalova, Sh.M.Mansurova, M.E.Omonboyeva. “Technique of laboratory works in physics using information technologies”. “Science and education”. July. 2020. Volume 1. Issue 4. pp. 145-148.
4. D.I.Kamalova, M.A.Quvvatova, G.V.Mardonova. “Современные методы преподавания и проведения лабораторных занятий в педагогических вузах”. International scientific-online conference “Innovation in the modern education system”. Washington, USA. Part 12. November 25. 2021. pp. 207-211.

5. D.I.Kamalova, Y.O'.Mardanova. "The role of pedagogical competencies in improving technical knowledge of students in the higher education system". International scientific-online conference "Innovation in the modern education system". Washington, USA. Part 12. November 25. 2021. pp. 434-437.
6. D.I.Kamalova, L.X.Turabova. "Fizika fanini o'qitishda elektron o'quv qo'llanmalardan foydalanishning ahamiyati". "Polish science journal" International scientific journal. Warsaw, Poland. Issue 4(37). April. 2021. pp. 222-225.
7. Л.Н.Музаффарова, Д.И.Камалова. "СВЯЗЬ МАТЕМАТИКИ С ЕСТЕСТВЕННЫМИ НАУКАМИ". "Science and education". April. 2021. Volume 2. Issue 4. pp. 593-603.
8. D.I.Kamalova, Y.O'.Mardanova. "Elektron ta'lim muhitida talabalarning texnik bilimlarini rivojlantirishda pedagogik kompetensiyalardan foydalanish". "Zamonaviy ta'limda matematika, fizika va raqamli texnologiyalarning dolzarb muammolari va yutuqlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent. 4-5 noyabr. 2021. 321-324 bet.
9. D.I.Kamalova, Y.O'.Mardanova. "Nutzung pädagogischer kompetenzen beim entwicklung technischen wissens von studierenden im e-learning-umfeld". "Berlin Studies" transnational journal of science and humanities. Germany. Volume 1. Issue 1.5. November. 2021. pp. 405-411.
10. D.I.Kamalova, S.O.Hamidova, M.N.Kubayev. "Methodology of teaching physics with innovative methods". "Innovative society: Problems, analysis and development prospects" International conference. Germany. February 7. 2022. pp. 168-169.
11. D.I.Kamalova, S.O.Hamidova, O.D.O'rinova, M.E.Omonboyeva. "Elektron o'quv adabiyotlarini ishlab chiqish jarayonlari". "Science and innovation" International scientific journal. Volume 1. Issue 8. November. 2022. pp. 318-321.
12. D.I.Kamalova, I.R.Kamolov, M.E.Omonboyeva. "Methodology of application of innovative educational technologies to the process of physics and astronomy education". "International Journal of Early Childhood Special Education". (INT-JECSE). DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.267 ISSN: 1308-5581 Volume. 14. Issue. 06. 2022. pp. 2144-2146. Web of Science.
13. D.I.Kamalova, M.E.Omonboyeva. "Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy prinsip va qoidalari". "Science and innovation" International scientific journal. Volume 1. Issue 8. December. 2022. pp. 1989-1992.

14. D.I.Kamalova, S.O.Hamidova. "PISA dasturi – o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha Xalqaro dastur". "O'qituvchi" ilmiy, uslubiy, metodik va badiiy jurnal. Farg'ona. №7(27). Mart. 2022. 51-54 bet.
15. D.I.Kamalova, O.D.O'rinoва, S.O.Hamidova. "Fizika fanini o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati". "Science and innovation" International scientific journal. Volume 1. Issue 8. December. 2022. pp. 1745-1747.
16. D.I.Kamalova, M.E.Omonboyeva. "O'quv jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati". "Science and innovation" International scientific journal. Volume 1. Issue 8. December. 2022. pp. 1974-1977.
17. D.I.Kamalova. "AutoPlay dasturidan foydalanib elektron o'quv uslubiy majmua yaratish va undan ta'lim samaradorligini oshirishda foydalanish". "Science and innovation" International scientific journal. Volume 1. Issue 8. December. 2022. pp. 1978-1981.
18. D.I.Kamalova, S.O.Hamidova, N.Q.Ibragimova. "PISA – advantages of the international program". "Science and education" scientific journal. April. 2022. Volume 3. Issue 4. pp. 1051-1054.
19. D.I.Kamalova, S.N.Abdisalomova. "Zamonaviy innovatsion ta'lim". "Journal of universal science research" International scientific journal. Volume 1. Issue 1. 2023. pp. 187-189.
20. D.I.Kamalova, F.O.Nabiyeva. "O'qitish jarayonida o'quv faoliyatining tarkibi va tuzilishi (Elektromagnetizm bo'limi misolida)". "Ta'lim fidoyilari" Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. №1. 2023. 380-385 b.
21. D.I.Kamalova, S.N.Abdisalomova. "Zamonaviy axborot texnologiyalari". Conference on universal science research 2023. Volume 1. №1. 2023. pp. 76-79.
22. D.I.Kamalova, A.N.Umarova. "Zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish". "Ijodkor o'qituvchi" ilmiy-uslubiy jurnali. №34. 5-dekabr. 2023. Toshkent. 67-68 bet.
23. D.I.Kamalova, O.D.O'rinoва, S.O.Hamidova. "Mustaqil ta'limni tashkil etish va unga qo'yiladigan talablar". "Journal of universal science research". Volume 1. Issue 1. 17 january. 2023. pp. 182-186.
24. D.I.Kamalova, A.N.Umarova. "Professional ta'lim tizimini rivojlantirish zarurati va fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyatlari". "Новости образования: Исследование в XXI веке". №17(100). Россия. Январь. 2024. Часть 1. 10-11 стр.



25. D.I.Kamalova, M.E.Omonboyeva. “Ta’lim tizimida kreativlik potensialining tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari”. “Journal of science-innovative research in Uzbekistan”. Volume 2. Issue 2. February. 2024. pp. 23-28.

«TABIY FANLAR (SCIENCE)» DARSLARIDA XALQARO BAHOLASH DASTURIGA  
KIRITILGAN AMALIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

*Shonazarova Sevara Rashidovna*  
*Temiz pedagogika instituti o`qituvchisi*

*Beg`amova Sabina Najmiddin qizi*  
*Boshlang`ich ta`lim fakulteti*  
*talabasi 22-12 guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumta`lim maktablarining boshlang`ich sinflarida o`qitilayotgan «Tabiiy fanlar (Science)» darslarida o`quvchilarni kompetentlikka yo`naltiruvchi topshiriqlar ishlab chiqish va ulardan foydalanish masalalari yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** Tabiiy fanlar (Science), xalqaro baholash tadqiqotlari, PISA, TIMSS, kompetensiya, baholash, topshiriq.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены вопросы разработки и использования заданий, ориентирующих учащихся на компетентность на уроках «Естественные науки (Science)», преподаваемых в начальных общеобразовательных школах.

**Ключевые слова:** Естественные науки (Science), международное оценочное исследование, PISA, TIMSS, компетентность, оценка, задание.

**Annotation.** This article discusses the development and use of tasks that orient students to competence in the lessons «Science» taught in primary schools.

**Key words:** Science, international assessment study, PISA, TIMSS, competence, assessment, task.

O`quvchilarning bolajak kasbiy sifatlarini shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliyot ham muhim o`rin egallaydi. Tabiiy ilmiy bilimlar uzoq yillar davomida amaliy faoliyat tufayli qo`lga kiritilgan. Atrof muhitni bilishda, anglashda ilmiy tajriba, amaliy bilimlar muhim rol o`ynab kelgan va kelmoqda. Ma`lumki, tabiiy fanlar keng qamrovli moddiy dunyoni rang-barang xususiyatlari, tabiatning har xil voqea hodisalarini o`rganuvchi fan bo`lib, ilmiy tajriba asosida shakllanadi, amaliyot esa mazkur fanning poydevori hisoblanadi. Insoniyatni tabiat qonunlari haqidagi bilimga asoslangan amaliy faoliyati bilish jarayonini, ilm-fan taraqqiyotini belgilaydi.

O`quvchilarning o`qish savodxonligi, matematik savodxonlik, moliyaviy savodxonlik, kompyuter savodxonligi, tabiiy-ilmiy savodxonliklarini baholaydigan xalqaro baholash dasturi PISA dasturi hisoblanadi (inglizcha - Programme for International Student Assessment). PISA dasturida turli davlatlarning 15 yoshli

o'quvchilari ishtirok etishlari mumkin. Bu yosh esa 8-9- sinf o'quvchilari yoshiga to'g'ri keladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. O'zbekiston 2022-yildan ushbu dasturning 3 yo'nalishi bo'yicha ya'ni o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy savodxonlik yo'nalishlari bo'yicha ishtirok etdi. Tadqiqot natijalari 2023-yilda e'lon qilinishi rejalashtirilgan. PISA xalqaro baholash dasturi har uch yilda bir marotaba o'tkaziladi. Shu sababli o'quvchilarni keyingi o'tkaziladigan PISA tadqiqotlariga yanada kuchliroq tayyorlash muhim hisoblanadi. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashda tabiiy-ilmiy savodxonlik yo'nalishi bo'yicha qamrab olinadigan fan turlari bo'yicha ham PISA topshiriqlariga o'xshash topshiriqlar ishlab chiqib, fan darslarida foydalanish ham ijobiy natijalarni beradi. Jumladan, tabiiy-ilmiy savodxonlik bu o'quvchilarni tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya, geografiya, astronomiya) bo'yicha savodxonliklarini baholash yo'nalishi bo'lganligi sababli fizika darslarida fizika va boshqa tabiiy fanlar integratsiyasini, egallangan fizik bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini o'zida mujassam etadigan, tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantiradigan PISA topshiriqlariga o'xshash topshiriqlardan foydalanish zarurati kelib chiqmoqda. Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun avvalo o'quvchilarda ilmiy matn bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirib olish kerak. Chunki o'quvchilarga ma'lumotlar asosan matn ko'rinishida beriladi. Chunki kerakli bilimlarga ega bo'lish uchun ilmiy ma'lumotlarni o'qib tushunish, kerakli dalillarni ajratib olish, ma'lumotlarni qayta ishlab, hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi, axborotlarni yig'ish ko'nikmalari shakllansagina o'quvchilarda ilmiy ma'lumotlarni amaliy jihatdan qo'llash darajasi yuqori bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-apreldagi "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida"gi PF-6218-sonli farmoniga asosan mamlakatimiz ta'lim tizimida bir qancha ahamiyatga molik o'zgarishlar amalga oshirilmoqda O'zbekiston Respublikasining 2022-2023- yillarda PISA va TIMSS xalqaro baholash tadqiqotlarida qatnashishi shunday ijobiy o'zgarishlardan biri hisoblanadi [5]. TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – bu to'rtinchi va sakkizinchi sinflarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha keng joriy qilingan xalqaro baholash dasturi [3, 6]. TIMSS tadqiqoti doirasida birinchi baholash 1995-yilda o'tkazilgan va har 4 yilda takrorlangan: 1999, 2003, 2007, 2011, 2015, 2019. Hozirgacha o'tkazilgan baholash tadqiqotlarining so'nggisi 2019-yilda amalga oshirilgan va unda 70 ta davlat qatnashgan. TIMSS o'quvchilarga ta'lim olish imkoniyatlari qanday taqdim etilgani va o'quvchilarning ushbu imkoniyatlardan foydalanishiga ta'sir etuvchi omillarni ko'rib chiqishda o'quv dasturlaridan asosiy tashkiliy tamoyil sifatida keng ko'lamda foydalanadi. TIMSS o'quv dasturi modeli

uchta jihatga ega: rejalashtiriladigan o‘quv dasturi, amalga oshiriladigan o‘quv dasturi va natijaga erishiladigan o‘quv dasturi. “Tabiiy fanlar (Science)” bo‘yicha o‘quvchilar geografiya o‘quv faniga oid quyidagi ilmiy xabardorlik va amaliy kompetensiyalarini egallashlari lozim [1, 2]:

- tabiiy muhit va yashash joyi haqida dastlabki ma’lumotga ega;
- sayyoramizdagi cho‘l, o‘rmon, tog‘ va suv havzalarining tabiati va o‘simliklari va hayvonot dunyosi haqida dastlabki tushunchalarni biladi;
- vulqon, zilzilalar va shamol Yer yuzasini o‘zgartirishini biladi;
- suv havzalari; okean, dengiz, ko‘llar va daryolar ta’sirida Yer yuzasi o‘zgarishini anglaydi;
- tabiiy boyliklardan foydalanish to‘g‘risida dastlabki tushunchaga ega bo‘ladi;
- tabiiy boyliklarga zarar yetkazmaslik va ularni muhofaza qilish yo‘llarini biladi;
- xona haroratini ertalab, tushda va kechqurun havo termometri orqali o‘lchab, o‘zgarishlarni farqlaydi;
- chiqindilarni qayta ishlatish mumkinligi, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishni biladi;
- ob-havoni haftalik kuzatish natijalarini taqqoslaydi;
- eng issiq va sovuq joylar tabiati hamda hayvonlarini farqlaydi;
- fasllarning o‘xshash va farqli jihatlarini tasvirlaydi;
- kun va tunning almashinuvi, Oyning ko‘rinishlarini tasvirlaydi.

Bu kompetensiyalarning o‘quvchilarda shakllanishi ularni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. TIMSS xalqaro baholash standartlarida asosan, o‘quvchining egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishi baholanadi. Bu o‘z navbatida o‘quvchining berilgan bilimni qay darajada o‘zlashtirganiga ham bog‘liqdir. O‘qituvchilar dars jarayonida o‘quvchilarda kreativ fikrlashlarni uyg‘otuvchi, ularni fikrlashga undovchi savollarni berishi maqsadga muvofiqdir. Chunki shu vaqtga qadar o‘quvchilarni fikrlashga majbur etadigan savollar dars jarayonida ancha kam qo‘llanilar edi. Hozirgi kunga kelib, bu turdagi savollar va amaliyotda bajariladigan ishlar dars jarayonining asosiga aylanib bormoqda. Buni 1- va 2-sinf o‘quvchilari uchun amaliyotga tatbiq etilgan “Tabiiy fanlar (Science)” darsliklari va ular uchun tayyorlangan mashq daftarlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Mazkur darslik va mashq daftarlari boshqa tabiiy fanlar (biologiya, fizika, kimyo) qatori geografiya fani mazmuniga oid mavzular va birbiridan qiziqarli topshiriqlar, kichik tadqiqotlar o‘rin olgan.

Ushbu topshiriqning afzalligi shundaki topshiriqda ifodalangan fikrlar ilmiy matnlar va rasmlar orqali o‘quvchiga tushunarli holda bayon etilgan va bugungi kunda elektr energiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muommolar haqida ham fikr yuritishga imkon beradi. Berilgan ilmiy ko‘rinishdagi matnlarni turli jadval asosida yoki rasm

ko‘rinishiga qarab ma‘lumotni matn ko‘rinishida bayon eta olishlari mumkin bo‘ladi. O‘quvchilarni mantiqiy fikrlash, hayotiy vaziyatlarga fan nuqtai-nazaridan qarash, moliyaviy tomondan sarflanayotgan pul miqdorlarini iqtisod qilishga o‘rgatishda ushbu topshiriq kabi topshiriqlar kutilgan natijalarni beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712 - sonli farmoni.
2. “Umumir o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta‘lim tizimlarida fizika va astronomiya ta‘limining uzviyligini ta‘minlash konsepsiyasi” Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi loyihasi. Toshkent- 2021. 12-13-b.
3. Suyarov K.T., Avezov M.M. va boshq. Tabiiy fanlar (1-sinf o‘quvchilari uchun darslik va mashq daftari). – T.: Respublika ta‘lim markazi, 2021.
4. Suyarov K.T., Avezov M.M. va boshq. Tabiiy fanlar (2-sinf o‘quvchilari uchun darslik va mashq daftari). – T.: Respublika ta‘lim markazi, 2021.
5. TIMSS 2019. Baholash qamrovi qo‘llanmasi.
6. Shonazarova , S. . . (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY GEOGRAFIK FANLARNING NAZARIY MUAMMOLARI. Наука и технология в современном мире, 2(22), 4–6.  
<https://inacademy.uz/index.php/zdift/article/view/22756>
7. Sh. N. Khazratkulova. (2023). EDUCATION DIRECTED TO STUDENTS IN TEACHING THE SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY GRADES DISTINCTIVE ASPECTS. Academia Science Repository, 4(04), 644–646.  
Retrieved from
8. Xazratkulova, S., & Abdiraxmonov, S. (2023). ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TA‘LIM-TARBIYANING O‘RNI. Interpretation and researches, 2(1).
9. Хазраткулова Ш.Н. «Совершенствование методов воспитания на занятиях в начальных классах». Международной научно-практической конференции. АЭТЕРНА. УФА. 1 августа 2022 г.
10. Lobar Mukhtarova, & Shahnoza Isakova. (2023). METHODOLOGY OF SPEECH DEVELOPMENT OF VISUALLY IMPAIRED STUDENTS. Academia Repository, 4(10), 360–371. Retrieved from
11. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna, & Saidakhmatova Nafisa Soatmurod kizi. (2023). DEVELOPMENT OF READING UNDERSTANDING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Academia Science Repository, 4(04), 18–22.  
Retrieved from.

12 Nilufar BOYNAZAROVA. (2023). NATURE AND HUMAN HARMONY IN PERSONAL MORAL DEVELOPMENT. World Bulletin of Social Sciences, 27, 6-9. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3219>

**GEOGRAFIYA FANIDAN SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA  
O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI  
RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN PEDAGOGIK OMILLAR**

*Shonazarova Sevara Rashidovna*  
*Temiz pedagogika instituti o‘qituvchisi*

*Beg‘amova Sabina Najmiddin qizi*  
*Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti*  
*talabasi 22-12 guruh talabasi*  
**+998938996767**

**Annotatsiya. Ushbu maqolada geografiya ta‘limining samaradorligini oshirish, geografiya o‘qituvchisining pedagogik mahorati hamda geografiya ta‘limida o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish masalalar yoritilgan.**

**Kalit so‘zlar: Geografiya ta‘limi, sinfdan tashqari ishlar, kreativ qobiliyat, ijodkorlik, zamonaviy ta‘lim metodlari.**

**Аннотация. В данной статье освещаются вопросы повышения эффективности**

**географического образования, педагогического мастерства учителя географии, организационной внеурочной деятельности по развитию творчества учащихся в географическом образовании.**

**Ключевые слова: Географическое образование, внеурочная деятельность, творческие способности, креативность, современные методы обучения.**

**Abstract. This article highlights the issues of improving the effectiveness of geography education, pedagogical skills of the geography teacher, and organization of extracurricular activities in the development of students' creativity in geography education.**

**Key words: Geography education, extracurricular activities, creative ability, creativity, modern educational methods.**

Geografiya ta‘limi ham boshqa fanlardagi singari pedagogika va didaktika bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib zamonaviy o‘zgarishlar va talablar natijasida takomillashib o‘zgarib bormoqda. Professor X.Vaxobov o‘zining “Geografiya o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasida shunday fiklar bildiradi: “Geografiya ta‘limi deganda o‘quvchilarga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy komplekslarning tuzilishi va asosiy qonuniyatlari haqida bilimlar beradigan geografiya fanlari tizimiga aytiladi” [4; 38-b.]. Geografiya ta‘limining samarali bo‘lishi avvalo geografiya fani o‘qituvchisining pedagogik mahoratiga, tajribasiga bog‘liqdir Geografiya ta‘limi

metodikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar A.S.Abduvoxidov., Z.A.Ganiyevlarning ta'kidlashicha geografiya fani o'qituvchisi o'quvchi-yoshlarga ham tabiiy geografiya, ham ijtimoiy-iqtisodiy geografiya asoslarini o'zida mujassamlashtirgan yagona o'quv 50 fani ekanligini inobatga olgan holda kasbiy kompetentsiyaviy yondashuvni amalga oshirishi zarur [1; 49-52-b.]-geografiya faniga oid xususiy kompetensiyalar, bevosita kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan DTSda o'rin olgan bo'lib, bitiruvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablarda ifodalangan; -tayanch kompetensiyalardan, masalan, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash jarayonida o'quvchi tegishli mavzu bo'yicha o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda bayon qilishi, o'zaro muloqotga kirishish, o'z fikrini himoya qila olishi va boshqalarni ishonтира olishi, ziddiyatli vaziyatlardan chiqib keta olish kabi ko'nikmalarni shakllantirish;- geografik axborot tizimi bilan ishlash kompetensiyasini shakllantira borishni har bir o'tilgan mavzuni mustaqil tarzda mustahkamlash jarayonida amalga oshirish, ya'ni mavzu bo'yicha o'z ustida ishlab, kompyuter, internetdan, GIS kabi axborot manbalaridan samarali foydalana olish va ma'lumotlarni qayta ishlash, ma'lumotlar bazasini yarata olish, mediavositalardan zarur bo'lgan axborotlarni topa olish va qayta ishlash, bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Geografiya ta'limining samaradorligini oshirishda zamonaviy ta'lim metodlari va vositalari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati ham katta. Ayniqsa, o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va olib borish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning ijodkorlik faoliyatlarining rivojlanishi, shuningdek, fanga bo'lgan qiziqishining ortishi o'qituvchi tomonidan sinfdan tashqari ishlarni qanchalik samarali tashkil etishiga bog'liq.

Geografiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning bir necha turlari mavjud bo'lib, o'quvchilar dars davomida to'liq o'zlashtira olmagan materiallarni aynan sinfdan tashqari ishlarda o'zlashtirishlari mumkin. Geograf olimlar X.Vaxobov., N.R.Alimkulov., N.B.Sultonovalarning fikriga ko'ra sinfdan tashqari ishlarning asosiy maqsadi o'quvchilarni har tomonlama barkamol rivojlantirishdan iborat bo'lib, fan bo'yicha olgan bilimlarini chuqurlashtirish, ularda bilishni faollashtirishdan iborat. Shuningdek, sinfdan tashqari ishlar maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning davomi hisoblanib, o'quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi [3; 69-70-b.].

Geografiya fanidan o'quvchilarning kreativligini rivojlantirish uchun tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlarning ta'limiy va tarbiyaviy 51 vazifalari ajratilib, bu vazifalar geografiya ta'limining umumiy maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. O'quvchilarning nafaqat kreativligini, balki ularda o'zaro do'stona munosabat, hamkorlik, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat hamda biror kasbni



egallashga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar va mustaqil idrok qilish jarayonida o'quvchilarning intellektual – ijodiy mahsulot ustida ishlashi amalga oshirilib, o'qituvchi o'quv jarayonini boshqarar va nazorat qilar ekan, ayni vaqtda o'z o'quvchilarida kreativlikni, jumladan, kreativ – intellektual - ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi [5; 72-b.].

Shuningdek, sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilar darsdagidek qat'iy talablar doirasidan biroz chiqib, ancha erkin, mustaqil faoliyat olib boradilar. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilar o'zlarining o'qituvchiga ma'lum bo'lmagan qobiliyatlarini namoyon qilishlari mumkin. Shu orqali o'qituvchi ulardagi kreativlik qobiliyatlarini seza olishi va shunga ko'ra uni rivojlantirishlari zarur bo'ladi. Sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar o'quvchilarning milliy istiqlol ruhida tarbiyalash sohasida olib boriladigan ishlarning davomi hisoblanib, bunday ishlar ta'lim-tarbiya maqsadlariga mos kelishi kerak. O'quvchilar tabiatdagi turli jarayon va hodisalarni, dunyoda ro'y beradigan voqealarni ko'proq bilishga qiziqadilar, bunday vazifani sinfdan tashqari ishlar orqaligina hal qilish mumkin. Geografiya fanidan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni tabiiy–geografik voqealar, hodisalar hamda insoniyat hayotiga doir qiziqarli faktlar, ma'lumotlar va ko'nikmalar bilan qurollantiradi. Ayniqsa, o'quvchilar bilan tabiat qo'yniga, ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar uyushtirish o'quvchilarning fanga va o'qib o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

O'quvchilarga dars davomida tushunarsiz bo'lib qolgan materiallar yoki faqat o'qituvchi bergan matnli ma'lumotlar sinfdan tashqari ishlarda ko'z bilan ko'rib, ular haqida eshitish imkoniyati paydo bo'ladi va ushbu ma'lumotlar uzoq vaqt xotiralarida saqlanib qoladi. Geografiya ta'limida sinfdan tashqari ishlarning eng muhim yana bir xususiyatlaridan biri uning turli xil didaktik o'yinlar va qiziqarli geografik savollardan foydalanib tashkil qilinishidir. Bu o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarining samarali bo'lishiga olib keladi. Geografiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlar nazariy va ilmiy yo'nalishlarga ega bo'lib, o'quvchilar turli xil tabiiy va iqtisodiy topshiriqlarni darsdan tashqari vaqtlarda ham bajarishi mumkin. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'quvchilar soni va uyushtirish shakllariga ko'ra hilma-xil shaklda tashkil etish lozim.

Zamonaviy geografiya ta'limida sinfdan tashqari ishlarning bir nechta turlari keng tarqalgan bo'lib, ular orqali o'quvchilarning kreativ qobiliyatlari rivojlantirilishiga erishilmoqda [2; 84-b.]. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish geografiya fani o'qituvchisidan chuqur bilim, pedagogik mahorat, tajribalarni talab etadi. Bunday ishlarni tashkil etishda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarning faolligini, tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash, ular tomonidan bildirilgan yangi g'oyalar, fikrlarni rag'batlantirish, ularga yo'l-yo'riqlar ko'rsatish hamda ularda mas'uliyatlilikni oshirishdan iboratdir.

Dars jarayonida ayrim o'quvchilar har xil sabablarga ko'ra o'zlarini namoyon eta olmaydilar. Sinfdan tashqari ishlarda esa ulardagi turli xil qobiliyatlar namoyon bo'lishiga sharoit yaratiladi. Xususan, ularning kreativ qobiliyatlari rivojlanishiga zamin yaratiladi. Amerika psixologlari A.Karnikau va N.Makelroularning fikriga ko'ra shaxs manbani o'qiganda – 10%, ma'lumotni, eshitganida – 20%, jarayonni ko'rganda – 30%, jarayonni ko'rib, ular to'g'risida ma'lumot eshitganda – 50%, amalda bajarganlarida esa bundanda ko'proq hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlab qoladi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, zamonaviy geografiya ta'limida sinfdan tashqari mashg'ulotlardan samarali va o'rinli foydalana olish zarur. Zero, zamonaviy o'quvchilar - bu yuqori texnologiyalarning farzandlari, faqatgina darslik bilan chegarangan darslar ular uchun qiziqarsiz va tushunarsiz bo'lib qolishi mumkin. Bunday vaziyatda o'qituvchi o'zgaruvchan voqelikka moslashishni, darsdan tashqari noan'anaviy usullar, metodlardan maqsadli foydalanishi lozim. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarda o'z-o'zini namoyish etishlari uchun eng yaxshi imkoniyat hisoblanadi.

Geografiya ta'limida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- o'quvchilarning motivatsiyasi, emotsional-xissiy kayfiyatiga e'tibor qaratish;
- o'quvchilarning kreativlik, ijodkorlik qobiliyati, intellektual salohiyati va imkoniyatlaridan foydalanish;
- tabiiy-geografik bilimlarni o'zlashtirish davomida o'quvchilarni faol intellektual - ijodiy jarayonga jalb qilish orqali ularning mos intellektual-ijodiy mahsulot ustida ishlash jarayonida o'z kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish;
- bu jarayonda alohida faollik ko'rsatgan, ijodkor o'quvchilarni rag'batlantirish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, geografiya ta'limida sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish, mustaqil xulosalar chiqarish, o'z-o'zini namoyon qilish hamda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda eng muhim vositalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. **Abduvoxidov A.S., Z.A.Ganiyev. "Geografiya ta'limi metodikasi". Samarqand.: 2021 yil. 49-52 b.**
2. **Abdullayeva D.N., Methodological aspects of the use of computer technologies in teaching geography // Yeuropean journal of research and reflection ineducational sciences., Volume 8 Number 8, 2020 Part III. rr-84-88.**
3. **Vaxobov X., N.R.Alimkulov., N.B.Sultonova. Geografiya o'qitish metodikasi., Toshkent: - "Nodirabegim" nashriyoti. 2021 yil. 69-70-b.**

4. Vaxobov X. *Geografiya o‘qitish metodikasi.*, Toshkent.: Universitet, 2000. – 38-b.

5. Shonazarova, S. . . (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY GEOGRAFIK FANLARNING NAZARIY MUAMMOLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(22), 4–6.

<https://inacademy.uz/index.php/zdift/article/view/22756>

6. Sh. N. Khazratkulova. (2023). EDUCATION DIRECTED TO STUDENTS IN TEACHING THE SCIENCE OF EDUCATION IN PRIMARY GRADES DISTINCTIVE ASPECTS. *Academia Science Repository*, 4(04), 644–646. Retrieved from

7. Xazratkulova, S., & Abdiraxmonov, S. (2023). ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TA‘LIM-TARBIYANING O‘RNI. *Interpretation and researches*, 2(1).

8. Хазраткулова Ш.Н. «Совершенствование методов воспитания на занятиях в начальных классах». *Международной научно-практической конференции. АЭТЕРНА. УФА. 1 августа 2022 г.*

9. Lobar Mukhtarova, & Shahnoza Isakova. (2023). METHODOLOGY OF SPEECH DEVELOPMENT OF VISUALLY IMPAIRED STUDENTS. *Academia Repository*, 4(10), 360–371. Retrieved from

10. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna, & Saidakhmatova Nafisa Soatmurod kizi. (2023). DEVELOPMENT OF READING UNDERSTANDING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Academia Science Repository*, 4(04), 18–22. Retrieved from.

11. Nilufar Boynazarova. (2023). FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *Open Access Repository*, 9(10), 99–102. Retrieved from <https://oarepo.org/index.php/oa/article/view/3553>

## Boshlang'ich sinflarga ot so'z turkumini o'rgatish

*Panjiyev Jo'raqul Menglimamat o'g'li*

*Termiz davlat Pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası  
o'qituvchisi*

*Toshmamatova Zarnigor Qaxramon qizi*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotasiya:** Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga ot so'z turkumini o'rgatish haqida bo'lib, ot so'z turkumiga oid turli olimlar fikrlari, turli adabiyotlardagi ot so'z turkumi haqidagi ma'lumotlar asosida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** So'z turkumlari, ot, tushuncha, ona tili, boshlang'ich sinf, shakllantirish, o'quvchilar, o'rgatish.

Boshlang'ich sinf sinflar kesimida dasturda belgilangan bilim, ko'nikma va malakaga erishishda asos, poydevori bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli barcha fanlardan dastlabki tushunchalar boshlang'ich sinfdan shakllantirib boriladi. Jumladan, ta'lim tizimida ona tili asosiy fanlardan biri sanaladi. Boshlang'ich sinflarda ona tili eng kerakli fanlardan biri sifatida Davlat Ta'lim Standarti asosida o'qitiladi. So'z turkumi ona tilining muhim tayanch tushunchalaridan biridir. Tilimizdagi so'zlar, ulardagi umumiy anglashilayotgan ma'no, grammatik kategoriyalar, so'zdagi o'ziga xos bo'lgan o'zgarish, shakl va so'z yasalishi, sintaktik vazifalar jamlanganligi mavjudligiga ko'ra ajratiladigan xurujlar so'z turkumi hisoblanadi. So'z turkumlarining nima ekanligi, nimaga ko'ra turlarga ajralishi va turlari haqidagi tushunchalar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tushunarsiz bo'lib, birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli boshlang'ich sinflar o'quv dasturi o'quvchilarni so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linishi bilan aynan tanishtirishni maqsad qilmaydi, ammo so'z turkumlariga xos boshlang'ich tushunchalarni shakllantirib boradi. So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilar fikrlashini, nutqini o'stirish, so'z boyligini yangi ot, sifat, son, fe'l so'z turkumiga oid so'zlar bilan boyitish, o'quvchilar shu paytgacha ishlatgan so'zlarning ma'nosini to'liq anglashga erishish, so'zlarni o'z o'rnida qo'llashni o'rgatish hisoblanadi. Ot mustaqil so'z turkumi bo'lib, Kim? Nima? Qayer? so'roqlariga javob bo'ladi. Ot so'z turkumi predmetning nomini bildirib keladi. Ot mavzusini o'rganish aniq maqsadlarga yo'naltirilgan, so'z turkumining umumiy ma'nosi, grammatik shakllari to'liq, izchil, o'zaro ilmiy asoslangan holda o'rganiladi, o'z nutqda to'g'ri qo'llash va to'g'ri yozish malakasini rivojlantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta-sekin osondan qiyinlashib boradi. Til hodisasida ot so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlari,

vazifalari o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, material hajmi, izchillik kasb etgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ot so'z turkumini o'rganishi kerak bo'lgan vazifalar quyidagicha:

1. Otning grammatik ma'nosini shakllantirish.
2. Otning qanday so'roqlarga javob bo'lishi.
3. Ot so'z turkumining yozilishi (Kishilar ismi bosh harf bilan yoziladi)
4. Otning birlik va ko'plikda qo'llanishi haqida ma'lumot berish
5. Egalik kategoriyasi bilan otni to'g'ri qo'llashni o'rgatish
6. Oltita kelishik bilan tanishtirish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri qo'llay olish va ularni ot bilan to'g'ri bog'lashni tushuntirish.
7. O'quvchilarni otga oid so'zlar bilan tanishtirish orqali so'z boyligini oshirish va ot so'z turkumini nutq jarayonida to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.
8. So'zlarni tahlil orqali qiyoslash, jamlashni bilish.

Ushbu vazifalar bir-biridan ajralgan holda emas, bir-birini to'ldirgan holda hal qilinadi.

Ot so'z turkumi Boshlang'ich sinflarda muayyan bosqichlarga bo'lingan holda o'rgatiladi.

Har bosqichda vazifaning biri hal qilinadi.

Jumladan, 1-2-sinflarda sodda usulda, otning nimani ifodalashi, so'rog'i o'rganiladi.

3-sinfda ot so'z turkumi deb o'rgatiladi, birlik va ko'plikda qanday qo'llanilishi haqida tushuncha beriladi.

4-sinfda biroz murakkab vazifalar hal etiladi: otlardagi turlanish, egalik qo'shimchalari, kelishik qo'shimchalari va ularning qo'llanilishi o'rgatiladi. Kurinib turibdiki, ot so'z turkumini biz bosqichma -bosqich, o'quvchilar yoshiga mos tarzda o'rgatib boramiz.

Ot so'z turkumiga oid dastlabki tushunchalar berish savod o'rgatish davrida boshlanadi.

Masalan: Ota, ona, ayiq, non kabi so'zlarni yozishni o'rgatamiz va bu orqali o'quvchi ongida otga oid ma'lumotlar bazasi shakllanib boradi. Otni o'rganishdagi vazifalar birin-ketin hal qilinarkan, mavzu bo'yicha bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan mashqlar va topshiriqlar ham bir muncha murakkablashadi.

Bu esa o'qituvchidan kuchli bilim va pedagogik mahoratni talab qiladi.

4-sinf o'quvchilari matndagi so'zlardan, ot so'z turkumidagi so'zni topa olishi, unga to'g'ri so'roq bera olishi kerak.

Bundan tashqari, ot deb qaysi so'z turkumining aytilishi, uning birlik -ko'plikda qo'llanilishi, egalik va kelishik qo'shimchalari bilan bog'lanishini bilishi kerak.

Shu mavzuga oid mashqlar, topshiriqlar ham o'qituvchi tomonidan to'laqonli tushuntiriladi va o'quvchi bajaradi. Tushunmovchilik va shu kabi muammolar

o'qituvchi ko'magida hal qilinadi. Bu o'quvchining materialni puxta o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Ot o'ziga xos xususiyatga ega. Bunga ko'ra boshqa so'z turkumlaridan farq qiladi. Bular quyidagilar:

1. Ot yasaladi: guldon, partadosh, o'chirg'ich.
2. Birlilik va ko'plikda qo'llanadi: kitob-kitoblar, gul-gullar.
3. Egalik bilan qo'llanadi: uka-ukam, ona-onang, o'g'il-o'g'lim va h.k
4. Kelishik qo'shimchalarini oladi: uyda, mening, oyimni, ko'chadan
37. Khamdamova M. T. Bleeding when wearing intrauterine contraceptives and their relationship with the nitric oxide system // *American journal of pediatric medicine and health sciences* Volume 01, Issue 07, 2023 ISSN (E): 2993-2149. P.58-62
38. Khamdamova M. T. The state of local immunity in background diseases of the cervix // *Eurasian journal of medical and natural sciences Innovative Academy Research Support Center*. Volume 3 Issue 1, January 2023 ISSN 2181-287X P.171-175.
39. Khamdamova M.T., Khasanova M.T. Various mechanisms of pathogenesis of endometrial hyperplasia in postmenopausal women (literature review) // *New day in medicine*. Bukhara. 2023. - No. 8 (58). - P. 103-107.
40. Khamdamova M.T. Reproductive Health of Women Using Copper-Containing Intrauterine Contraception // *Eurasian Medical Research Periodical* Volume 28 January 2024, ISSN: 2795-7624 .[www.geniusjournals.org](http://www.geniusjournals.org) P. 39-45.
41. Khamdamov I.B. Advantages Of Laparoscopic Hernioplasty in Obesity Women of Fertile Age // *Eurasian Medical Research Periodical* Volume 28 January 2024, ISSN: 2795-7624 .[www.geniusjournals.org](http://www.geniusjournals.org) P. 33-38

## Йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг ташкил этишининг ўзига хос хусусиятлари

*Умаров Ислон Алишерович  
Фаргона вилоят ИИБ ЖХХ ЙХБ  
1-ТРЎва ИОБ бўлими бошлиғи*

**Аннотация.** Ушбу мақолада йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг ўзига хос жиҳатлари таҳлил қилинган. Муаллифнинг фикрича, йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликлар профилактикасига жиддий эътибор қаратиш лозим.

Муаллифнинг назаримизда йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг учда муҳим таркибий қисми мавжуд: биринчиси – йўлларда ҳаракатланиш хавфсизлигининг техник жиҳатлари; иккинчиси – йўлларда хавфсиз ҳаракатланишнинг маъмурий жиҳатлари. Йўлларда хавфсиз ҳаракатланишнинг маъмурий жиҳатларининг институционал ва ҳуқуқий асослари мавжуд; учинчиси – йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси.

**Калит сўзлар:** йўл ҳаракати; йўл ҳаракати қоидалари; йўл ҳаракати хавфсизлиги; йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликлар йўл-транспорт ҳодисалари; ҳуқуқбузарликлар профилактикаси.

**Аннотация.** В данной статье анализируются конкретные аспекты профилактики нарушений правил дорожного движения. По мнению автора, серьезное внимание следует уделить профилактике нарушений правил дорожного движения.

По мнению автора, существуют три важные составляющие профилактики нарушений правил дорожного движения: первая – технические аспекты безопасности дорожного движения; второй – административные аспекты безопасности дорожного движения. Существуют институциональные и правовые основы административных аспектов безопасности дорожного движения; третье – предупреждение нарушений правил дорожного движения.

**Ключевые слова:** трафик; правила дорожного движения; безопасность дорожного движения; нарушения правил дорожного движения, дорожно-транспортные происшествия; предотвращение преступления.

**Annotation.** This article analyzes specific aspects of the prevention of traffic violations. According to the author, serious attention should be paid to the prevention of traffic violations.

According to the author, there are three important components in the prevention of traffic violations: the first is the technical aspects of road safety; the second is the administrative aspects of road safety. There are institutional and legal frameworks for the administrative aspects of road safety; the third is the prevention of traffic violations.

**Key words:** traffic; Traffic Laws; road safety; traffic violations, traffic accidents; crime prevention.

Таҳлиллар асосида бугунги кунда йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг ташкил этишга нисбатан ёндашувлар асосан қуйидаги икки гуруҳга ажратиш мумкин:

биринчиси – йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликларни умумий ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг таркибий қисми сифатида тушуниш; иккинчиси – йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашни (шу жумладан йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасини) жамоат хавфсизлигини таъминлашнинг устувор ва мустақил йўналиши.

Йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ваколатли органларнинг амалий фаолияти сифатида маълум принципларга асосланади ва бу принципларни қуйидаги икки гуруҳга ажратиш мумкин:

биринчиси – ҳуқуқбузарликлар профилактикаси доирасидаги принциплар; иккинчиси – йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш доирасидаги принциплар.

Йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг принциплари сифатида қуйидагилар назарда тутилади:

қонунийлик;

инсонпарварлик;

тизимлилик;

ишонтириш усулининг устуворлиги;

таъсир кўрсатиш чора-тадбирларини фарқлаш ва яқка тартибдаги ёндашиш.

Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлашнинг асосий принциплари қуйидагилардан иборат:

фуқаролар ҳаёти ва соғлиғи муҳофазасининг, уларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари, шунингдек атроф муҳит ҳимоясининг устуворлиги;

йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш бўйича тадбирларнинг устуворлиги;

йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш бўйича фаолиятнинг тизимлилиги<sup>13</sup>.

Йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бугунги кунда қонунчилик ва ҳуқуқни қўллаш амалиётида бинар характерга эгаллиги, яъни ҳам ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг таркибий қисми ҳам йўл ҳаракати

<sup>13</sup> Ўзбекистон Республикасининг Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисидаги қонуни // <https://lex.uz/docs/2153411>

хавфсизлигини таъминлаш фаолиятдан иборат эканлиги бу борадаги муносабатларни биров мураккаблаштирган.

Шундай қилиб йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикаси қуйидагича амалга оширилади:

Ҳуқуқбузарликларнинг умумий профилактикаси доирасида йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш.

Ҳуқуқбузарликларнинг умумий профилактикаси чора-тадбирлари доирасида: йўл ҳаракатига доир ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир давлат дастурларини ва бошқа дастурларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга ошириш;

йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича аҳоли ўртасидаги ҳуқуқий тарғибот;

йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабабларини ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни аниқлаш, бартараф этиш ҳамда ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабабларини ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни бартараф этиш тўғрисида тақдимномалар киритиш.

“Ҳуқуқий тарғибот” ҳуқуқбузарликлар умумий профилактикасининг асосий чора-тадбирларидан бири саналиб<sup>14</sup>, мамлакатимизда мустақиллик даврида ҳуқуқий тарғибот масаласига ҳукумат даражасида жиддий эътибор қаратилиб келинмоқда.

Шу ўринда, «тарғибот», «ташвиқот», «ҳуқуқий тарғибот», «қонунчилик тарғиботи» тушунчаларига ойдинлик киритиб ўтиш ўринлидир. Чунки улар мазмун ва ҳажм жиҳатдан бир-биридан фарқланувчи, аммо бир-бирига жуда яқин тушунчалардир. «Тарғибот» сўзининг ўзаги «тарғиб» бўлиб, «тарғиб» хоҳишни, қизиқишни кучайтириш, шунингдек тарғиб қилмоқ – чуқур тушунтириш йўли билан бирор ғоя, таълимот ва шу кабиларни ёймоқ, кишиларнинг онгига сингдирмоқ, шунингдек тушунтириш йўли билан бирор ишга чақирмоқ, даъват этмоқ маъноларини англатса, «тарғибот» эса бирор ғоя, таълимот ва шу кабиларни ёйишга, кишилар онгига сингдиришга қаратилган ишлар, тарғиб ишлари маъносини англатади<sup>15</sup>.

Мазкур изоҳли луғатда «ташвиқ» сўзига «агитация, ташвиқот олиб бормоқ, агитация қилмоқ», «қизиқиш, хоҳишни кучайтириш. Бирор нарсага йўллаш, йўналтириш, чақириш мақсадидаги гап-бўз, хатти-ҳаракат ва шу кабилар» деб, «ташвиқот»га эса «оммага сиёсий ёки бошқа жиҳатдан таъсир кўрсатиш

<sup>14</sup> Отажонов А.А. Жиноятга дахлдорлик: жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлар. юрид. фан. ном. ... дис. автореф. . — Т., 2009. — Б. 25.

<sup>15</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. В. Шукрона– / Таҳрир хайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – 592 б.

мақсадида ёзма ва оғзаки равишда қилинадиган ишлар, тадбирлар»<sup>16</sup> тарихида изоҳ берилган.

Бугунги кунда йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасида тарғибот ва ташвиқот ишларига алоҳида эътибор қаратилади. Ҳатто Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 30 августдаги «Йўл ҳаракати хавфсизлиги кунини ўтказиш ва йўл-транспорт ҳодисалари профилактикасининг самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» 701-сон қарори билан «Йўл ҳаракати хавфсизлиги тарғибот кунини ўтказиш бўйича дастур ҳамда «Йўл ҳаракати хавфсизлиги тарғибот кунини» доирасида тадбирларни ташкил этиш схемаси тасдиқланган<sup>17</sup>.

Йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабаблари ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни бартараф этишда мазкур сабаб ва шароитларни бартараф этиш юзасидан киритиладиган тақдимномаларнинг ўрни ва роли катта.

Йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабаблари ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни бартараф этиш тўғрисида тақдимномаларнинг ишлаб чиқиши ва киритилиши ҳуқуқбузарликлар умумий профилактикасининг асосий чора-тадбирларидан бири ҳисобланса-да, аммо амалиёт ва қонун нормалари таҳлили тақдимномаларни тайёрлаш, уни киритиш, тақдимнома талаблари ижросини, шунингдек тақдимнома талабларини бажармаганлик учун жавобгарликнинг муқаррарлигини таъминлашнинг мавжуд ҳуқуқий тартиби бўйича бир қатор муаммо ва камчиликлар мавжудлиги кўзга ташланди.

Амалдаги қонун ҳужжатлари таҳлил қилинганда, йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликларнинг сабаблари ва содир этилишига имкон бераётган шарт-шароитларни бартараф этиш тўғрисида тақдимномалар киритиш билан боғлиқ бир қатор муаммо ва камчиликларнинг мавжудлиги кўзга ташланди:

биринчиси, ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабаблари ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни бартараф этиш тўғрисидаги тақдимномаларнинг тури ва мазмуни билан боғлиқ муаммолар. «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонунда иккита бир-бирига ўхшаш профилактик чора-тадбир келтириб ўтилган. Улардан бири ҳуқуқбузарликларнинг умумий профилактикасининг «Ҳуқуқбузарликларнинг

<sup>16</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. В. Шукрона – / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – 592 б.

<sup>17</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 30 августдаги «Йўл ҳаракати хавфсизлиги кунини ўтказиш ва йўл-транспорт ҳодисалари профилактикасининг самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» 701-сон қарори // <https://lex.uz/ru/docs/3888332#3893359>

содир этилиши сабаблари ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни бартараф этиш тўғрисида тақдимнома киритиш» ҳамда яна бири ҳуқуқбузарликлар якка тартибдаги профилактикасининг «Ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабаблари ва уларга имкон бераётган шарт-шароитлар тўғрисида хабардор қилиш» чора-тадбирларидир. Мазкур чора-тадбирларни бир-биридан фарқлаш ва амалиётда самарали қўллаш билан боғлиқ қийинчиликлар учраб туради.

Умуман олганда, йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабаблари ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни бартараф этиш тўғрисида тақдимнома ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабаблари ва уларга имкон бераётган шарт-шароитлар тўғрисида хабардор қилишдан мазмун ва шакл жиҳатдан қуйидагиларга кўра фарқланади:

– «тақдимнома» муайян чоралар кўриш мажбуриятини юкласа, «xabардор қилиш»да огоҳликка, хушёрликка чақириш мақсади кўзланади ва профилактик таъсир кўрсатиш чораларини кўриш ёки кўрмаслик фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ҳукмига ҳавола этилади. Бироқ ушбу вазиятда ҳам фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари масалага совуққонлик билан қарамаслиги ва уни эътиборсиз қолдирмаслиги лозим;

– «xabардор қилиш»да кўрилган чоралар ҳақида жавоб хати ёзиш талаб этилмайди;

– ғайриижтимоий хулқ-атворга эга шахслар, ҳуқуқбузарликлар содир этишга мойил бўлган, ҳуқуқбузарлик содир этган шахс ҳақидаги хабарнома уч йилгача маҳалла архивида сақланиши ва шу давр мобайнида сўралган жойга унга нисбатан тавсифнома беришда хабарнома мазмуни эътиборга олиниши мақсадга мувофиқ ҳисобланади;

– ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабаблари ва уларга имкон бераётган шарт-шароитлар тўғрисида берилган хабар орқали кенг жамоатчилик ўртасида профилактик чора-тадбирларни амалга ошириш эмас, балки ўша ҳуқуқбузарликни содир этган шахсга якка тартибда профилактик таъсир кўрсатиш, у ҳақда маълумот ёки тавсифнома сўралган жойга унинг хулқи тўғрисида объектив маълумот бериш мақсади кўзланади. Айнан шунинг учун ҳам, ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабаблари ва уларга имкон бераётган шарт-шароитлар тўғрисида хабардор қилиш ҳуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактик чораси сифатида киритилган.

Мавжуд қонун ҳужжатларининг таҳлилига асосланиб, йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабабларини ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни бартараф этиш тўғрисида тақдимномалар ким томонидан киритилишига кўра қуйидагича гуруҳлаш мумкин ҳисобланади:



- прокурор томонидан киритиладиган тақдимномалар;
- ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи бошқа субъектлар томонидан киритиладиган тақдимномалар;
- ҳуқуқбузарлик ишини юритувчи мансабдор шахслар томонидан киритиладиган тақдимномалар.

Прокурор томонидан киритиладиган тақдимномалар. 2001 йил 29 августда янги таҳрирда қабул қилинган «Прокуратура тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунининг 40-моддасига кўра, прокурор қонун бузилиши, унинг келиб чиқиш сабаблари ва бунга имкон яратиш бераётган шарт-шароитларни бартараф этиш тўғрисидаги тақдимномани қонун бузилишини бартараф этиш ваколатларига эга бўлган органга ёки мансабдор шахсга киритади.

Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи бошқа субъектлар томонидан киритиладиган тақдимномалар ушбу субъектлар фаолиятини тартибга солиш турувчи қонун ва қонуности ҳужжатларида белгиланган тартибда киритилади. Бу борада «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонун ҳам ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилади. Қонуннинг 9-моддасида келтирилган ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи органлар ва муассасалар тизимидан ўрин олган ҳар бир субъектга қонун чиқарувчи «ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга ошириш, шу жумладан ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабабларини ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни аниқлаш ҳамда бартараф этиш» ваколатини берган.

Ҳуқуқбузарлик ишларини юритувчи мансабдор шахслар томонидан киритиладиган тақдимномалар. Ушбу турдаги тақдимномалар ҳуқуқбузарлик ишларини юритувчи мансабдор шахслар (амалдаги Жиноят-процессуал кодекснинг 3-бобида жиноят ишини юритишга масъул бўлган давлат органлари ва мансабдор шахслар ҳамда амалдаги Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 245-моддасида кўрсатилган мансабдор шахслар) томонидан белгиланган процессуал тартибга кўра ўз иш юритувидаги ҳуқуқбузарлик (маъмурий ҳуқуқбузарлик ёки жиноят) иши бўйича киритилади.

Мавжуд тартиб тақдимнома киритилган корхона, муассаса, ташкилот, шунингдек фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига нисбатан «тақдимнома талаблари билан танишиб чиқиш ва тегишли чоралар қўллаш ҳамда бу ҳақда тақдимнома юборган орган ёки мансабдор шахсга бир ой муддат ичида ёзма равишда жавоб юбориши шарт»лигига оид талабни қўяди. Ушбу талаб бажарилмаган ҳолларда қонунда назарда тутилган жавобгарлик келиб чиқади.

Мансабдор шахснинг қуйидагиларга йўл қўйиши жавобгарликнинг келиб чиқишига асос бўлади:

– тақдимнома ёки хусусий ажрим талаблари бўйича зарур чораларни кўрмаслик ва кўрилган чораларнинг натижалари тўғрисида кечи билан бир ойлик муддат ичида тақдимнома киритган орган ёки мансабдор шахсни хабардор қилмаслик;

– тақдимнома ёки хусусий ажрим талабларини виждонан бажармаслик, яъни кўрилган чораларнинг натижалари тўғрисида тақдимнома киритган орган ёки мансабдор шахсни хабардор қилинган бўлса-да, амалда ҳеч қандай чора кўрилмаганлик ёки масалага юзакилик билан ёндашганлик<sup>18</sup>.

Иккинчиси, йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабаблари ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни бартараф этиш тўғрисида тақдимнома киритиш ваколатига эга субъектлар доирасининг номувофиқлиги билан боғлиқ муаммолар. Ўзбекистон Республикасининг «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонунининг 22-моддасида «Ҳуқуқбузарликларнинг умумий профилактикаси тушунчаси»га берилган таърифда ҳуқуқбузарликларнинг умумий профилактикаси ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширувчи ва унда иштирок этувчи органлар ҳамда муассасалар томонидан амалга ошириладиган фаолият эканлиги таъкидланган. Қонуннинг 9-моддасида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи 14 та орган ва муассасаларнинг тизими аниқ кўрсатиб ўтилган бўлса-да, бироқ ҳуқуқбузарликлар профилактикасида иштирок этувчи орган ва муассасаларнинг тизими алоҳида нормада келтирилмаган. Аммо қонунда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқароларнинг ҳуқуқбузарликлар профилактикасидаги ваколати ва иштироки келтириб ўтилган.

Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирининг 2011 йил 31 майдаги «Йўл ҳаракати қоидаларининг бузилишига доир маъмурий ишларни кўриб чиқиш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида»ги 68-сон қарори билан тасдиқланган Йўл ҳаракати қоидаларининг бузилишига доир маъмурий ишларни кўриб чиқиш тартиби тўғрисидаги йўриқноманинг 57-бандидига кўра Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодекснинг 313-моддасига мувофиқ ишни кўриб чиқаётган мансабдор шахс маъмурий ҳуқуқбузарликлар содир этилиши сабаблари ва уларга олиб келган шарт-шароитларни

<sup>18</sup> . Хўжакулов С.Б. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси доир қонун ҳужжатлари: илмий-амалий таҳлил / Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси Ахборотномаси. –Т., 2015. – № 4. –Б. 34–39.

аниқлаганда, ташкилотлар раҳбарларига ана шу сабаблар ва шарт-шароитларни бартараф этиш чора-тадбирларини кўриш ҳақида тақдимнома киритиши лозимлиги белгиланган<sup>19</sup>. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2018 йил 30 ноябрдаги “Судлар томонидан маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни кўришни тартибга солувчи қонунларни қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида”ги 35-сон қарорининг 29-бандига биноан судлар маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этилишига олиб келган сабаб ва шарт-шароитлар аниқланганда суд уларни бартараф қилиш юзасидан ҳуқуқбузарнинг ўқув, иш ёки яшаш жойига тақдимнома киритиши лозимлиги назарда тутилган<sup>20</sup>.

Бироқ бугунги кунда йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликларнинг сабаблари ва содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни бартараф этиш бўйича тақдимномалар киритиш амалиётига жиддий эътибор берилмайди. Қолаверса мазкур тақдимномани киритишнинг регламенти ва намунавий бланки ҳам мавжуд эмас.

Маълумки, муайян соҳадаги фаолият самарадорлигини ошириш, фаолиятни мувофиқлаштириш ва тўғри йўналтириш, вазифаларни ҳамда куч ва воситаларни тўғри тақсимлаш, уларнинг муайян муддатларда босқичма-босқич ва ўз вақтида амалга оширилишини таъминлаш мақсадида дастурлар ишлаб чиқилади.

Бироқ, таҳлил натижалари шу кунгача йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг аксарият субъектлари томонидан ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир чора-тадбирлар режаси ишлаб чиқиладиганлигини кўрсатди, аммо чора-тадбирлар режаси унда белгиланган вазифаларнинг ҳажми ва мазмунига кўра дастур мақомига эга бўлолмайди. Чунки ўзбек тилининг изоҳли луғатида «дастур» тушунчасига «йўл-йўриқ, кўрсатма, тартиб-қоида, яъни муайян мақсад, иш-ҳаракат ёки тадбирнинг олдиндан белгилаб чиқилган йўл-йўриғи, уни амалга оширишнинг тартиби, қонун-қоидаси<sup>21</sup> мазмунида изоҳ берилган бўлса, «режа» тушунчасига «бирор ишни тартиби билан ва ўз вақтида бажариш учун олдиндан белгилаб олинган аниқ

<sup>19</sup> Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирининг 2011 йил 31 майдаги “Йўл ҳаракати қоидаларининг бузилишига доир маъмурий ишларни кўриб чиқиш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида”ги 68-сон қарори // <https://lex.uz/docs/1832522#6251005>

<sup>20</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2018 йил 30 ноябрдаги “Судлар томонидан маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни кўришни тартибга солувчи қонунларни қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида”ги 35-сон қарори // <https://lex.uz/docs/4116801#4117265>

<sup>21</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. Ш. Н–Тартибли / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА Тил 177 ва адабиёт ин-ти. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. Б.573.

ёки тахминий мўлжал»<sup>22</sup> мазмунида изоҳ берилиб, режа тахминий мўлжал, дастур эса муайян тартиб, қонун-қоида тариқасида эътироф этилган.

Демак, дастур режага нисбатан кенгроқ тушунча бўлиб, битта умумий мақсад ва натижага йўналтирилади. Ушбу мақсадга эришишнинг йўналишлари ва чора-тадбирлар тизими акс этирилади.

Энг асосийси, унда тадбирларни бажариш механизми, тартиб-қоидалари ўз ифодасини топади. Режада эса, мазмунан бир-бирига ўхшаш бўлмаса-да, аммо бажарилиши керак бўлган ишлар, хатти-ҳаракатлар рўйхати бажариш кетма-кетлигида киритилади. Яна бир жиҳати шундаки, дастурда белгиланган маълум бир тадбирни ўз вақтида, сифатли бажариш учун муайян режа ишлаб чиқилиши ҳам мумкин.

Шу ўринда, йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир дастурларга нисбатан қуйидаги талабларнинг қўйилишини ўринли деб ҳисоблаймиз:

– аҳоли, айниқса, вояга етмаган ва ёшлар ўртасида йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикаси самарадорлигини ошириш, уларнинг сабаб ва шарт-шароитларини барвақт аниқлаш ва барвақт профилактикасини амалга ошириш мақсадини кўзлаши;

– ўзида йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг йўналишларини, мантиқий кетма-кетликда амалга ошириладиган чора-тадбирларини, ушбу чора-тадбирларни бажариш муддатлари ва бажарилишини назорат қилувчи шахсларни мужассам этиши;

– ваколатли давлат органлари раҳбарлари томонидан тасдиқланиши ва ижрога йўналтирилиши.

Келтирилган талаблар ҳамда ўзбек тилида «дастур» тушунчасига берилган изоҳга асосланиб, «ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир дастурлар»га қуйидагича таъриф бериш мумкин:

«Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғриси»ги қонунда ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир давлат дастурлари ва бошқа дастурлар жумласи ишлатилган бўлиб, «бошқа дастурлар» қайси дастурларни ўз ичига қамраб олиши бирон бир манбада аниқ кўрсатилмаган. Шунингдек, ҳуқуқбузарликлар профилактикасига оид дастурлар қайси асосларга кўра ва қайси тартибда ишлаб чиқилиши, қолаверса, дастурларни ишлаб чиқишда иштирок этувчи органлар ва муассасаларнинг қай тартибда иштирок этишига доир ҳуқуқий механизм ўз ифодасини топмаган.

<sup>22</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Тартибот–Шукр / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 369.

Бу эса шу давргача ҳуқуқбузарликлар умумий профилактикасининг ушбу чора-тадбирини самарали ташкил этилишини таъминлаш имкониятини чегаралаб келмоқда. «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонуннинг 7-моддасида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасига ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасидаги ваколатларидан бири сифатида фақатгина «ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир давлат дастурларининг ишлаб чиқилиши, тасдиқланиши ва амалга оширилишини таъминлайди» мазмунидаги мавҳум қоида киритилган.

Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида»ги (янги таҳрирдаги) қонунда ҳам Вазирлар Маҳкамасига ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши кураш соҳасида муайян аниқ ваколатлар белгиланмаганлиги учун ҳам юқоридаги мавҳумлик келиб чиққан деган хулосага келинди.

Фикримизча, ушбу бўшлиқни бартараф этиш учун «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тўғрисида»ги қонунга тегишли ўзгартириш ва қўшимчалар киритиб, Вазирлар Маҳкамасининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги ваколатларини белгилаш, шунингдек, «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонуннинг 7-моддаси иккинчи хатбошисини «ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир давлат дастурларини ишлаб чиқади, тасдиқлайди ва амалга оширилишини таъминлайди» мазмунидаги янги таҳрирда баён этиш таклиф этилади.

Акс ҳолда қонуннинг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасида Вазирлар Маҳкамасига берилган ваколатлари баён этилган нормаси декларатив тусга эга бўлиб, ушбу йўналишда давлат дастурларини ишлаб чиқиш, тасдиқлаш ва ижросини таъминлаш муаммолигича қолади. Ушбу муаммони қонун қабул қилингандан шу давргача ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир давлат дастурлари қабул қилинмаганлигида кузатиш мумкин.

Мамлакатда Президент Шавкат Мирзиёев бошчилигида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши кураш соҳасида олиб борилаётган кенг қамровли ислохотлар даврида мазкур масала янада долзарблашди. Қонуннинг 8-моддасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасида маҳаллий давлат ҳокимияти органларига «ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир ҳудудий дастурларни ишлаб чиқади, тасдиқлайди ва амалга оширади» мазмунидаги ваколат аниқ белгилаб қўйилган.

Умуман олганда, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир давлат дастурларини ишлаб чиқишда иштирок этиб, ҳудудий дастурларни бевосита ишлаб чиқади, тасдиқлайди ва амалга оширади. Бироқ маҳаллий давлат ҳокимияти органлари

томонидан ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир дастурлар қайси ҳолатларда ишлаб чиқиш мумкинлиги назарда тутилмаган.

Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ушбу йўналишдаги дастурларни куйидаги иккита асос мавжуд бўлган тақдирдагина ишлаб чиқиши мумкинлигининг белгиланишини мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

биринчиси, йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир давлат дастури тасдиқланса, ушбу дастурнинг ижросини таъминлаш мақсадида; иккинчиси,

маъмурий ҳудудда йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар сони ортганда.

Юқоридагилардан кўришиб турибдики, Вазирлар Маҳкамасининг ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир дастурларни ишлаб чиқиш, тасдиқлаш ва ижросини таъминлашга доир ваколати аниқ белгиланмаган, ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир дастурларнинг турларига ойдинлик киритилмаган, қолаверса, ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир дастурларнинг қайси вақтларда, қайси асослар ва тартибда ишлаб чиқиши аниқлаштирилмаган.

Натижада ҳанузгача ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир давлат ва ҳудудий дастурлар ишлаб чиқилмасдан ва ижрога йўналтирилмасдан келинмоқда. Зеро, Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек, «жиноятчилик ва ҳуқуқбузарлик учун омил бўлаётган ишсизлик, гиёҳвандлик, қаровсизлик, оилавий низолар ва шу каби бошқа иллатларнинг вақтида олдини олиш чораларини кўриши зарур. Шунингдек, умумийликдан қочиши, бунинг учун ягона мақсад сари интилиб, ҳамкорликда фаолият олиб бориши, ҳар бир муаммога аниқ режа асосида ёндашиш лозим».

Бунга эса ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир давлат ва ҳудудий дастурлар орқали эришиш мумкин. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир дастурлар ҳудуддаги криминоген вазият, хусусан ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шарт-шароитлари таҳлилига асосан ишлаб чиқиши ҳамда ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти айнан мазкур дастур доирасида амалга оширилиши, қолаверса ҳуқуқбузарликлар профилактикаси юзасидан аҳоли олдида бериладиган ҳисоботлар ҳам айнан мазкур дастурлар ижроси бўйича амалга оширилиши мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Таҳлиллар йўл ҳаракатига оид ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир дастурларни ижрога йўналтиришнинг ташкилий-ҳуқуқий жиҳатдан тўлиқ таъминланмаганлигини кўрсатади. Биламизки, ҳар қандай дастурнинг мазмуни уни ишлаб чиқишдан кўзланган мақсад, ким томонидан тасдиқлангани ва дастурда белгиланган вазифаларнинг қай даражада назоратга олингани билан белгиланади. Бироқ ўрганиш натижаларига кўра, аксарият ҳудудларда ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир (идоравий ёки

идоралараро) дастурлар ишлаб чиқилган бўлса-да, тўлиқ ижрога йўналтирилмаганлиги ҳолатлари кузатилди.

Бу эса ушбу дастурларни ижро ҳамда ижрони таъминлаш бўйича назорат механизмини такомиллаштириш зарурати мавжудлигини намоён этади. Бу борада қуйидагилар тавсия этилади: – ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир дастурлар лойиҳаларининг оммавий муҳокамасини ташкил этиш; – дастур тасдиқлангач, дастур ижросини назорат қилиш ваколатига эга субъектлар томонидан дастурда белгиланган вазифаларнинг ўз вақтида бажарилишини таъминлаш бўйича назорат варақа (контрольная карточка)ларининг юритилишини таъминлаш; – ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир идоралараро комиссиялар томонидан ишлаб чиқилиб, тасдиқланган дастурларда белгиланган вазифалар ижроси бўйича ўз вақтида ҳисобот тақдим этмаган ёки зиммасига юклатилган вазифани бажармаган ёки лозим даражада бажармаган комиссия аъзоларига нисбатан таъсир чораларини қўллаш; – ҳуқуқбузарликлар профилактикаси субъектларининг реал жисмоний имкониятларини ҳисобга олиш; – дастурда назарда тутилган чора-тадбирлар ҳуқуқбузарликлар профилактикаси субъектларининг жорий вазифаларига мос бўлиши.

Ўз навбатида, ҳуқуқбузарликлар профилактикасини бевосита амалга оширувчи органлар ва муассасаларнинг ҳуқуқбузарликлар профилактикасига доир давлат ёки ҳудудий дастурлардаги чора-тадбирлар ижросини таъминлаши, уларнинг таҳлилини олиб бориши, натижалари бўйича ҳисоботлар тайёрлаб, нафақат аҳоли олдида ҳисобот бериш, балки ушбу ҳисоботларни маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ҳамда юқори турувчи органларга тақдим этишига оид тартибнинг аниқ белгиланиши мазкур дастурлар ижроси юзасидан (жамоатчилик, парламент ва раҳбарий) назорат функциясининг самарали амалга оширилишини таъминлайди.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикасининг Йўл ҳаракати хавфсизлиги тўғрисидаги қонуни // <https://lex.uz/docs/2153411>
2. Отажонов А.А. Жиноятга дахлдорлик: жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлар. юрид. фан. ном. ... дис. автореф. . — Т., 2009. — Б. 25.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. В. Шукрона– / Таҳрир хайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА

Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – 592 б.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. V. Шукрона– / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – 592 б.

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 30 августдаги “Йўл ҳаракати хавфсизлиги кунини ўтказиш ва йўл-транспорт ҳодисалари профилактикасининг самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” 701-сон қарори // <https://lex.uz/ru/docs/3888332#3893359>

6. Хўжакулов С.Б. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси доир қонун ҳужжатлари: илмий-амалий таҳлил / Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси Ахборотномаси. –Т., 2015. – № 4. –Б. 34–39.

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. III. Н–Тартибли / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА Тил 177 ва адабиёт ин-ти. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. Б.573.

8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Тартибот–Шукр / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 369.

9. Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирининг 2011 йил 31 майдаги “Йўл ҳаракати қоидаларининг бузилишига доир маъмурий ишларни кўриб чиқиш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида”ги 68-сон қарори // <https://lex.uz/docs/1832522#6251005>

10. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2018 йил 30 ноябрдаги “Судлар томонидан маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги



ишларни кўришни тартибга солувчи қонунларни қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида”ги 35-сон қарори // <https://lex.uz/docs/4116801#4117265>

## PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE MANIFESTATION OF REFLEXIVITY DURING STUDENT LIFE

*N.S.Jo'raev*

*Independent researcher of the Kokand State Pedagogical Institute*

**Annotation.** The article presents the content of the concept of reflection, an analysis of the scientific research of foreign psychologists in the framework of the problem. According to him, an analysis of the theoretical approaches advanced to the concept of reflection is described. In particular, the results of an experimental study of the degree of formation of refraction during student life are presented.

**Keywords:** reflection, self-observation, personality, activity, behavior, self-control, self-control, self-control, self-attitude, self-accounting, self-understanding, self-knowledge.

**Аннотация.** В статье представлено содержание понятия рефлексии, проведен анализ научных исследований зарубежных психологов в рамках рассматриваемой проблемы. По его словам, описан анализ теоретических подходов, выдвинутых к понятию рефлексии. В частности, представлены результаты экспериментального исследования степени сформированности рефракции в течение студенческой жизни.

**Ключевые слова:** рефлексия, самонаблюдение, личность, деятельность, поведение, самоконтроль, саморегуляция, самообладание, самоотношение, самоотчетность, самопонимание, самопознание.

**Аннотация.** Мақолада рефлексия тушунчасининг мазмуни, хориж психологларнинг муаммо доирасидаги илмий изланишларининг таҳлиллари келтирилган. Унга кўра, рефлексия тушунчасига нисбатан илгари сурилган назарий ёндашувларнинг таҳлиллари баён қилинган. Айниқса, талабалик даврида рефлексияни шакллانганлик даражасини экспериментал ўрганиш натижалари келтирилган.

**Калит сўзлар:** рефлексия, ўзини ўзи кузатиш, шахс, фаолият, хулқ-атвор, ўзини ўзи назорат қилиш, ўзини ўзи бошқариш, ўзига бўлган муносабат, ўз-ўзига ҳисоб бериш, ўзини ўзи тушуниш, ўзини ўзи билиш.

Reflection is the ability to understand personal characteristics, how they are perceived by those around them, as well as to shape their own Hulk, taking into account the reactions to be expected.

In the encyclopedic dictionary of pedagogy, reflection is interpreted in a different way. Reflection - (from the Latin reflexio - look back) - reflection, self-observation. In philosophy – a form of human theoretical activity aimed at reflection on personal behavior and their laws. The desire to understand one's own actions and feelings and their laws, to learn from the mysteries of the universe is being identified early on; at all stages of Culture, a person began to think about the motives of his actions. Nevertheless, most of these behaviors do not have conscious motives. It is for this reason that secondary explanations are sought for simple behavior that do not belong to their historical origin, but reflect conclusions based on the general knowledge of the people in question. The existence of such secondary annotations is considered one of the main anthropological phenomena. At the same time, most human beings initially commit behaviors, and then try to justify them. In the psychological dictionary, the concept of reflection is explained as follows: reflection (lat. reflexio-hindsight) is the process of perception of internal psychic acts and states by a subject. There are many approaches to the problem of reflection in the scientific literature. In modern encyclopedias, reflection is indicated as a mental process that is directed towards self-awareness, understanding, analysis in general-its behavior, behavior, speech, experience, emotions, States, character, attitude towards oneself and others, tasks, tasks.

According to J. Locke, reflection is an observation that engages the mind's activity. In a short psychological dictionary, the concept of reflection is explained as follows: reflection (lat. reflexio - look back, reference) is the process of self-awareness of internal mental acts and situations by the subject. The concept of reflection arose in the science of philosophy, and it means the process of thinking about what is happening in the mind of an individual.

R. Descartes coordinated reflection with the individual's ability to distance himself from all external, physical things and focus on the content of his thoughts. Dj. Locke distinguished intuition and reflection, and interpreted reflection as a separate source of knowledge (an internal experience that differs from the external one based on the senses). In these views, a person's ability to self-report on the phenomena of consciousness experienced by him, to analyze his personal mental state has changed inadequately. Reflection is looking back, that is, the ability of a person to refer to the initial state of his thoughts, actions and actions several times, to be able to stand in the place of an external observer, to know what he is doing, how he perceives, including how he perceives himself. But it is not only the subject's self-understanding and knowledge, but also determining how others know and understand him, his personal characteristics, emotional reactions, and cognitive (cognitive) perceptions. A special form of reflection - subject-reflexive relations

develops when the subject of cooperation is manifested as the essence of these imaginations.

Reflection as a mechanism is formed somewhat later than identification. If the ability to identify is manifested in a child very early, the first signs of reflection develop in a preschool child, and as a source of acquisition of new knowledge, it develops in students of junior school age. Reflection helps to withdraw, to occupy different situations, which, in turn, allows for a deep and complete analysis of oneself.

Reflection is not only a process of self-understanding, self-awareness. It includes the processes of understanding and evaluating others. With the help of reflection, the coordination of one's consciousness, values, thoughts related to values with the surrounding people, groups, society, and finally, universal thoughts and relations is realized. To analyze something is to experience, to pass through one's inner world, to evaluate. Each person's world of reflection is individual, diverse and rich in content. It is the ability to reflect that allows a person to form actions, the meaning of life and imagination, and to eliminate those that are of a low level of effectiveness. An important aspect of reflection is the ability to manage personal activity in accordance with personal values and thoughts, to form new mechanisms in connection with the changed tasks, goals and conditions of activity and to switch to them. Reflection serves to think about the past and see the future. The commonality of all tariffs is that reflection is the ability of a person to describe himself from the outside, analyze his actions, and change them if necessary [2].

Students are young people who are preparing for production activities. Educating students is influencing their psyche and activity in order to form personality traits and characteristics such as ability, awareness, sense of duty, discipline, working with people, self-criticism.

The student period consists of the second stage of adolescence, includes 17-22-25 years and is characterized by a number of unique features and contradictions. Therefore, the period of adolescence begins with the realization of a person's social and professional status. During this period, adolescents experience a kind of mental crisis - or stress, they try to quickly fulfill the roles of adults in various forms /whether they like it or not, according to new aspects of lifestyle. marriage begins. The transition process of the lifestyle of adults causes internal contradictions depending on the characteristics of a person's maturation.

Students are taught to learn independently, organize their own activities, manage SELF, develop new ideas, etc. The main factor for the implementation of these tasks is the transition from a monologic lecture to a dialogical lecture based on the dialogue between the student and the teacher.

Psychologists B.G. Ananov, N.V. Kuzmina, N.F. Talzina, V.Y. Lyaudis, I.S. Cohn, V.T. Lisovsky, A.A. Bodalev, A.V. Petrovsky, M.G. Davletshin, I.I. Ilyasov, A.V.

Dmitrieva, Z.F. Yesareva, AA. Verbisk, VA. According to the studies of Tokareva, E.G.Ghozieva, R.Z.Gainuddinov and others, it is difficult for students to get an education in higher educational institutions, because during this period, the complex qualities and qualities of a person improve.

One of the characteristics of social and psychological growth at this age is the increase in motivation to study. Although the growth of moral processes in students is slow, but the most important qualities of character - independence, initiative, resourcefulness, insight, etc. are improving. Also, they are increasingly interested in social situations, reality, and moral rules, and their desire to implement them.

In the student years, the process of self-improvement plays an important role in the life and activities of young people, but the components of study management (self-monitoring, analysis, evaluation and verification, etc.) is of particular importance. By comparing the ideal /high, stable, perfect/ "me" with the real /concrete event/ "me", the components of self-management will have a practical expression. From the point of view of the student, the ideal "I" has not been sufficiently checked based on a certain criterion, so it is inevitable that they feel random and unnatural, therefore, the real "I" is also far from the true assessment of his personality, such an obstacle in the improvement of the student's personality positive contradictions create internal insecurity in relation to one's personality and a negative attitude towards studying.

The second period of adolescence is distinguished by features of demandingness and determination beyond the ability to assess behavior and reality. Therefore, students cannot always be principled. Some assertiveness also translates into a negative attitude toward adults. Students' rejection of the teacher's recommendations often causes conflicts.

Knowing the structure and nature of this or that trait, it is possible to use the educational opportunities of various subjects: to cultivate interest in the chosen profession and to like the chosen profession in higher school - to correctly imagine the social importance of the chosen profession in students, about the suitability of each student for his profession firm confidence, understanding the need to master all the subjects provided for in the curriculum of a higher educational institution, the way to self-educate for the benefit of work, to constantly supplement one's knowledge is carried out with [3].

It is known that the study of the factors affecting the formation of reflection during the student period shows how important the problem is. For this purpose, experimental work was organized using the method of determining the level of

reflection of the test subjects. The data obtained from the results of the research were analyzed in terms of quantity and quality.

**Table 1**

**Levels of manifestation of reflection during the student period**

Sinaluvchi	Retrospective reflection of activity	Reflection of current (existing, current) activity	Review of future activities	Communication and reflection of interaction with other people
1st course	14,8%	26,2%	29,4%	29,6%
3rd course	15,3%	28,3%	31%	25,4%

If we analyze the results collected by the testers according to the methodology, significant differences can be seen between them. Especially if at first it was difficult for them to organize their activities, and later, they were enriched with the increase of skills and knowledge.

We can see that the indicators of the requirements of the 3rd course have increased in a certain sense. Because it can be explained by the fact that they have increased life experience, skills and knowledge. The main thing is that they actively analyze the surrounding events and have a strong independent approach.

If we analyze the results according to the next scale of the methodology, it is (26.2% and 28.3%) in the group of testers. It is distinguished by the stability of their aspirations in relation to the type of activity they have chosen at the moment. Also, according to the indicators of the testers, it was found that the reflection of current (existing, current) activity is significant in the group of 3rd year students. If this is the strength of their need to continue their chosen type of activity in the future, the 1st year students state that their current activities are not stable and may change due to the circumstances.

In the test group, it was found that the indicators of the 3rd year students differed significantly on the scale of consideration of future activities. According to him, the indicators are 29.4% and 31%, which indicates that their visions about the future have been realized, albeit a little. It is important not to forget that there is a complex psychological phenomenon in front of them, such as choosing a profession and becoming a specialist.

The main task of communication during the student period is to determine and master the elementary norms of friendship and companionship. The main feature of student communication is that it is subject to a complete code of friendship. The character of students' communication with their parents and adults is formed on the basis of their sense of adulthood. They are deeply concerned about the resistance

and objections expressed by adults to restricting the rights of students. They need the support of adults in communication.

Joint activities help students to better understand adults. The student feels a great need to share with adults about the changes that are taking place in him, the problems that concern him, but he is never the first to start it. The student strongly complains about being treated like a young child, student communication is characterized by extreme volatility. Imitation of someone's behavior is characteristic of the student period. Often, they imitate the actions of adults they know and like.

In the psychology of creativity, communication is studied as the interaction of people with each other and in the process of mutual action. Communication between people is a necessary condition for human existence. People behave differently when they are alone. They behave differently when communicating with other people. V.M. Bekhterov emphasized that the influence of the group on the individual is permanent. Exclamation (a person's energy increases in the presence of other people). There are types such as activator (trying not to fall behind the members of the group in the process of human activity) or loser (inhibiting the demonstration of the individuality of the group's individual activity). In the studies of V.M. Bekhterev, M.V. Lange, V.E. Myasishev, F. Allport, V. Myode, A. Mito, D. Mareno and others, it has been proven that it has a great influence on the mental activity of a person, work ability, interpersonal communication, and the cooperative activities of people. It will be more productive to analyze the results of personal activity in the team, to compare them with the results of the activities of their comrades. According to F.D. Gorbov's researches, under certain circumstances, working together as a team allows each member of the group to develop a personality. This joint activity occurs in cohesive groups [1].

It is known that the reflection of communication and interaction with other people during the student period is 29.6% and 25.4%. If we look at the results of the methodology, most of the time of the 1st year students is spent on the streets, among peers and adults. Therefore, we can see that this scale is strong in the group of 1st year students. It shows that the main goal of our 3rd year students is to strive to become a qualified specialist in the future, to acquire the ability to deal with pressure and analytical approach in any situation.

Based on the above, it is possible to make the following conclusions, that is, the increase in self-knowledge of the student can affect the formation of reflection. The existence of a desire for self-knowledge, in particular, serves to form a unique system of views regarding their activities, the future, and the process of

communication. Even if this is the case, it indicates that they have developed self-awareness, control, management, and education depending on their age.

**Used literature**

